

**M.G'.DEHQANOVA**

**Inklyuziv ta'lim sharoitida  
nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar  
bilan ishlashda logopedik  
texnologiyalardan foydalanish**

**Toshkent  
2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

M.G'.DEHQANOVA

**Inklyuziv ta'lim sharoitida  
nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar  
bilan ishlashda logopedik  
texnologiyalardan foydalanish**

*MONOGRAFIYA*

Toshkent  
«Ilm nurlari kitob»  
2024

UO'K 376;37.013.2

KBK 74.3

D-98

M.G'.DEHQANOVA. Inklyuziv ta'lim sharoitida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda logopedik texnologiyalardan foydalanish. MONOGRAFIYA. – T.: "Ilm nurli kitob", 2024. 170 b.

**Taqrizchilar:**

**Abdujalilova Shoira Abdumajidovna** - *Pedagogika fanlari nomzodi.*

**Fayziyeva Ubayda Yunusovna** - *Pedagogika fanlari nomzodi.*

Ushbu monografiyada imkoniyati cheklangan bolalar nutqini rivojlantirish va maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlovchi xodimlar uchun qo'llanma xisoblanib, nutq kamchiliklarini bartaraf etish, nutq kamchiliklarini oldini olish, inklyuziv ta'limga biriktirilgan bolalarning ta'limini samarali etish yo'llari berilgan.

*Ushbu monografiya Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy texnik kengashining 29-may 2024-yil 10-sonli majlis bayonnomasiga binoan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-9397-4-7

**KIRISH**

O'sib kelayotgan yoshlar orasida nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar mavjud bo'lib, ularning sifatli ta'limga jalb etilishi borasida ham qator ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugunni kunda turli nutq kamchiligigabo'lgan bolalarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, farovon turmush kechirishlari hamda turli hayotiy vaziyatlarga samarali ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda, ularning maktabgacha bo'lgan davrning ahamiyati kattaligi bois, aynan maktabgacha maxsus ta'limni isloh qilish masalasi ham maxsus pedagogika va xalq ta'limi tizimi olidida turgan dolzarb vazifalardan sanalmoqda. Nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli, 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi halq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli farmonlari vaboshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e'tibor berilgan. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarni ilk davrdan tashxis qilish, tashxis natijalari asosida mos ta'limga jalb etish, sifatli ta'lim olishini ta'minlash, ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks ta'sirni o'z vaqtida maqsadli amalga oshirish uchun zaruriy infratuzilma hamda kadrlar masalasini hal etish imkoniyati kengaydi. Sog'lom bolalar kabi imkoniyati

cheklangan bolalarning ta'limga jalb etilgan ilk davrdan, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan pedagogik jarayon davomida ijtimoiylashish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar hamda elementar kompetensiyalar bilan qurollantirishning imkoniyatlarini asoslab berish hamda ularni tibbiy-pedagogik jihatdan o'rganish usullarini takomillashtirish maqsadida ushbu o'quv qo'llanmani hozirgi kunning muhim adabiyotlaridan biridir.

Barcha sohalar asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgarlar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Komil ishonch bilan shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kiruvchi asosiy manbadir.

Talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta'sir lozim. Logopedik ta'sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to'g'ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralastirib yuborishi kerak emas. Bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo'yicha ajrata bilishi; normal talaffuz qilingan tovushdan noto'g'ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o'zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila bilishi va sifatini baholashi; tovushni normal effektini, akustik effektini hosil qiluvchi artikulyatsion holatni bajara olishi; nutqning hamma turlarida tovushlardan o'rinli foydalanishi lozim.

Logopedik ta'sirning muvaffaqiyatli shart sharoitlari talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: logopedning bola bilan emotsional kontakti; mashg'ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo'l qo'ymaydigan ish tizimida olib borish asosiy ro'l o'ynaydi. O'sib kelayotgan yoshlar orasida nutqida

kamchiliklari bo'lgan bolalar mavjud bo'lib, ularning sifatli ta'limga jalb etilishi borasida ham qator ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Bugungi kunda turli nutq kamchiligigabo'lgan bolalarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, farovon turmush kechirishlari hamda turli hayotiy vaziyatlarga samarali ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda, ularning maktabgacha bo'lgan davrning ahamiyati kattaligi bois, aynan maktabgacha maxsus ta'limni isloh qilish masalasi ham maxsus pedagogika va xalq ta'limi tizimi olidida turgan dolzarb vazifalardan sanalmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari

hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

## I BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDAGI NUTQ NUQSONLARNI FARQLASH VA ULARGA TO'G'RI YONDOSHUV ORQALI LOGOPEDIK TEXNOLOGIYANI QO'LLASH

### Imkoniyati cheklangan bolalarda bilan olib boriladigan logopedik tekshiruv maqsadi va bosqichlari, bolalarda nutq nuqsonini aniqlash yo'llari



Turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi ishlar tashkil etiladi. Korreksion rivojlantiruvchi ishlarda psixolog, logoped, tarbiyachi, nevrapsixolog, psixonevrolog kabi mutaxassislar bilan olib boriladi. Tajribadan ma'lumki, turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi kamchiliklarni bartaraf etishda ularning yosh xususiyatlari inobatga olgan holda takshkil etiladi. Ayniqsa bolani bog'cha yoshida erta korreksion rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, bu bolani hayotga erta moslashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'llaniladigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan maktabda o'qishga tayyorlashni nazarda tutatadi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim

takshkilotlarining vazifalar hisoblanadi:

- Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya va sog'lomlashtirish ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta'lim tarbiya olishlarini va korreksion pedagogik ishni ta'minlash;

- Korreksion ta'lim tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;

- Bolaning ijtimoiy xissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlari shakllanishi uchun zarur korreksion - rivojlantiruvchi ta'lim tarbiya muhitini yaratish;

- Bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy korreksion pedagogik ishni tashkillashtirish;

- Bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta'limiga sifatli tayyorlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan 3-7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:

1. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar; (alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq nuqsoniga egabo'lgan bolalar)

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (1-4 guruh karlik va zaif eshituvchi bolalar)

3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (ko'zi ojizlar, zaif ko'ruvchi bolalar)

4. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (psixik rivojlanishning orqada olishi, psixik nutqiy rivojlanishining orqada qolishi, bolalar autizmi)

5. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar; (aqliy rivojlanishida orqada qolishning yengil darajasi, aqliy rivojlanishida orqada qolishning o'rta darajasi)

6. Tayanch harakatlanish a'zolarida nuqsonlari bo'lgan

bolalar (ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o'zgarishlar (bo'yin, ko'krak, umurtqa)).

Turli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tashkil etiladigan logopedik ishlarda logopedik tekshiruvning ahamiyati juda kattadir. Logopedik tekshiruvda bolaning barcha nutq komponentlari va nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari o'rganiladi.

Logopedik tekshiruv ishlarining samarali natijasi asosan maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'proq ko'zga tashlanadi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati maxsus dastur asosida ishlab, dastur 4 ta o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, o'quv yili boshidan 2 hafta davomida olib borilgan tekshiruvdan so'ng tanlab olinadi. Bolalarning har tomonlama dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirishlarini tekshirish uchun yilning oxirida vaqt ajratiladi. O'qish kuni 2 sentabrdan 31 maygacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustga qadar yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

Mashg'ulotlar jadvali 5 kunlik ish kuniga mo'ljallab tuzilib, defektolog va tarbiyachilar tomonidan nutq o'stirish, tevarak atrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, matematika, to'g'ri talaffuzga o'rgatish, tasviriy faoliyat bilan tanishtirish, qurish-yasash, mehnat, jismoniy tarbiya, o'yin mashg'ulotlari olib boriladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, maqsadga erishish uchun muayyan korreksion ta'lim-tarbiya ishlarga kompleks yondoshilib, ya'ni davolash tadbirlarini pedagogik ish jarayoni bilan chambarchas bog'lab olib borish kerak.

Bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan asosiy vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

1. Bolalarning umumiy rivojlanishini shakllantirish.

2. Mavjud kamchiliklarini korreksion-pedagogik va tibbiy sog'lomlashtirish usullar orqali bartaraf etishga erishish;

3. Ijtimoiy hayotga moslashtirish;

4. Bolalarni maktab ta'lim-tarbiyasiga tayyorlash.

Logopedik tekshiruvning predmeti: turli xil rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq shakllanishi xususiyatlariga va nutq kamchiliklarini aniqlashdan iborat.

Logopedik tekshiruvning obyekti: nutqiy va nutqiy bo'lmagan jarayondir.

Logopedik tekshiruvning subyekti: nutqida nuqsoni bo'lgan shaxs (bola).

Zamonaviy pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida munosabat – subyekt sanaladi. Shu boisdan ham nutqida nuqsoni bo'lgan bola obyekt emas, subyekt hisoblanadi.

Logopedik tekshiruvning maqsadi: bolada kuzatiladigan nutq kamchiliklarining rivojlanishi olidini olishda korreksion rivojlantiruvchi ishlarni aniqlash va bolaga to'g'ri ta'lim tarbiya berish.

Logopedik tekshiruvning maqsadidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilanadi:

1. Ta'lim tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida nutq kamchiliklarini bartaraf etishdakorreksion logopedik ishlarni tashkil etilish.

2. Chuqur o'rganish orqali bolada kuzatiladigan salbiy xususiyatlarni aniqlash.

3. Pedagogik faoliyat davomida nutq kamchiliklarini aniqlash va ularda kuzatiladigan o'zgarishlarni belgilash.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich: mo'ljal olish bosqichi, bunda bolalar haqida anamnez ma'lumotlar yig'iladi va bolalar bilan muloqatga kirishiladi.

Ikkinchi bosqich: farqlash bosqichi, bunda bilish, ko'rish, eshitish nuqsonlari orqali bolada kelib chiqadigan nutq nuqsonlarini logopedik tekshirish.

Uchinchi bosqich: asosiy bosqich, bunda nutq

tuzilishining barcha tomonlari tekshiriladi (asosan logopeik tekshiruv).

To'rtinchi bosqich: yakunlovchi bosqich, bunda maxsus ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning rivojlanish dinamikasi nazorat qilinadi.

### **Mo'ljal olish bosqichi**



Ushbu bosqichda bolaning anamnezi ma'lumotlari o'rganiladi. Logoped ota onalardan bola haqida to'liq ma'lumotni suhbat, anketa, so'rovnoma orqali olishi mumkin. Ota onadan xomiladorlikdan oldingi davr, xomiladorlik davri, xomiladorlikdan keyingi davrlar o'rganiladi. Shuningdek, ota onaning palapartish hayot tarzi (ichish, chekish) ham inobatga olinadi. Tug'ruqdan so'ng bolaning rivojlanish holati, ilk salbiy o'zgarishlar bo'yicha ham suhbat o'tkaziladi. Bola haqidagi to'liq ma'lumotni yig'ishda ko'pincha tibbiyot kartasi katta yordam beradi. Ko'p hollarda ota onalar birdaniga logopedning savollariga to'liq javob bera olmadilar, shuning uchun ham logoped savollarni anketa yoki so'rovnoma qog'oz tarzida uyda to'ldirishni so'rash mumkin bo'ladi. Bunda ota onalar uy sharoitida shoshilmagan holda kerakli ma'lumotlarni esga tushurish orqali anketa yoki so'rovnomaning to'ldirib beradilar. Logoped albatta tibbiyot kartasini o'rganganda asosiy tibbiyot mutaxassislarining qaydlarini o'rganadi: bolalar shifokori, nevroptolog, otorinolog, jarroh, ko'z shifokori va boshqalar. Suhbat maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi (3 va 7 yoshdagi), bunda logoped bolalar bilan suhbat orqali muloqatga kirishadi, shundan so'ng birlamchi nutq nuqsonlari aniqlanadi.

### **Farqlash bosqichi**

Ma'lumki, nutqning rivojlanishida bir qancha omillarga bog'liq holda rivojlanadi bular:


1. Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi.

2. Nutq harakat jarayonining saqlanib qolishi.
3. Ko'ruv va eshituv jarayonining saqlanib qolishi.



Kognitiv jarayonlarni o'rganishda bir necha metodikalardan foydalangan holda tafakkurni tekshirish mumkin: Segen doskasi, to'rtinchi orteppa, labirint, topishmoqlar, elementar matematik topshiriqlar, konstruktorga yig'ish.

#### Nutq harakat jarayonlar tekshirish quyidagicha:



- 1) Mimik mushaklarni tekshirish.
- 2) Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirish.
- 3) Barmoqlar harakatchanligi tekshirish.
- 4) Umumiy motorikanitekshirish.

#### Mimik mushaklarni tekshirish



1. Peshona mushaklar harakatini sifat va ko'lamini tekshirish.
2. Ko'z mushaklar harakatini sifat va ko'lamini tekshirish.
3. Lunjarmushak harakatini sifat va ko'lamini tekshirish.
4. Yuz mimik holatlarni aniqlash.

#### Artikulyatsion apparat mushaklar holatini tekshirish




Barcha topshiriqlar bir necha marta takrorlash orqali harakat yordamida bajariladi.

1. Og'zaki ko'rsatma orqali lablar harakatchanligini tekshirish.
2. Pastki jag' harakatchanligini tekshirish.
3. Til harakatchanligini tekshirish. Avval ko'rsatib berish orqali so'ng og'zaki so'rash orqali.

4. Yumshoq tanglay harakatchanligini tekshirish.
5. Nafas olish kuchini davomiyligini tekshirish.

#### Barmoqlar harakatchanligi tekshirish



1. Harakat koordinatsiyalarni statik mashqlar yordamida tekshirish (sanoq yordamida barmoqlarni turli holatda ushlab turish)



## 2. Harakatlar koordinatsiyasini o'zgarishini tekshirish.

### Umumiy motorikanitekshirish

1. Harakatlarni bajarishda o'zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, harakatni eslab qolishlarni tekshirish.

2. To'xtab qolish (tormozlanish) harakatlarni tekshirish.
3. Harakatlar koordinatsiyasini statik holatda tekshirish
4. Harakatlar koordinatsiyasini o'zgarishini tekshirish.
5. Mo'ljal olishni tekshirish.
6. Harakat tempini tekshirish.
7. Motorika sezgirlikni tekshirish.

So'nggi yillarda bolalar logopediyasida bolalarning erta yosh davrni o'rganish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy logopediyada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni erta aniqlash va bartaraf etish ishlari bolaning ilk kunlaridan boshlab, amalga oshirish lozim bo'lib kelmoqda. Bolada qancha erta nutq kamchiliklarni aniqlansa, olib borilayotgan ishlar samarasi ham yuqori bo'ladi. Logopedik ishlarni tashkil qilishda logoped ota onalar bilan hamkorlikda olib boriladi. Logopedik tekshirishda bolaning uyda yoki mehribonlik uyida tarbiya olganligi ham inobatga olinib, turli xil metodlardan foydalangan holda, shuningdek bolaning anamnez ma'lumotlari olinadi. Hamda tabiiy sharoitda bolalar kuzatiladi, erta tekshirish ishlarini olib borishda xomiladorlikni to'liq davrida rivojlangan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar olinadi.

### Birinchi etap (yangi tug'ilgan chaqaloq).

#### Logopedik tekshirish.



Anamnez ma'lumotlarni yig'ishda logoped quyidgi ma'umotlarga tayanadi: Yangi tug'ilgan chaqaloqing birinchi qichqirishi holatlari (baland, bo'g'ilgan, zaif, past, dumbasiga urgandan so'ng

yig'lagan, baqirmagan, yig'lmagan)


- Fiziologik nafas funksiyasi (chaqaloq o'zi mustaqil nafas olgan, nafas olish uchun maxsus apparatga ulangan);
- Neonatal jarayonida intensiv terapiya (antibiotiklar, qon quyish, kapelnitsaga ulanish);
- Neonatal jarayonda xirurgik amaliyot (tug'ilish jarayonidagi nuqsonlar tufayli nafas organlari, qon aylanishi, ovoz tuzilishidagi kamchiliklar);
- Bolani ko'krakdan birinchi bor emganligi;
- Sun'iy ovqatlanishning sabablari;
- Ovqatlanishning davomiyligi;
- Emgan vaqtida ko'krakni emish jarayoni, ovqatlanish vaqtida to'g'ri yutinish holati.

### Ikkinchi etap (1-3 oylikda)

#### Logopedik tekshiruv

Ushbu etapda logoped ota onalar bilan savol javob asosida bola haqidagi ma'lumotarni hamda bolani tabiiy sharoitda kuzatish orqali ma'lumot yig'adi. Tabiiy sharoitda tekshirish orqali quyidagilarga e'tibor beriladi:

- Oeh qolganda bolaning holati, cho'milganda sovuq qotishi yoki isib ketishi.
- Turli tamga ega bo'lgan narsalarni iste'mol qilishda mimikaning qay holatda o'zgarishi.
- Eshitish va ko'rish vaqtida diqqat bilan tinglashning ilk kunlari.



- Turli asabga ta'sir etuvchi shovqinlarga munosabati.
- Onaning bolaga murojaat etganda bolaning javob reaksiyasi.
- Yaxshi, qulay sharoitda bolaning ijobiy emotsiyalarni namoyon qilish.

Bundan tashqari alohida e'tiborga olinadi:

- Bolaning birinchi gu-gulash davri
- Tabiiy gu- gulash
- Kattalar intonatsiyasiga birinchi reaksiyasi

### **Uchinchi etap (3- 6 oylikda)**

*Logopedik tekshiruv*

- Chaqaloqning ovoz reaksiyalariga munosabati, ayniqsa kattalar unga diqqat bilan qaraganda va gapirganda.
- Ovozda intonatsiyalarga e'tibor berishi, ya'ni melodik ovozlari.
- Artikulyatsion jihatdan tovushlarni talaffuz qilishga o'tish vaqtida bolaning holati.
- Yaqin insonlar bilan muloqatga kirishganda bolaning holati.
- Birinchi qo'shimcha ovqatlanish vaqtida boladagi o'zgarishlar.

### **To'rtinchi etap (6- 9 oylikda)**

*Logopedik tekshiruv*

- 1) Bolaning gu-gulash davridan keyingi birinchi so'zlarning xususiyatlari (lepit)
- 2) Bolaga qaratilgan nutqning tushunish xususiyatlari.
- 3) Muloqat shakllarning rivojlanishi
- 4) Chaynash va yutinish jarayonining rivojlanishi
- 5) Bolaning ona bilan munosabati.

### **Beshinchi etap (9- 12 oylikda)**

*Logopedik tekshiruv*

- Katta inson bola bilan muloqat qilganda bolaning karakter o'zgarishlari.
- To'g'ri nutqiy muloqatning tushunish.
- Yangi so'zlarni qo'shib gapirishning (lepit) yakunlash bosqichi.
- Nutqiy muloqat jarayonida yangi so'zlarning paydo bo'lishi.



- Chaynash va yutinish jarayonining rivojlanganligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishda u bilan yaxshi munosabatda bo'lish, tekshirish vaqtida bolani kayfiyatini ko'tarib, uni maqtab yaxshi so'zlarni aytish kerak. Logopedik tekshirishning asosiy metodi: hujjatlarni o'rganish, bola bilan suhbatlashish, uning ota - onasi bilan suhbat o'tkazish, bolani kuzatish va test o'tkazishdan iborat.

Tajriba o'tkazishdan avval bolaning anamnezi va boshqa hujjatlar: bolaning daftarlari, chizgan rasmlari, psixologik xarakteristikasi va boshqalar; tibbiy tekshirishlar: eshitish, ko'ruv apparati, tayanch harakat apparati, bolaning nutqiy holatini yaxshi bilgan psixolog to'g'ri tekshirish ishlarini olib boradi.

*Ota - onalar bilan suhbat* davomida logoped bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ota ona bolasi bilan har kuni

muloqatda bo'lganligi uchun, farzandini yaxshi bilishadi, shu bois birga suhbat davomida logoped ularning bolaga bo'lgan munosabatini bilib oladi.

Logoped bola bilan alohida suhbatlashayotganda savollarni uning yoshiga moslab, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda berishi kerak.

*Kuzatish* bolani tekshirish davomida olib boriladi. Bolani rivojlanishini chuqurroq o'rganish uchun eksperiment tekshiruv metodini olib borish zarur. Eksperimental bola haqida to'liq ma'lumot olish mumkin.

*Eksperimental tekshirishlarni* olib borishda quyida tamoyillarga tayanish lozim:

- Psixologik ta'limni modellashtirish, bola buni hayoti davomida amalga oshiriladi (o'qish, o'yin).
- Bolaga beriladigan vazifa uning yoshiga va bilimiga tayangan holda bo'lishi kerak.
- Tahlili samarali bo'lishi uchun bolaning barcha ruhiy holatini, uni bajarish va davomiylik sur'ati.

Eksperimentni o'tkazishda bitta yo'nalishdan emas, balki bir necha bir biriga yaqin bo'lgan usullarni tanlash kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tekshirishda psixologik holat ham inobatga olinadi bunda:

- Diqqatni tekshirish
- Xotirani tekshirish
- Nutqni tekshirish
- Idrokni tekshirish
- Tafakkurni tekshirish
- O'z-o'zini baholashni tekshirish
- Oilada ichki munosabatlarni tekshirish
- Tengdoshlari bilan munosabatlarini tekshirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirishda bir nechamethodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq bular:

- Matryoshkani yig'ish va ajratish
- Piramidani taxlash va ajratish

- Segen taxtasi
- Pochta qutisi
- Kesma rasmlar
- Qatoriga qo'yish
- Namunaga qarab qurish
- Klassifikatsiya
- Koos kubiklari

***Ushbu metodikalar bolaning yoshiga qarab o'tkaziladi va tahlil etiladi.***

## INKLYUZIV TA'LIMGA VA OMMAVIY TA'LIMGA JALB QILINGAN BOLALARDA UMUMIY VA MAYDA MOTORIKANI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI




Motorika (lot. motus - harakat) - tananing yoki alohida a'zolarning harakatlanish faoliyati, motorikko'nikmalar deganda ma'lum bir vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan harakatlar ketma-ketligi tushuniladi. Motorika o'z navbatida

vazifasiga ko'ra ikki bo'limga ajratiladi.

1. Umumiy motorika
2. Mayda motorika.

Ikki bo'lim ham o'z navbatida umumiy va xususiy vazifalarni bajaradi. Har bir harakat ma'lum bir motorikada sodir etiladi. Motorika (ohang) tushunchasi keng qamrovga ega va she'rga, proza, nafas olish, tabiat, va h.k. larga nisbatan qo'llaniladi. Motorika universal kosmik kategoriya sifatida ham yuzaga chiqadi. «Makon va vaqt mangu motorika qonuniga bo'ysunuvchi materiya bilan to'ldirilgan», - deb yozgandi E. Jak-Dalkroz .




Motorikaning barcha ko'rinishlariga mos tushadigan ta'rifini topish mushkul. "Motorika" tushunchasi ko'pincha ko'rinishlarning vaqtda almashinishi xususiyatlari bilan bog'liq, biroq makon san'ati - balet, rassomlik, haykaltaroshlik, arxitekturaga nisbatan "makon

motorikasi" haqida ham gapirish mumkin.

Motorikaning asosiy belgisini birmuncha kamroq yoki ko'proq takrorlashning qat'iy davriyligida ko'rish qabul qilingan. Biroq vaqtinchalik san'atlarda, ya'ni "motorika" tushunchasi birmuncha yuqori rol o'ynaydigan joyda bu belgi yo'q bo'lishi mumkin, masalan, spektakl, proza motorikasi, ba'zida musiqa

motorikasi takrorlanishning davriyligi bilan xarakterlanmaydi.

Motorika ko'p narsani o'z ichiga oladigan tushuncha sifatida faqat bitta, noaniq belgisi bilan farqlanadi: bu predmetlar, ko'rinishlar, jarayonlarning vaqtinchalik yoki makoniy tartibi. Psixolog B.M. Teplov motorika ba'zi bir muayyan jarayonni vaqtda tashkilotish deb hisoblaydi. Motorika bir-birining ketidan keluvchi u yoki bu guruh vaqt qatorining ba'zi bo'linishlarini zaruriy shart sifatida ko'zda tutadi. Motorika haqida faqatgina bir tekisda ketma-ket keluvchi qo'zg'atuvchilarning ma'lum bir guruhlariga bo'linganidagina gapirishimiz mumkin, shu bilan birga, guruhlar bir xil (2-3 a'zodan va h.k.) yoki bir xil bo'lmasligi ham mumkin. Biroq har qanday guruh va vaqt qatorining bo'linish ham motorikani hosil qilmaydi. Motorika guruhning, albatta, umuman motorikaning majburiy sharti urg'uning mavjudligi, ya'ni birmuncha kuchli va qandaydir ajralib turadigan qo'zqatuvchiga munosabat hisoblanadi. Urg'usiz motorika yo'q. Shunday qilib, motorika urg'u atrofida birlashuvchi guruhlarda qo'zg'atuvchining vaqtinchali ketma-ketligidagi qonuniy bo'linmasidir.




Motorikani psixologik va pedagogik fanlar nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Psixologik aspektda motorika - bu metromotorika yoki shu so'zni keng olganda motorika. Masalan, metronomni tinglab odam bir xil ovozlarni ketma-ketligini guruhlariga bo'ladi, bunda u alohida tovushlarga urg'u beradi, ya'ni ularni birmuncha baland ovozlarga

ajratadi. O'ziga xos "motorikani boshdan kechirish" yoki sub'ektiv motorikalashtirish tug'iladi. Sub'ektiv motorikalashtirish uchun birmuncha qulay tezlik daqiqasiga

100 udardan 200 udargachani tashkil etadi. Sub'ektiv motorikalashtirish agar tezlik 30 dan kam va daqiqasiga 500 udardan ko'p bo'lsa boshlanmaydi.

Bu raqamlar pedagogik qiziqish uyg'otadi, chunki ular motorika jihatdan oxirgi harakatlar qaysi tezlikda oson qabul qilinishini ko'rsatadi.

**Umumiy motorika.** Pedagogik aspektda motorika (grekcharhythmos so'zi motorikaga taalluqli, ravon, bir me'yordagi kabi ma'nolarni beradi) – bu harakatning musiqa bilan bog'liqlikda qurilgan jismoniy mashqlar tizimi. Motorika, ayniqsa, bola yoshida jismoniy va badiiy tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U bolalarning uyg'unlashgan jismoniy rivojlanishiga, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, harakat aniqligining rivojlanishiga yordamlashadi, bolalarni musiqa, raqs, qo'shiq bilan tanishtiradi, harakatda musiqiy asarning xarakteri va jadalligini aks ettirishga o'rgatadi. Motorika mashg'ulotlarida sakrash, o'yinli mashqlar, yugurish, badiiy gimnastika elementlari, raqsli va imitatsiyali harakatlardan foydalaniladi.



Motorika qismi o'z asosida motorli, faol tabiatga ega va motorli reaksiya bilan olib boriladi. Bu reaksiyalarning mohiyati motorikani his qilishda ko'p obrazli kinestetik hislarni uyg'otishdan iborat. Bu til, miya, jag', oyoq barmoqlari muskullarining qisqarishi, hiqildoq, miya, ko'krak qafasi va qo'l-oyoqda vujudga keladigan kuchlanish, bosh va nafas muskulaturasining boshlang'ich qisqarishi va nihoyat,

organing makoniy holatini o'zgarishsiz kuchlanish va ko'chashish fazalarining almashinuvini chaqiruvchi bir-biriga qarama-qarshi (bukuvchi va rostlovchi) muskullarning bir vaqtni o'zida rag'batlantirilishidir.



Birmuncha faol motor reaksiyalari urg'uni anglashda ko'zga tashlanadi. Bunda harakat haqqoniy va faraz qilingan bo'lishi mumkin. haqqoniy harakatlar boshlang'ich va to'liq sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich harakatlar tovush turmasidagi va tovush apparatining yordamchi qismlari, shuningdek, barmoq muskullari, lab va boshqa muskullar innervatsiyasi oqibatida yuzaga keladi.



Boshlang'ichda bo'lgani kabi to'liq harakat ham amalga oshirilmagan bo'ladi: odam o'zi sezmaydigan holda oyog'i yoki qo'li bilan chertib maqomga soladi. Faraz qilingan harakat tashqi tomondan ko'rinmaydi, eshituvchi uni xayolan tasavvur qiladi.



E.Jak-Dalkrozning tasdiqlashicha, har qanday motorika harakat demakdir va motorika qismining vujudga kelishi hamda rivojlanishida bizning butun vujudimiz ishtirok etadi. U motorikani badanda his qilmay turib musiqiy motorikani qabul qilish mumkin emas, deb hisoblaydi. Musiqa doimo hissiy mazmunni ifodalaydi, motorika esa musiqaning ta'sirli vositalaridan biri qisoblanadi. Albatta, musiqiy motorika ham ba'zi bir hissiy mazmunni ifodalash hisoblanadi va motorli hamda hissiy tabiatga ega. Musiqasiz musiqiy motorika tuyg'u si tug'ilishi ham, rivojlanishi ham mumkin emas.

Motorikali tuyg'u musiqiy-motorikali deb nomlanuvchi musiqiy motorikani tushunish bilan bog'liq musiqani faol boshdan kechirish va vaqtinchalik musiqiy harakatni hissiy ifodalashni nozik his qilish qobiliyati sifatida xarakterlanadi.

Musiqiy-motorika tuyg'uni rivojlantirish asosida shaxsni musiqa va motorika ta'sir etishi yo'li bilan shakllanishiga ko'maklashuvchi musiqiy-motorika tarbiya quriladi.

Shunday qilib, musiqiy asarlar mavzulari, musiqiy o'yinlar, xorovodlarning turli-tumanligi natijasida bolalarning bilim qobiliyati, iroda sifatleri, hissiy muhitlari rivojlanadi. Musiqiy-motorika tarbiyaning mazmuni qo'shiq, o'yin, motorika mehnatli jarayon, bayramlar qisoblanadi.

Musiqiy-motorika mashg'ulotlarda ko'pincha mashg'ulotdan tashqarida ham o'tkazilishi mumkin

bo'lgan harakatli o'yinlardan foydalaniladi.

Umumiy motorli ko'nikmalarga: ag'darish, egilish, yurish, emaklash, yugurish, sakrash va shunga o'xshash harakatlar kiradi



### UMUMIY MOTORIKANI TEKSHIRISH

1. Harakatlarni bajarishda o'zini nazorat qilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, harakatni eslab qolishlarni tekshirish.
2. To'xtab qolish (tormozlanish) harakatlarni tekshirish.
3. Harakatlar koordinatsiyasini statik holatda tekshirish
4. Harakatlar koordinatsiyasini o'zgarishini tekshirish.
5. Mo'ljal olishni tekshirish.
6. Harakat tempini tekshirish.
7. Motorikaik sezgirlikni tekshirish.

Mayda motorika. Bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish ular tafakkurining kuchli rivojlanishiga zamin tayyorlashi ko'p psixolog va pedagoglar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Masalan, M.I.Koltsova, Ye.I.Isenina, A.V.Antakova-Fomina va boshqalar mayda qo'l motorikasining rivojlanganligi

bolalar nutqini shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlasalar.

P. Losev mayda qo'l motorikasi va barmoqlar harakatini mutanosibli bolalarni maktabgacha yoshda to'g'ri rivojlanishining eng muhim masalalardan biridir, deb hisoblaydi. N.S.Jukova, Ye.M.Mastyukova, T.B.Filecheva, S.I.Bot va boshqalarning maxsus adabiyotlarida bo'lsa, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish yo'llari orqali nutqidan uqsoni bo'lgan bolalarning nutqini to'g'ri shakllantirishga yo'naltirilgan usullar berilgan. Shuningdek, Italiyalik pedagog Mariya Montessori o'zining pedagogik qarashlaridan kelib chiqib bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish, ularni his qilishga o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi. Bolalarda sensorika va motorikani rivojlantirish kichkintoylarda yozish, hisoblash ko'nikmasini shakllantiradi.

Q. Montessori metodikasining asosiy mohiyati bolada mustaqil faoliyat orqali shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilishga sharoit yaratish va yordam berishdan iborat. Shuningdek, Montessori materiallari kichkintoylarda mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Bolada ichki kuchni rivojlantirish va uning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga turtki beradi. Bundan tashqari bolada atrof-muhit to'g'risidagi tasavvurlar ham tizimga solinadi.

Ta'lim jarayonida tarbiyachining diqqat markazida kichkintoyning individual va ijtimoiy-hissiy ehtiyojlarini qondirish nazarda tutilishi lozim. Mashg'ulot va o'yinlar uchun tanlangan didaktik materiallar bolada motorika (harakat) va sensorika (sezgi)ni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bolaning mustaqil harakat qilishi natijasida uning ichki kuchlari erkin bo'ladi va asta-sekin kattalar yordamisiz ham o'zi bajara olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Montessori materiallari bola uchun dunyoni, atrof-olamni anglash kaliti hisoblanib, dunyo haqidagi tasavvurlarini tizimga solishga, uning xayotiy va atrof-olam to'g'risidagi bilimlarini kengayishiga sabab bo'ladi. Bular yordamida bolada

dunyoqarash rivojlanadi. U o'zining shaxsiy tajribasi asosida atrof-olam va tabiatda yuz beradigan hodisalarni tushunadi va anglay oladi. Didaktik maqsadlarga qaratilgan motorika umumiy, hissiy, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sir etadi. Onalarning hammasi bolalarda qo'llarning mayda motorikasini rivojlantirish kerakligini biladi. Biroq hamma ham buni qay tarzda bajarish kerakligini va umuman mayda motorika o'zi nima va uning qanday o'ziga xos xususiyatlari borligini bilmaydi.

Motorikani rivojlantirish uchun bolalar bilan qanday mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlarni o'tkazish kerak. Mayda motorika - bu qo'l-oyoqlarning kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni bajarish qobiliyati. Mayda motorika sohasi ko'p sonli turli-tuman harakatlarni o'z ichiga oladi: oddiy ishoralardan tortib (masalan, o'yinchoqni ushlab olish) to juda murakkab harakatlargacha (masalan, yozish va rasm chizish).

Mayda motorika tug'ilgan paytdanoq rivojlana boshlaydi. Oldiniga go'dak o'z qo'llarini o'rganadi, keyin ularni boshqarishga o'tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita (katta va ko'rsatkich) barmog'i bilan oladi. So'ngra bolani qoshiq, qalam, mo'yqalam kabi buyumlarni to'g'ri ushlashga o'rgatishadi.

Mayda motorikaning juda muhim xususiyati bor. U bolaning asab tizimi, ko'rish qobiliyati, diqqat-e'tibori, xotirasi va ibrok qilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, bolaning nutqi rivojlanishi uchun ham mayda motorikani rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim.

Mayda motorikani rivojlantirish uchun ko'plab mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: barmoq o'yinlari, mayda buyumlar bilan bog'liq o'yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish.

## **UMUMIY VA MAYDA MOTORIKA RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR**

Kaftlarni massaj qilish. Bu mayda motorikani rivojlantirishning har qanday yosh uchun mos keladigan eng oddiy va universal usuli. Siz barmog'ingiz bilan bolaning kaftlarini silaysiz va ularni massaj qilaysiz. O'z harakatlaringizni «Hakka-qarg'a» hazilnamo muqaddimasi bilan birga bajaring.

### **«Ladushki»**

Hammamiz bolaligimizdan «Ladushki-ladushki» o'yinini bilamiz. Bu o'yin go'daklarni barmoqlarini yoyishga va chapak chalishga o'rgatadi.




### **Qog'oz yirtish**

Bu mashq 7 oyni to'ldirgan bolalarga to'g'ri keladi. Kichkintoyga bir necha varaq yumshoq rangli qog'oz bering. U qog'ozni bajonidil ushlab ko'radi, qo'llarida aylantiradi va yirtadi. Bu mashg'ulot unga juda katta zavq bag'ishlaydi.



## **Sahifalarni varaqlash**

Bir yoshdan so'ng qog'oz yirtishni rasmlari ko'p kitobcha yoki jurnal sahifalarini varaqlashga almashtirish mumkin.



### **Munchoqlar**

Bolalarga mayda buyumlarni ushlab yoqadi, bu juda foydali. Shuning uchun bo'yningizga turli o'lcham va shakldagi munchoqlari bor biror-bir taqinchoqni taqib oling. Go'dak ularni zavq va qiziqish bilan ushlay boshlaydi.



### **Bir-biriga kiruvchi kosachalar**

Ulardan minoralar qurish, bir-birining ichiga kiritish mumkin. Ushbu o'yin bolada buyumlarning o'lchami haqidagi tushunchani shakllantiradi.






### **Yormalar**

Kosachaga istalgan yormani soling va uni bolaga bering. U yormani qo'li bilan ushlab ko'radi yoki barmoqlari orasidan to'kadi. Ushbu o'yin mayda motorika va taktil hissiyotlarni yaxshi rivojlantiradi.



### **Qumda rasm solish**

Patnisa qum seping. Bolaning barmoqchasini o'z qo'lingizga olib, uni qum bo'ylab yuriting. Rasm chizishni chiziq, to'g'ri burchak, doira kabi oddiy shakllardan boshlab, ularni asta-sekinlik bilan murakkablashtirish mumkin.



### **Qopqoqlarni burab yopish**

Bankalar, butilkalarning qopqoqlarini burab ochib-yopish kabi oddiy mashg'ulot barmoqlarning ephilligini rivojlantiradi. Farzandingizga turli o'lcham va shakldagi idishlarni taklif qiling, bu o'yinni turli-tumanroq qiladi.



### **Tugmani taqish, yechish, iplarni bog'lash**

Bolani kiyintirish jarayoniga jalb eting. Tugmalari va molniyalarini o'zi taqsin va yechsin. Bu nafaqat qo'l harakatlarini rivojlantiradi, balki bolani mustaqillikka ham o'rgatadi. Shuningdek bolaga bog'ichlari bor-biror-bir keraksiz botinkani ham berib qo'ying, u qo'llar uchun ajoyib trenajor rolini o'taydi.



### **Yumshoq narsalarga shakl berish**

Shakl berish turli yoshdagi bolalarga mos keladi. Ular plastilin, loy va xamirdan turli narsalarni yasashlari mumkin.



### **Rasm chizish va bo'yash**

Punktir chiziqlardan iborat rasmlarning konturlari ustidan chizib chiqish hamda turli shakldagi obyektlarni bo'yash juda foydali. Shuningdek vertikal yuzalar – devor, doska, oynada chizish ham foyda beradi. Shu bois bola chizishi uchun maxsus doska osib qo'ygan ma'qul.




### Mozaika va pazllarni yig'ish

3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun yirik qismlardan iborat pazllar va mozaikalar tanlanadi. Pazllar bolaning tasavvurini ham mashq qildiradi.



### Qirqish

Kichkintoyga bolalar uchun mo'ljallangan qaychi, qalamsimon yelim, rangli qog'oz va karton xarid qiling. Uni turli narsalarni yasashga o'rgating. Suratlarni qirqib, yopishtiring, qor uchqunlarini yasang va hokazo. Bu bolaning nafaqat mayda motorikasini, balki tasavvur qilish qobiliyati va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi.







**BU MUHIM! MAYDA MOTORIKANI RIVOJLANTIRISH UCHUN MO'LJALLANGAN O'YINLAR FAQAT KATTALARNING NAZORATI OSTIDA OLIB BORILISHI HAMDA BUNDAY MASHQLARNI MUNTAZAM RAVISHDA BAJARISH ZARUR.**

Demak, bolalarda sezgi va mayda qo'l harakatini rivojlantirish orqali maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari

yanada kengayadi degan xulosaga kelish mumkin. Quyida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda mayda qo'l harakatini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar bilan tarnishing.

U mashq	"Savatcha"ni yasatamiz (2-5 yoshli bolalar uchun).	
<p>Mashq maqsadi: kichkintoyning asosiy barmoqlarida (bosh barmoq, bo'rsatkich va o'rta barmoq) motorikani rivojlantirish. Bolani yozishga o'rgatish.</p> <p>Kerakli jihozlar: savatcha yoki qalin karton qog'oz (to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishi kerak), kir qistirgich.</p> <p>ko'rsatma: Savatchaning cheti juda qalin bo'lmasligi lozim. Bolaga kir qistirg'ich solingan savatcha beriladi. Tarbiyachi unga har uch barmoq oralig'idan keyin kir qistirg'ichni savatcha chetiga terib chiqishni taklif qiladi. Bola topshiriqni mustaqil bajaradi.</p>		
<p>Izoh: kichkintoy yozish malakasiga ega bo'lishi uchun avval unda mayda qo'l motorikasi rivojlangan bo'lishi lozim. Ya'ni, u qalam yoki ruchka ushlaganda yengil va oson bo'lishi kerak. Mashqni ko'p marotaba takrorlash bolada barmoqlarni yaxshi harakatlantirish hamda o'ng va chap qo'lni farqlashga o'rgatadi. Kuzatish jarayonida uning o'ng yoki chap qo'lni farqlashga ekanligi ham aniqlab olinadi. Tarbiyachi bolaning ikkala qo'lda ishlashini nazorat qilishi kerak.</p>		
U mashq	"Rangli tomchilar" (2-5 yoshli bolalar uchun).	
<p>Maqsad: bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish. Barmoqlar harakatini mustahkamlash. Diqqatni jamlashga o'rgatish hamda qo'llarni yuzishga tayyorlash.</p> <p>Kerakli jihozlar: patnosda 12 katakchali suv muzlatgich idishi qo'yiladi. Har to'rt katakchanning ustiga qizil, ko'k va sariq rang belgisi qo'yiladi. Patnosda uch xil rangli stakanda suv qo'yiladi. (Suvga qizil, sariq, ko'k rangda iste'mol bo'yog'i solib rang beriladi). Har bir stakanda suv tomizgich (pipetka) turadi.</p> <p>Mashqning borishi: bolalar stakandagi rangli suvdan pipetka yordamida suv olib, rangiga mos muzlatkich idishiga tomizadi. Asta-sekin suv muzlatkich katakchalari rangiga mos suv bilan to'ldiriladi.</p> <p>Izoh: bu mashq orqali nafaqat bolada barmoqlar harakati rivojlantiriladi, balki ranglarni farqlaydi hamda ko'p va kam miqdor tushunchalarini ham o'rgatadi. Ularda taqqoslash va solishtirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, har xil rangli tomchilarni tomizish ularda psixomotorikani rivojlantiradi.</p>		

3-mashq.	"Munchoqlarni teramiz" (2-5 yosh bolalar uchun).	
<p>Mashq maqsadi: bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish va mustahkamlash. Koordinatsiya va qo'llarni yozishga tayyorlash.</p> <p>Kerakli jihozlar: patnosda munchoq solish uchun bir necha katakchali quticha (sovun qutisidan ham foydalanish mumkin), pinset va turli rangdagi munchoq solingan stakan. Munchoqlar qutichada to'la bo'lishi uchun bir xil miqdorda bo'lishi kerak.</p> <p>Mashqning borishi: bola o'ng yoki chap qo'li bilan (agar chapaqay bo'lsa) pinset yordamida stakandagi munchoqlarni qutichaga soladi. Agar qutichalar to'lsa, munchoqlarni olib yana stakanga qaytarib solishni taklif etish mumkin.</p> <p>Izoh: mashq barmoqlar harakatini shunday rivojlantiradiki, bola keyinchalik qiynalmasdan mayda harflarni yoza oladi. Mashqni bajarish jarayonida bolada diqqat barqaror bo'ladi hamda o'z ichki hissiyotlarini nazorat qila olish ko'nikmasi rivojlanadi. Agar munchoq qo'ldan tushib ketsa, u mustaqil ravishda o'z xatosini o'zi tuzatishi kerak. Mashq boladan aniq va to'g'ri harakat bajarishni talab etadi.</p>		
4-mashq.	"Qaychi bilan qanday qirqamiz" (2-5 yosh bolalar uchun).	
<p>Mashq maqsadi: kichkintoylarda qo'l harakatlarini boshqarish malakalarini rivojlantirish. Qo'l muskullarini mashq qildirish. Diqqatni jamlashga o'rgatish va yozishga tayyorlash.</p> <p>Kerakli jihozlar: stol ustida bolalar qaychisi, bir nechta qalin rangli karton. Ayrim kartonlarda qirqish chizig'i chizib qo'yiladi.</p> <p>Mashqning borishi: stol ustiga qaychi va rangli kartonlar qo'yiladi. Bola o'ng qo'li bilan qaychini ushlaydi va kartondan mayda bo'lakchalar qirqadi. Keyinroq chiziq bo'ylab qirqadi va asta-sekin turli shakllarni ham qirqa boshlaydi.</p> <p>Izoh: bu mashq orqali unda yozish malakasi emas, balki qaychini ushlay hamda chiziqlar bo'ylab to'g'ri qirqish ko'nikmasi shakllanadi. Shuningdek, bola qaychini ushlay va qog'ozda aniq chiziqlarni qirqishga tayyorlanadi. Mo'ljalni to'g'ri olish malakasi shakllanadi.</p>		

3-mashq	"Shakllarni joyiga to'g'ri qo'y" (2-4 yosh bolalar uchun).	
<p>Mashq maqsadi: bolalarning so'z boyligini oshirish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.</p> <p>Kerakli jihozlar: kartondan tayyorlangan hayvonlar, o'simliklar, uy-ro'zg'or buyumlari tasvirlangan shakllar.</p> <p>Mashqning borishi: stollarga hayvonlar, o'simliklar, uy-ro'zg'or buyumlari shakli solingan quticha qo'yiladi. Ular hayvonlarni birinchi qatorga, o'simliklarni ikkinchi qatorga, uchinchi qatorga esa uy-ro'zg'or buyumlarini qo'yib chiqadilar. Bu mashq orqali bolada mantiqiy fikrlash rivojlanadi hamda atrof-olam haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi.</p> <p>Kichkintoylar kartondan hayvon, o'simlik yoki uy-ro'zg'or buyumlari shakllarini qirqishlari ham mumkin.</p>		
4-mashq	"Kartada o'ynash" (2-4 yosh bolalar uchun).	
<p>Mashqning maqsadi: bolalarning so'z boyligini oshirish. Rasmlarni taqqoslash. Buyum va narsa nomlarini aytishga o'rgatish.</p> <p>Kerakli jihozlar: turli xil qizil, yashil va sariq rangda kartonga chizilgan hayvonlar, o'simliklar, buyum yoki narsalar to'plami. Jonli yoki jonsiz tabiat aks ettirilgan bo'lishi mumkin.</p> <p>Mashqning borishi: bolalar stol ustiga qizil karton to'plamini terib chiqadilar. Masalan "uy hayvonlari", "yovvoyi hayvonlar". Har bir bola kartonda tasvirlangan rasmning nomini aytib izohlaydi. Agar kichkintoylar rasmdagi hayvonlar nomini bilmasalar tarbiyachi yordam beradi.</p> <p>Mashqning ikkinchi variantida barcha kartonlar aralashtiriladi yoki rasmlari qo'yib chiqiladi. Kichkintoylar tartib bilan bir-biriga mos rasmlarni ajratib joylashtiradilar va taqqoslaydilar.</p> <p>Izoh: tarbiyachi didaktik materiallarni tayyorlayotganda kartonga chizilgan rasm aniq bo'lishiga, rasm foni oq bo'lsa ham karton cheti qizil, yashil yoki sariq bo'lishiga e'tibor qaratishi lozim. Kartondagi rasmlar turli xil bo'lishi kichkintoyda dunyoqarashni rivojlantiradi shuningdek, so'z boyligini oshiradi. Kartonlarni terish orqali bolada o'z-o'zini boshqarish, fikrlarni umumlashtirish hamda mavhum tafakkur rivojlanadi.</p>		


Ushbu mashqlar bolalarning mayda qo'l harakatini rivojlantirishga bo'libijodiy yondashgan holdamustaqil boshqa mashqlarni ham yaratishlari mumkin.

Motorika tekshirish metodlari nafaqat bola psixikasini

tinchlantirib rivojlantiradi balki, kattalar uchun ham juda foydali hisoblanib psixologik hordiq olishni ta'minlaydi. Motorika tekshirish uchun nafaqat maxsus maydonchalarga balki ochiq tabiat qo'ynidan foydalanish ham foydalidir.

### ARTIKULYATSION NUTQ APPARATINI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Tovushlar talaffuziniikki bir biriga bog'liq holatda tekshiriladi.



#### Artikulyatsion holat.


Nutqda tovushlarni hosil qilish holati va nutq jarayonida tovushlarni talaffuz etish holati aniqlanadi

#### Fonologik holat.


Bola nutq tovushlarni farqlashni va turli xil fonematik jarayonda ularning holati aniqlanadi.

### ARTIKULYATSION NUTQ APPARATINI TEKSHIRISH


1) Lablar: qalin, ingichka, yuqori labning o'ta ingichkaligi, pastki labning o'ta qalinligi.



2) Tishlar: prikuslarni noto'g'ri joylashuvi, tishlar tuzilishidagi kamchiliklar.




3) Qattiq tanglay: tor, o'ta chuqur rivojlangan.



4) Yumshoq tanglay: yumshoq tanglay kaltaligi, tilchanning ikkiga bo'linganligi, kichik tilchanning yo'qligi.

### 3 ПОЛОЖЕНИЯ МЯГКОГО НЕБА В ПЕНИИ



#### **Artikulyatsion mashqlar o'tkazish uchun kerakli bo'lgan talablar:**

1. Talab qilingan vaziyatni egallay bilish, shu vaziyatda tura bilish (olish), shu vaziyatni sakrab turish, bir vaziyatdan ikkinchisiga o'ta bilish.
2. Artikulyatsion motorikani rivojlantiruvchi mashqlar tizimiga statik mashqlar kabi nutq harakatining dinamik koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ham kirgizishi lozim.
3. Lab va til harakat mashqlarini birga olib borish zarur, chunki bu organlar tovushlarni talaffuzida birgalikda ishtirok etishadi, bir-biriga moslashadi (bu ko'rinishni koartikulyatsiya deyiladi).
4. Bola toliqib qolmasligi uchun mashg'ulotlar qisqa, lekin ko'p marta o'tkazilishi lozim. Orada boshqa ish turi bilan shug'ullanish lozim.
5. Kinestik sezgini, kinestik analiz va tasavvurni shakllantirishga katta e'tibor berish kerak.
6. Harakatlarni o'zlashtirish bilan birga, tovushlarni

realizatsiya qilish uchun logoped boshqa tovushlarga kerak bo'lgan harakatlar ustida ishlashga o'tadi.

### Artikulyatsiya gimnastikasi




Dastlabki logopedik tekshirish jarayonida artikulyatsion apparat a'zolari tuzilishida kamchiliklar borligi aniqlanadi. Bunday hollarda fonematik idrokni rivojlantirish ishlari bilan parallel ravishda artikulyatsiya gimnastikasi (tayyorgarlik mashqlari) olib boriladi. Artikulyatsiya gimnastikasining maqsadi, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish uchun zarur bo'lgan artikulyatsiya a'zolarini to'liq, aniq keltirish va oddiy harakatlarni murakkab harakatlarga turli sil fonemalarning artikulyatsiya tartibiga birlashtirishdan iboratdir.


Hamma artikulyatsion mashqlari tizimini ikki turga bo'lish mumkin: statik va dinamik. Statik mashqlarda artikulyatsiya a'zolari turli holatlarga keltiriladi, lekin harakat bo'lmaydi. Dinamik mashqlarda artikulyatsiya a'zolari turli holatlarga va shu bilan birga harakatga keltiriladi.

### Statik tayyorgarlik mashqlari

1. «Belkurakcha». Til keng holda chiqarilib, bo'shashtiriladi va pastki lab ustiga qo'yiladi. Bunda til titramasligi kerak. Til shu holda 10-15 daqiqa ushlab turiladi.





2. «Kosacha». Og'iz keng ochiladi, til keng chiqarilib yuqoriga ko'tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib boriladi, lekin ularga tekkizilmaydi. Shu holda til 10-15 daqiqa ushlab turiladi.



3. «Ninacha». Og'iz ochiladi. Til oldinga tomon ingichka qilib chiqariladi. Shu holatda 15 daqiqa ushlab turiladi




4. «Quymoq». Og'iz yarim ochiladi. Tilning orqa yonlari yuqori jag' tishlar bilan qisiladi. Tilning uchi pastki oldingi tishlarga tiraladi. Bu holat 15 daqiqa ushlab turiladi.



5. «Naycha». Til keng holda chiqariladi. Tilning ikki yon tomoni yuqori tomon buklanadi. Hosil qilingan naychadan


ullanadi. Mashq sekin sur'atda 10-15 marta bajariladi.





AVTIL O'TILGAN MASHQLARNING HAR BIRI ANIQ,  
SEKIN 8-10 MARTA BAJARILADI.

### Dinamik artikulyatsion mashqlar



1. «Soatcha». Til uzun-ingichka qilib chiqariladi. So'ng shu holda til og'izning o'ng burchagidan chap burchagi tomonga qarab harakatga keltiriladi. Mashq 15-20 marta bajariladi.





2. «Oo». Til tanglay tomon so'rilib, so'ng qo'yib yuboriladi. Shunda til taqillagan ovoz chiqaradi. Tilni taqillatish sekin va kuchli bo'lishi kerak. Bu mashq 10-15 marta bajariladi



3. «Qo'ziqorin». Og'iz ochiladi. Til tanglay tomon so'riladi, shunda til tanglayga qattiq jiplashadi. Bu holda til ushlab turiladi, shu vaqtning o'zida pastki jag' pastga tomon tushiriladi. Bu mashq 10-15 marta bajariladi. Bu mashqning «Ot» mashqidan farqi shuki, til tanglayga jiplashgach, qo'yib yuborilmaydi.



4. «Arg'imchoq». Til uzun-ingichka qilib chiqariladi, so'ng navbatma-navbat goh burun, goh iyak tomon olib boriladi. Bu vaqtda og'iz berkitilmaydi. Mashq logoped sanog'i ostida 10-15 marta bajariladi.




5. «Mazali murabbo». Til keng holda chiqariladi, so'ng yuqori lablar yalanadi va til og'iz ichiga olinadi. Bu mashq 10-

10 marta qaytariladi.



6. «Bo'yoqchi». Til chiqariladi, og'iz yarim ochiq holda turiladi. Til bilan avval yuqori lab, so'ng pastki lab aylana bo'ylab yalanadi. Bu mashq yo'nalishni o'zgartirgan holda 10 marta bajariladi.




7. «G'altak» (mushukcha). Til uchi oldingi pastki tishlar orqasiga tiriladi. Tilning orqa yon tomoni yuqoridagi jag' tishlar bilan qisiladi. Keng til oldinga chiqariladi, so'ng yana og'iz ichiga olinadi. Bu mashq 15 marta bajariladi.



Har bir tovushlarni to'g'ri talaffuzga qo'yishda logoped aytib o'tilgan mashqlardan faqat zarur deb hisoblanganlarini tanlab oladi. Ushbu keltirilgan mashqlardan tashqari yana ko'plab mashqlarni mustaqil ko'rib chiqishingiz mumkin. Tanlab olingan mashqlar qo'yilishi lozim bo'lgan tovush artikulyatsiyasiga mos kelmog'i lozim.




1



2




3





## NUTQIY NAFASNI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI



Logopedik mashg'ulotlarning nutq jihatida nafas olish, tovush va artikulyatsiya vazifalarini, to'g'ri nutqni tarbiyalashni tartibga solish va muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Adabiyotda to'g'ri nafas olishni tarbiyalash metodi haqida bir necha qarashlar bor. Ayrimlarning fikricha, nafas olish bo'yicha didaktik mashqlarni qo'llangan holda, nafas

olish ustidan maxsus ish olib borish tavsiya etiladi. Boshqalar esa nafas olish motorika erkin va tinch nutq orqali tiklanadi, ya'ni nutqning shoshilinch bo'lmagan sur'ati tarbiyalanadi va buning natijasida barcha nutq komponentlari, shu bilan bir qatorda nafas olish ham normallasadi. Psixologiya maktabi vakillarining fikricha, nutqning, binobarin, nafas olishning tarbiyalanishiga irodani mashq qilish yordam beradi. Agar nafas olish ustida ishlashni nutq nuqsoni tuzilishiga bog'liq holda, yakka tartibda olib borilsa, bunday fikrlarning har birida ma'qul tomonini uchratish mumkin.

### **DISLALIYADA NUTQIY NAFAS MASHQLAR O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI**

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy nafasni tekshirishda quyidagilar inobatga olinadi:

1. Nafas turini aniqlash.
2. Burun va og'izdan nafas olishni ajrata olish malakasini tadqiq etish.
3. Havo oqimining yo'naltira olinishini tadqiq etish
4. Hova oqimi kuchini tadqiq etish.
5. Talaffuz nafasi xususiyatlarini tadqiq etish

Nutqiy nafasni korreksiyalashda «qarshilik mashqlaridan» ham foydalaniladi. Bola og'izdan nafas oladi. Logoped nafas olishga qarshilik qilgandek 1-2 sekund davomida qo'lini

bolaning ko'kragiga qo'yadi. Bu ancha chuqur va tez nafas olishga va uzoq nafas chiqarishga imkon yaratadi.

Nafas mashqlari har kuni 5-10 minut davomida o'tkaziladi. Ushbu mashqlarni bajarishda nafas chiqarish vaqtida logoped unli tovushlarning turli qatorini talaffuz qiladi va bolani unga taqlid qilishga undaydi va bunda ovozni balandligini o'zgartiradi. So'ngra bolani undosh tovushlarni alohida va unli tovushlar bilan birgalikda talaffuz qilishga undaydi.

Dinamik va statik nafas mashqlari mavjud. Nafas mashqlarini o'tkazishda bolaning toliqib qolmasligiga yelka va bo'yiga muskullarini taranglashtirmasligiga ahamiyat berish lozim. Mashqlar sanoq ostida yoki musiqa jo'rligida bajarilishi lozim.

NAFAS MASHQLARI OVQATLANISHGA QADAR YAXSHI  
SHAMOLLATILGAN XONADA O'TKAZILADI.

## **NUTQIY NAFASNI TEKSHIRISH**

1) Nutqsiz nafas turlari: ko'krakdan nafas olish turi, diafragmal nafas turi, aralash nafas turi

2) Nutqiy nafas tavsifi: bitta jumlaning talaffuz etishda 4-4 so'zlarni ishtirok etishi (5 yoshli bolalarda) 6 va 7 yoshli bolalarda 4 yoki 6 so'zlarni talaffuz etishi.

3) Nutqiy nafas ko'lami (normada, yetarli rivojlanmagan).

4) Nutqiy nafas chastotasi (normada, tezlashgan, sekinlashgan).

5) Nutqiy nafas davomiyligi (normada, qisqa).



Nafas olish nutq jarayonida mashq qilib mustahkamlanadi: talaffuz paytida bir marta nafas chiqarilishi orqali dastlab qisqa gaplar, keyin so'zlar sonini sekin-asta ko'paytirib borib gaplar aytiladi. Uzun jumalarni logik to'xtamlar bilan qismlarga

bo'lib talaffuz etish malakasi hosil qilinadi, bunda tinish belgilari ishtirok etadi yoki aksincha. Shundan so'ng nasr yoki nazm matnlarini o'qishga o'tiladi.

### **DUDUQLANISHDA NUTQIY NAFAS OTKAZISH TEXNOLOGIYASI**

Tovush buzilishlari ko'pincha nafas olishdagi kamchiliklar bilan bog'liq bo'ladi: duduqlanuvchilarda ayrim paytlari nafas olib so'zlashda bo'g'liq tovush kuzatiladi; kuchli nafas chiqarish paytida tez, baqiriq tovush; tovush a'zolari paylarining zo'riqishi natijasida tovushning qattiq xuruji va hokazolar kuzatiladi. Duduqlanuvchilar bilan tovush tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan ishlar artikulyar a'zolar muskullarini, birinchi navbatda pastki jag', til muskullarini bo'shashtirishdan boshlanadi (masalan, tilni **n** tovushi uchun zarur bo'lgan holatga qo'yiladi va nu — no — na tovushsiz talaffuz qilinadi; bunda jag' sekin-asta pastga tushiriladi; ne—ni—nu jag' sekin ko'tariladi). Mashq beixtiyor harakatga qadar davom ettiriladi. Keyin tovushning yumshoq boshlanmasi, tovushning unlilar bilan birgalikdagi uzluksiz yengil talaffuzi, so'ng sonor tovushlarning unlilar bilan birgalikda bo'g'inlarga bo'lib talaffuz etilishi, gaplarda talaffuz etish mashq qilinadi va hokazo.

Duduqlanadigan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarga qo'yiladigan asosiy talablar:

1) Logopedik mashg'ulotlar duduqlanuvchi bolaning nutqi va shaxsiga pedagogik-tuzatish orqali ta'sir etishning asosiy vazifalarini **o'zida aks ettiradi**.

2) Logopedik mashg'ulotlar muayyan tartibda, uzluksiz, bosqichli, asosiy didaktik prinsiplarni hisobga olgan holda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda; bolalarning ongliligi va faolligiga tayangan holda olib boriladi; mashg'ulotlarda **qo'llanmalar, ta'limning ko'rgazmali, texnik vositalaridan foydalaniladi; mashg'ulotlar tarbiyalanayotgan to'g'ri nutq va xatti-harakat**

**kunlikmalarining mustahkam bo'lishiga yordam beradi.**

3) Logopedik mashg'ulotlar maktabgacha tarbiya yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va **o'qitish dasturlari talablariga mos bo'ladi**.

4) Mashg'ulotlarda duduqlanadigan bolalarning turli sharoitlarda **to'g'ri nutqi va xatti-harakatini mashq qildirish zarurligi** hisobga olinadi, masalan: logopediya kabinetida va maktab tashqarida, turli hayotiy vaziyatlarda, tanish va notanish shaxslarning ishtirokida va hokazo. Shu maqsadda logopedik mashg'ulotlarning turli **ko'rinishlari: nutqni rivojlantirishga doir ko'pgina ish shakllari, didaktik, harakatli, syujetli-ralli va ijodiy o'yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsertlarga tayyorlanish hamda ularda ishtirok etish, mikrofon oldida so'zga chiqish va boshqalarda qo'llaniladi**.

5) Mashg'ulotlar shunday tashkil qilinadiki, ularda bola duduqlanishsiz va u bilan birga kelib chiqadigan buzilishlarsiz gapirishi lozim.

6) Mashg'ulotlar boladagi yaxshi kayfiyatni, bardamlik, **o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi**.

7) Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda **to'g'ri nutq namunalari logopedning, samarali shug'ullanadigan bolalarning nutqi, badiiy so'z ustalarining chiqishlari aks ettirilgan magnitofon yozuvlari va plastinkalar, logopediya kursini avval muvaffaqiyatli tamomlaganlarning tantanali chiqishlari va hokazolar muntazam ishtirok etadi**.

8) Mashg'ulotlar atrofdegilarning duduqlanadigan bolaga nisbatan **to'g'ri munosabatda bo'lishlari va uning to'g'ri ta'biyalanishi asosida olib boriladi**.

Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, duduqlanuvchilarga ravon nutq mashqlarini qoidasini tushuntirishva keyinchalik bu qoidanibirgalikdatakrorlash maqsadga muvofiqdir deb hisoblar, 1924 yilda A.Gutsman va G.Gutsmanlar tomonidan ravon nutq mashqlari birinchi marta tavsiya etilgan.

Ularni o'rganish uchun qiziqish uyg'otadi va hatto hozirgi vaqtda ham logopedlaramaliyotida foydalaniladilar.

### **Ravon nutq mashqlari qoidasi**

1. Sekin va tinch gapir. ya'ni har bir bo'g'in, so'z va gapni sekin-asta ketma-ketlik asosida talaffuz qil.

2. Doimo qanday va nimani gapirishingni o'zing uchun aniqlab ol.

3. Haddan tashqari balandyoki past ovozda so'zlama.

4. Suhbat davomida o'zingni tinch tutgan holda o'tir yoki tik tur.

5. Gapirishdan oldin tez, chuqur nafas ol.

6. Nafasni tejamkorlik bilan chiqar. Suhbat davomidaimkoniboricha nafas boricha ushlab turishga harakat qil.

7. Unli tovushlarni aniq va shiddat bilan talaffuz qil.

8. Nafasni undosh tovushga emas, unli tovushgayo'naltir.

9. Hech qachon undosh tovushlarga urg'u berma. Ayrim hollardaoddiy ovoztaningdan past va unlilarni cho'zib so'zla.

10. Agar so'z unli tovushdan boshlansa, unda so'zni sekin va pastroq tonda talaffuz etishdan boshla.

11. Gapdagi birinchi unlilarni cho'zibroq talaffuz etib, so'zlarni bir-birigaxuddi murakkab bo'g'inli so'zga o'xshatib talaffuz et.

12. Doimo tushunarli va tiniq gapirishga harakat qil.

Rinolaliya (grekcha so'zdan olingan bo'lib, rhinos-burun, lalia-nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir.

Logoped N. I. Serebrovavrach L. V. Dmitreva (1968) bilan hamkorlikda rengenografiya metodini qo'llab, uning yordamida rinololiklar bilan o'tkaziladigan logopedik korreksion ishdinamikasini ko'rish va tanho logopedik usullar bilangina nutq faoliyatini to'liq tiklash imkoniyatini prognoz qila bildilar. Ushbu usuldan foydalanish shuni ko'rsatadiki, logopedik ishning

samaradorligi qator faktorlarga bog'liq ekan. Ular quyidagilar: yumshoq tanglay va halqumning orqa devorini harakatchanligi; halqumning orqa devori va yumshoq tanglay orasidagi masofa; halqumning o'rta qismining kengligi.

Nutqning ushbu buzilishida bajariladigan logopedik ishlardan biri tavsiya qilindi, ya'ni logopedik mashg'ulotlarda bemorlar nutq jarayonida nafas olish qoidalarini o'rganishadi. Mashg'ulot vaqtida tanglay pardasi taranglashadi, shuningdek, pastki jag' ham bir muncha pastga tushirilgan bo'lishi lozim. Ushbu metodika to'g'ri nafas olish va chiqarish ko'nikmalarini va o'zlashtirish bilan bir vaqtda ovoz korreksiyasini va tovushlar artikulyatsiyasini ham nazarda tutadi.

### **RINOLALIYADA NUTQIY NAFAS O'TKAZISH**

#### **TEXNOLOGIYASI**

Rinolaliyada tug'ma tanglay yoriqliklari bilan tug'ilgan bolalarda ko'p uchraydigan nafas olish akti buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni aniqlash va oldini olish. Ko'pchilik onalar farzandlarida yuqori nafas yo'llari va o'pkalarning tez-tez kasallanishlari oqibatida, o'z bolalarini toza havoga olib chiqmay qo'yadilar. Bu esa go'dakning kun tartibini buzilishiga olib keladi. Tekshirishlarning ko'rsatishicha, bunday bolalarni sayrga olib chiqqanda 1-2 qavatli marli bilan og'iz va burun yo'llari to'silsa, nafas olinayotgan havoni tozalaydi, ilitadi, shuningdek, bolani og'iz bo'shlig'ini notanish odamlar nigohidan to'sadi.

Rinolalikda to'g'ri nutqni shakllantirish (to'g'ri talaffuz ustida ishlash) og'izdan nafas olishni tarbiyalash bilan bir vaqtda nutq tovushlarining to'laqonli artikulyatsiyasini yaratish jarayonida amalga oshiriladi.

A.G. Ippalitova metodikasiga ko'ra logopedik ta'sir ko'rsatish jarayoni ikki davrga bo'linadi.

#### **I Tayyorlov davri.**

Ushbu davrdagi mashg'ulotlarning asosiy maqsadi artikulyatsiyani o'zlashtirish bilan parallel ravishda to'g'ri

nutqiy nafas olishni shakllantirishdan iborat. Ushbu davrni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin:

A) Burun va og'izdan nafas olish hamda chiqarish deferensiyasidanutqiy nafas olishni shakllantirish.

B) Unli tovushlar artikulyatsiyasi (ovozni qo'shmasdan turib)va frikativ jarangsiz undosh tovushlar artikulyatsiyasini realizatsiya qilishda uzoq muddatli og'izdan nafas olishni shakllantirish.

I-bosqichda nutqiy nafas olishni shakllantirish ishlari olib boriladi.

Tayyorlov davrida ushbu ishlar faqatgina og'izdan uzoq nafas olishni shakllantirish bilan chegaralanadi.

Diafragmal nafas olish to'g'ri nutqning shakllanishi uchun mahsuldor hisoblanadi.

I-bosqich - ta'limning dastlabki davrida logoped kaftini bola belining o'ng yonboshi tepasiga qo'ygan holda fiziologik nafas olishning turini aniqlab olishi lozim. Agar bolaning nafas olishi qovurg'adan pastda bo'lsa, logoped o'zining nafas olishini bolaning nafas olish motorikasiga moslashtiradi. Buning uchun bolaning kaftini o'zining yonboshiga qo'ygan holda o'qituvchi o'zining kafti bilan uning nafas olishini tekshiradi. Bola nafas olayotganida logoped qovurg'alarning harakatini his qilgan holda va unga taqlid qilgan holda qovurg'a ostidan nafas olishga o'tadi. Og'iz yopiq turgan holda to'g'ri erkin nafas olish yo'lga qo'yilishi bilan og'izdan va burundan nafas olish differensiyasiga o'tish mumkin. O'quvchiga shu narsa tushuntirilishi lozimki, nafas olish, chiqarish va ularning qo'shilishining har xil turlari mavjud: og'iz yopiq bo'lganda nafas olish va chiqarish burun orqali amalga oshiriladi; og'iz ochiq bo'lganda esa nafas olish va chiqarishning har xil ko'rinishlari amalga oshiriladi. Bolaga shu narsalar tushuntirilgandan keyin aniq nafas olish mashqlarini bajarish taklif qilinadi. Ularni bajarishdagi izchillik bolaning daftaridagi 1-jadvalda qayd qilinadi.

Ushbu mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsad nafas olish va

chiqarishning har xil turlarini o'rganish jarayonida diafragmal nafas olish va muntazam erkin nafas olishni mustahkamlashdan iborat. Bundan tashqari, ushbu mashqlar nutqiy nafas olish motorikasining asoslarini yuzaga keltiradi. Nafas olishda nutq pauzasini shakllangan spontal tarzda amalga oshiriladi, chunki bota nafas chiqarishni amalga oshirishga e'tibor qaratadi. Bu o'rinda nafas olishdan nafas chiqarishga o'tilayotganda burun yoki og'izning ishtirok etishi nazarda tutiladi.

Bunday mashqlar davrida bolani og'iz va xalqum bo'shlig'i shilliq pardalaridan o'tuvchi havo oqimini his qilishga o'rgatib boriladi.

Og'iz orqali nafas chiqarilayotgandagi havo oqimi shu vaqtda og'izning oldiga, kaftga yoki qog'ozga qo'yilgan paxtaning harakati bilan nazorat qilinadi.

Bu o'rinda biz nafas olishni rivojlantirish bo'yicha u yoki bu ko'rinishdagi, logopediya amaliyotida tez-tez qo'llaniladigan massus mashqlarni bajarishni (paxtani puflash, rezina o'yinchoqlarni puflab shishirish) shart emas deb hisoblaymiz, chunki bunday nafas olishning barcha turlari nutqqa aloqador emas.

Bolaning e'tibori doimiy ravishda nutqiy nafas olishni va nafas olishda artikulyatsiya organlari holatini to'g'rilashga qaratiladi. Og'izdan nafas olishni to'g'ri tashkillashtirish uchun og'iz bo'shlig'ida tilning holatini o'zgartirish maqsadga muvofiqdir. Nafas olish va chiqarishning turlari o'rganilayotganda bolaning e'tibori artikulyatsiya organlari holatiga qaratiladi ya'ni og'izdan nafas chiqarishda tilning orqa qismi pastda ushlab turilishi kerak, og'iz esa esnashdagi singari uchiladi. Bu o'rinda tilning ildizi qo'yib yuborilishi lozim. Agar til uchining pastga tomon harakati tilning ildizini yetarli darajada pasaytirmasa, vaqtinchalik tilning tishlar orasidan chiqarishga yo'l qo'yiladi yoki tilning ildizi shpatel bilan bosiladi (bu holat nisbatan kam qo'llanadi).

Og'izdan to'g'ri nafas chiqarish tilning ildizi (o'zagi)

tushurilganda u yoki bu tovush talaffuzida, keyinchalik esa butun nutqda burun ottenkasini bartaraf qiladi.

2 bosqich. Oralpraksisni rivojlantirish. Diafragmal nafas olishni rivojlantirish bo'yicha qilinadigan ishlar bilan parallel ravishda unli va undosh tovushlar artikulemiga oid artikulyatsionapparat gimnastikasini o'tkaziladi.

Nutqning aniqligi ko'p jihatdan unli tovushlarning to'g'ri talaffuziga bog'liq. Shuning uchun unli tovushlarni talaffuz qilish vaqtida artikulyatsion organlar holati diqqat bilan kuzatib boriladi. Bu o'rinda ham asosiy e'tibor til uchining holatiga qaratiladi. Uni dastlabki davrlarda barcha unli tovushlar artikulemini tayyorlashda pastda ushlab turish lozim. Bu usul og'iz bo'shlig'ining hajmini kattalashtirishga yordam beradi, hamda havo qatlamining og'iz bo'shlig'i orqali o'tishi uchun imkoniyatlarni ta'minlaydi. Muskullar, paylar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sababli unlilar artikulyatsiyasida lablar holatining o'zgarishi tabiiy yo'l bilan har bir alohida tovush uchun tilni to'g'ri holatga olib keladi. Gimnastika unli tovushlar artikulyatsiyasini **o'rganishdan boshlanadi**.

Tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa og'izdan nafas olishni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun ham barcha artikulyatsion mashqlar ovozni jalb qilmasdan amalga oshiriladi. Bola hali o'zi bajarayotgan mashqlar unli tovushlar artikulemalari hisoblanishini bilmaydi. Bu vaqtda logopedga artikulemalarukladini aniqlashtirish va yaxshilash imkoniyatini beradi.

### **DIZARTRIYADA NUTQIY NAFAS O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI**

Dizartriya - nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

1 — tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, ya'ni

artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirishva tovushni nutqga qo'yish va mustahkamlash.

2 - Fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

eshituvni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

3 - Nutqning motorika, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

4 - Paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'rilash.

Dizarteriyadaolibboradigan logopedik ishlar bosqichma bosqich olib boriladi.

1—bosqich tayyorlov bosqichi—bu bosqichning asosiy maqsadi:

artikulyatsion apparatni, artikulyatsion tartibni shakllantirishga tay-yorlash;

• bolaning ilk yoshida—nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash;

• passiv lug'atni aniqlash va rivojlantirish

• nafas va ovozda kamchiliklarni korreksiyalash.

Bu bosqichning eng ahamiyatli vazifalari bu—sensor funksiyani ayniqsa eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir.

2—bosqich boshlang'ich kommunikativ talaffuz qobiliyatini shakllanti-ri-sh bosqichi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi:

• nutqiy muloqot va tovushlar analizi malakasini rivojlantirish;

• artikulyatsion apparat muskullarini bo'shashtirish;

• og'iz holatini nazorat qilish;

• artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish;

• ovozni rivojlantirish;

• nutqiy nafasni to'g'rilash;

• artikulyatsion harakatlarni sezish va maksadga

yo'naltirilgan artikulyatsion harakatni rivojlantirish.





Dizartriya nutq kamchiligida nutqiy nafas ustida ish olib borish eng asosiy ish turlaridan biri bo'lib nafas gimnastikalaridan foylaniladi. Nafas gimnastikasi umumiy nafas mashqlaridan boshlanadi. Uning asosiy maqsadi nafas hajmini oshirish va uning motorikaini normallashtirishdir.


Bolaning og'zi yopiq holda burun teshiklarini navbatma-navbat yopib nafas olishga o'rgatiladi. Nafas olishni chuqurlashtirish uchun bolaning burun teshigi yonida «nafas yelpig'ichi» hosil qilinadi.

Burundan nafas chiqarishni o'rganish bo'yicha mashqlar o'tkaziladi. Bolaga og'zini ochmasdan «chuqur nafas ol va cho'zib burun orqali chiqar» deb ko'rsatma beriladi.

Keyingi mashqlar og'izdan nafas olishni rivojlantirishga qaratiladi. Logoped bolaning burnini yopib alohida unli tovush yoki bo'g'inlarni talaffuz qilishni so'rashga qadar og'izdan nafas olish taklif qilinadi.

#### NUTQIY NAFASNI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR





### OVOZNI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI



Ovoz – bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig'indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo'ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin.

Ovoz nutqning ifodaliligi, emotsianalligi va mazmuni ahamiyatini ta'minlovchi vositalardan biri bo'lib, u nutqning eshutilishini ta'minlaydi. Shu sababli, ovoz buzilishlari natijasida bolaning nutqida kamchilik kuzatiladi va atrofdagilarga o'z fikrini to'liq bayon etishga to'sqinlik qiladi.

#### *Ovoz funksiyasini tekshirish*

- 1) Ovoz balandligi: (normada, past, juda baland).
- 2) Ovoz tembri (buzilmagan, bo'g'ilgan, manqalangan holda kuzatilishi).
- 3) Ovoz atakasi (yumshoq, qattiq, nafasli).
- 4) Ovoz modulyatsiyasi (monoton ovozning borligi yoki monoton ovozning yo'qligi).

Dizartriya nutq kamchiligini logopedik tekshirish texnologiyasini olib borishda bolalar haqida to'liq anamnez ma'lumotlariga tayaniladi. Bolaning ilk tug'ilgan vaqtdan boshlab onani qanday emganligi ya'ni emgan vaqtda kuzatiladigan nuqsonlar, asosan dizartriyaning bulbar turida

boladagi nuqsonlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

#### *Nutqsiz nuqsonlar analizi*

- Chaqaloq qichqirig'ining zaifligi yoki yo'qligi (afoniya)
- Emish jarayonining buzilishi, yutinish.
- Yuzaki nafas olish turining kuzatilishi
- Nutqsiz reflekslarning kuzatilmagligi.
- Yuzdagi assimetriyalar.
- Pastki labning osilishi. Buning natijasida bola ko'krakni olib ema olmaydi.
- Ovoz reaksiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi.
- Ilk so'zlarning (lepiti) kechikib rivojlanishi.
- Bola uzoq vaqt chaynay olmaydi, tishlay olmaydi, idishdan icha olmaydi, bola yutinish vaqtida ko'p tiqiladi.
- Tug'ma nuqsonlarning bo'lishi, artikulyatsion nutqqa ta'siri.

#### *Nutq kamchiliklar analizi*

A) artikulyatsion motorikani holati:

- Tinch holatda.
- Mimik harakatlar holatida.
- Umumiy harakatlarda, asosan artikulyatsion harakatda.

#### *Harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi:*

- Temp
  - Bir holatdan ikkinchi holatga to'ri o'tishi.
  - Charchash holati.
  - Aniqlik.
  - Harakatlarni bajarilishi.
  - Nutq mushaklari va mushaklar tonusining holati.
- B) bolaning umumiy motorika holatidagi harakatlar va unda kuzatiladigan kamchiliklar.
- V) talaffuzdagi nuqsonlar
- Kommunikativ material xarakteri.
  - Talaffuzning tezligi
  - Muloqat holati.

- Tovushlar talaffuzi va boshqalarning tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga aniqlik kiritish.

- Bolalarda turli xil tovushlarga eshitib farqlash.

Tovushlar talaffuzini o'rganishda tovush analizi va eshinish idrokiga alohida e'tibor beriladi.

Logoped rinolaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni tekshirish vaqtida quyidagilar inobatga olinadi:

1) yumshoq tanglayning yutinish holati.

2) yumshoq va qattiq tanglayning holati.

3) tanglayning uzunligi

4) orqa tomoq devorining holati (aktiv, passiv, funksional)

5) jag'larda nuqsonlarning kuzatilishi.

6) artikulyatsion nutq apparati xususiyatlari

7) mimik harakatlarning xususiyatlari.

Rinolaliya va rinofaniyada turli xil ovoz buzilishlari kuzatiladi. Butun bir nutqni jarangdorligini, ohangini buzuvchi, ovoz tembridagi o'zgarishlar yetakchi hisoblanadi, bu hol burun va og'iz bo'shlig'ining chegaralanmaganligining hisobiga kelib chiqadi.

Tanglay yoriqligi anatomik nuqson sifatida burun, hiqildoq, bo'yin bo'shlig'ining rezanatorlik tuzilishini asimmetrik holatiga olib keladi. Yumshoq tanglay mushaklarining anatomik va funksional asimmetriyasi vaqt o'tishi bilan ovoz boylamlarining funksional asimmetriyasiga olib keladi va bu xol ovoz kuchini pasaytiradi, uni qisilgan, zaif ovoz xoliga kelishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan patologiya ovoz sifatleri rinolaliya va rinofaniyada bemorlarning nutqiy nafas olishini qiyinlashtiradi. Natijada tanglay yoriqliklarida ovozning jarangdorligi va fonatsiya mexanizmi o'ziga xoslik kasb etadiki, uni M.Zeyeman mustaqil nuqson sifatida ta'riflab, «palatin disfaniyasi» va «palatofaniya» deb nomlaydi.

Yuqorida qayd etilgan muomalardan kelib chiqqan holda rinolaliya va rinofaniyada olibyuboriladigan korreksion-pedagogik jarayonida ovoz buzilishlarini korreksiyalashga alohida

e'tibor beriladi. Bu tadbirlarning asosiy maqsadi ovoz tembrini normalashtirish, bolalarni tabiiy ovozini rivojlantirish, ovoz apparati xastaliklarida xiqildoqning harakat funksiyalarini tiklash va to'g'ri ovoz hosil qilishni tarbiyalash.

Operatsiyadan so'ng ovoz ustida olib boriladigan ishlar quyidagilardan iborat:

nafas gimnastikasi; to'g'ri ovoz hosil qilish malakalarini tarbiyalash; ovoz diapazonini kengaytirish; uni kuchini oshirish, shuningdek, hiqildoqning harakat funksiyasidagi buzilishlarini kompensatsiyalash.

Bevosita ovoz mashqlarining **I bosqichida** fonemalarni nutqqa qo'yishdan boshlanadi. II bosqichda esa tanglay pardasini harakatlanishini oshirish maqsadida vokal mashqlari sifatida davom ettiriladi, meyorida qo'shiq kuylash vaqtida tanglay pardasi tonusi oshishi bilan birgalikda keskin ravishda ortib boradi. Bunda yumshoq tanglay reflektor ravishda tepaga ko'tiriladi.

Vokal mashqlari tanglay pardasini kengaytiradi, bir vaqtning uzida xalqum mushaklarini ham tormozlaydi, ham faollashtiradi, bolani og'izini katta ochishga majbur qiladi, tovush kuchini ortiradi. Fonapedik mashqlarni o'tkazish metodikasi va uning izchilligi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

**II bosqichda** bu mashqlarda quyidagi unilarni qo'shiq qilib aytiladi: avval «a» va «e» tovushlari, 2-3 mashg'ulotdan so'ng «o» tovushi, bir xaftadan so'ng «i» va oxirida «u» tovushi.

Vokal mashqlari yumshoq tanglayda sezilarsiz harakatlar yuzaga kelganda, unli tovushlarni takrorlagach, 3-4 chi mashg'ulotlardan boshlab o'tkaziladi.

Tanglay pardasi mutloqo harakatsiz bo'lsa yoki uni yon chekkalari salgina tebransa «a» va «e» unilari bir notada kuylanadi. Bola uchun me'yorli bo'lgan yuklamani aniqlash uchun dastlabki mashg'ulotlar lagopedning nazorati ostida bajariladi. Odatda unli tovushlar 2-3 martadan bir kunda 12 marta fortepiano jo'rligida kuylanadi.



Unlilarni kuylash quyi notalardan boshlanadi.

Vokal mashqlarda har bir o'quvchi qat'iy differensial ravishda tanlanishi kerak, chunki bu mashqlar jarayonida ovoz apparati barcha bo'limlari ishtirok etadi va ularni ayniqsa qo'rqmasdan va toliqmasdan ishlashlari katta ahamiyatga ega. N.F.Lebedeva va G.Yermolayevning ko'r-satishlaricha, bolalarning ovozini maksimal darajada asrash kerak. Buning uchun quyidagi talabalarga rioya kilish kerak:

- faqat yoshiga mos bo'lgan diapazonda kuylash;
- o'z yoshiga mos keladigan diapazonning chegara notalarini kuylamaslik;

- qisqa kuyli frazalarda kuylash;

- zo'riqishsiz va baland bo'lmagan ovozda kuylash.

-Bu talablar bola organizmining anotomik va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan bo'lib, bu talablarga rioya qilmaslik ovoz funksiyasining buzilishiga olib keladi.

Vokal mashqlarini tanlashda bolalar ovozining o'rtacha diopozoni jadvaliga asoslanish kerak (V.G.Yermolayev va N.F.Lebedeva).

3-4 yoshda - mi - sol

5-6 yosh - mi - si

7-10 yosh -re-re

10-14 yosh - mi - re

Vokal mashqlarni to'g'ri olib borilishi natijasida asta-sekin qo'shiq kuylash davomida u yoki bu tovushdamanqalanish bartaraf etilsa keyinchalikmanqalanish butunlay qolib ketadi.

Tovushlar talaffuzini korreksiyalash fonopedik mashqlar bilan paralel ravishda olib boriladi.

Ovoz hosil kilish apparatida kamchiliklar kuzatilmagan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulot unli tovushlarni talaffuz qilishdan boshlanadi. Avval alohida tanlangan unli tovushlar mashq qilinadi, so'ngra ularning birikmasi talaffuz qilinadi. Unli tovushlarning nutqga quyish quyidagi izchilikda

amalg oshiriladi: **a,e,o,u,i**.

Bola unli tovushlarni logopeddan so'ng, uning fonatsiya holatiga taqlid -qilgan holda talaffuz qiladi. Bunda bolaga to'g'ri va uning imkoniyatlariga mos keladigan instruksiyalarni berish kerak. Bunday mashg'ulotlar davomida bolani og'zini katta ochishiga, til uchini pastki tishlar tomon harakatlantirishga, to'g'ri va zo'riqishsiz ovoz chiqarishga ahamiyat berish kerak.

Sog'lom ovoz apparatiga ega bolalarni to'g'ri ovoz hosil qilishga o'rgatish uchun bir necha mashg'ulotlar yetarli hisoblanadi.

Ovoz tovushini «mo'rash» imitatsiyasi orqali, ya'ni «m» tovushini cho'zib talaffuz qilish orqali hosil qilish maqsadga muvofiqdir. (Ayrim hollarda operatsiyadan so'ng bolalar «m», «n» tovushini «b», «d» og'izli tovushga almashtiradi).

«Mo'rash» og'izni yopik holda saqlab nafas chiqarishda, qisqa, sekin, oldin past ovozda, tilni tinch holda saqlab amalga oshiriladi. Tovush zo'riqishsiz, quyi notalarda hosil bo'lishi kerak. Tovush yumshoq atakada, ya'ni un paychalari chiqayotgan havo ovoz teshigi orqali o'tishdan ilgari emas, balki shu o'tish bilan yoki undan keyin birikishi kerak.

Bola «m» tovushini talaffuz qilishda ovozning erkin chiqishiga muvaffaq bo'lsa, ovoz kuchini va jarangini oshirish uchun ma, mo, mu, me bo'g'inlari talaffuz qilinadi.

Bo'g'inlarni talaffuz qilishda, unli tovushlar cho'zib talaffuz qilinadi. Undosh tovushlar esa qisqa talaffuz qilinadi «a», «o» unli tovushlarini talaffuz qilganda havo oqimi kuchli, sovuq bo'ladi, bu esa ovoz kuchini oshiradi.

Rinofaniyada burunli tovushlar ustida uzoq vaqt ish olib borilishi maqsadga muvofiq bo'lmagani uchun, fonatsiyani tabiiy ohangiga erishilgach yuqorida keltirilgan mashqlarni «l» tovushini talaffuzi ustida olib borish mumkin.

So'ngra bo'g'inlar juft-juft qilib talaffuz qilinadi. Bu mashqlar kun davomida bir necha marotaba mashq qilinadi.

Bunday mashqlar barcha sanor va frikativ jarangli tovushlar

bilan bajariladi. Bu ishlar quyidagi izchillikda olib boriladi: **m, n, y, l, r, v, z, j**. Agar mashqlar «**m**» tovushi talaffuzida to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, boshqa tovushlar ustidagi ishlar yengil kechadi. Keyin **ma-mo-me-mu-mi** mama-mama-mamama bo'g'inlariga o'tiladi.

Barcha mashqlar to'g'ri bajarilganda bola ovozi baland, jarangli, manqalanishsiz chiqadi. Keyinchalik esa logopedik nutqiy mashqlarni to'g'ri hosil qilingan ovozda bajarilishiga o'rgatib boriladi. Buning uchun qisqa tez aytish va she'rlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Rinolaliya va rinofaniyada ovoz diapazonini kengaytirish uchun, ovoz kuchini oshirish uchun qo'llaniladigan musiqali frazalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- juda sodda bo'lishi va tez yodlab olish uchun mos bo'lishi kerak;

- uzoq nafas chiqarishni talab qilmaydigan, yengil motorika ohangga ega bo'lishi kerak;

- shakllangan ovoz diapazonidan oshmasligi kerak;

- frazalar ohangi intervallarga asoslangan bo'lishi kerak;

- faqat nutqiy diapazonda kuylash kerak.

Qo'shiqni ohangini va so'zlarini o'rganish va kerakli vaqtda nafas olishni o'rganish uchun bola logoped bilan birgalikda qo'shiq ohangini avval unli tovushlar talaffuzida, so'ngra qo'shiq so'zlarini kuylashga o'rganadilar. Agar ishlar yuqorida keltirilgan izchillikda olib borilmasa quyidagi xatolarga yo'l qo'yiladi:

- bola so'zlarni noaniq talaffuz qiladi;

- ixtiyoriy holda nafas oladilar (ayrim hollarda bo'g'inlarni buzib);

- og'iz orqali nafas olib, burun orqali chiqaradilar va patologik ko'nikmalarga qaytadilar.

Vokal mashqlari xalq kuylarini bir notada kuylash bilan yakunlanadi. Mashqlarning bu ko'rinishi murakkab bo'lib, tanglayning yaxshi harakatchanligiga erishilgach bajarishi

imkin.

Kattalar va o'smirlarda fonosteniya yoki hiqildoqning ichki mushaklarida parez hollari kuzatilgandakorreksion-pedagogik ish jarayonida ovoz apparatining turli buzilishlarida ovozni tiklashda fonopedik mashqlardan foydalaniladi.

Bunda tuzatuvchi ishlar quyidagi izchillikda olib boriladi:

- lab gormoshkasiga puflash;

- «murash»;

- juft bo'g'inlarni talaffuz qilish;

- «m» tovushi birikmalarini uzoq vaqt talaffuz qilish;

- unli tovushlar birikmalarini bir, ikki, uch, to'rt va izchillikda talaffuz qilish;

- ma, mo, mu, me, mi bo'g'inlaridan boshlab so'zlarda to'g'ri ovoz qo'yish malakalarini mustahkamlash;

- frazali mashqlar;

- matnlarni o'qish;

- vokal mashqlari.

Bo'yin va bo'g'iz muskullarini bo'shashtirish, faollashtirish bo'yicha quyidagi mashqlari olib boriladi:

- birinchi holat barmoqlar bir-biriga birikgan holda boshini orqasiga quyiladi va bosh orqaga harakatlantiriladi;

- birinchi holat-barmoqlar musht holda daxanimizga itariladi va bosh oldinga harakatlantiriladi;

- birinchi holat-kaftlar bilan quloqlarni berkitib yon tomonlarga boshni harakatlantirish;

- bir vaqtning o'zida ikki lunjni shishirish;

- til uchini yumshoq tanglayga tekkizish;

- pastki jag'ni yon tomonlarga, oldinga harakatlantirish. Jag'larni birlashtirish.

- esnash imitatsiyasi.

Bu mashqlar kompleksini mustaqil ravishda uyda kun davomida 6 marta, har bir mashq 4-5 marta bajarish tavsiya etiladi.

Fonopedik tadbirlarni o'tkazishda tug'ma tanglay

yoriqliklarida kuzatiladigan bir qator organik va funksional buzilishlarni hisobga olish kerak.

Manqalanish fanopedik tadbirlarni o'tkazishga to'sqinlik qilmaydi. Aksincha, bo'g'iz muskullarining harakatining faollashuvchi va ovozning balandlashuvi natijasidamanqalanish sekin-asta bartaraf etib boriladi.

Operatsiyadan so'ng vokal mashqlarni o'tkazishda juda tor diapazonda -1,-2 tonda ishlar olib boriladi.

Lab gormoshkasini tuflash orqali olinayotgan va chiqarilayotgan havo oqimi yordamida bo'g'iz muskullari massaj qilinadi.

Bu mashqdan yo'naltirilgan havo oqimini chiqarishga erishilgach mashg'ulotlarda sismatik ravishda foydalanish mumkin. Mashqlar kun davomida 8-10 marta bajariladi.

Rinolaliyada kattalar va o'smirlarni «murash» mashqlarini bajarish vaqtida, burun va bosh suyaklarida vibratsiyani sezishga o'rgatib boriladi.

«M» tovushiga bir necha bo'g'inlarni to'g'ri talaffuziga erishilgach, «ya» tovushi ustida ham aynan shunday mashqlar olib boriladi. So'ngra m-l yoki n-l fonemalariga mos bo'g'inlari differentsiya qilinadi.

Yuqori jag'lari normal tuzilgan odamlar bilan fonapedik tadbirlar o'tkazilsa ularning ovozlari mustakil ravishda yaxshilanadi va kundalik nutqlarida ham ovozdan toliqmasdan foydalanishlari mumkin. Tanglay yoriqliklariga ega shaxslar esa maxsus mashqlarga muhtojdirlar.

Kattalar va o'smirlar bilan olib boriladigan ish jarayonida to'g'ri ovozni hosil qilish malakalari, xuddi, bolalardagi singari tez aytish, she'rlarni aytish jarayonida mustahkamlanadi. Lekin bu mashqlar son jihatidan ko'proq bo'lishi kerak.

Bo'g'iz harakat funsiyalari yaxshilangach, ovozning kuchi ko'paygach, bo'g'iq ovoz kamaygach, ovoz diapozoni kengaygach vokal mashqlarining III va IV bosqichlariga o'tiladi.

Korreksion-pedagogik ishlar tugatilgunga qadar ovoz hosil

qilish holati nazorat qilib turiladi.

Dizartrik bolalarda ovozni rivojlantirish va korreksiyalash uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalaniladi, bu mashqlar nafas faoliyati, fonotsiya va artikulyatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ovoz ustida ishlash artikulyatsion gimnastika va massajdan so'ng olib boriladi. Bular bilan birga yana bo'yin muskullarini bo'shashtiruvchi, boshni xar tomonlama harakatini bajarish bo'yicha maxsus mashqlar, shu mashq bilan bir vaqtini, o'zida /e-o-u-a unli tovushlarni talaffuz etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ovozni korreksiyalash uchun yumshoq tanglay harakatini faollashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun suv tomchilarini yutish, yo'talish, esnash imitatsiyalarini bajarish, qattiq atakada «a» unlisini talaffuz etish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Ushbu mashqlar oyna oldida hisob ostida o'tkaziladi. Quyidagi usullardan foydalaniladi: tilni orqa qismini qo'zg'atish va til yordamida tanglayni taqillatish harakatini bajarish; ixtiyoriy yutish harakatini bajarish; bunda logoped tomizg'ich bilan halqumning qarshi devoriga suv tomizadi, bu vaqtda bolaning boshi bir oz orqaga egilgan bo'ladi.

Ovoz hosil qilishda jag' harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun og'izning ochish va yopish, chaynash imitatsiyasi mashqlaridan foydalanila-di.

Shuningdek pastki jag'ni tushirish bo'yicha maxsus mashqlardan foydalaniladi. Logoped muskullar bo'shashganidan so'ng pastki jag'ni 1-1,5sm pastga tushirishga yordam beradi. (bola OG'ZINI mustaqil ravishda yopadi.)

Harakatlar hajmi va suratini ixtiyoriy nazorat qilish turli ko'rgazmali usullardan foydalanib amalga oshiriladi. (quduqqa chelakni tushayotgani, arqonga borlangan sharcha tasvirlangan rasmlar va hokazo). So'ngra bu mashqar so'z ko'rsatmasi bo'yicha bir vaqtning o'zida turli tovushlar birikmasini (dondon, pap-pap, kar-kar) talaffuz qilish bilan birgalikda bajariladi.

Tanglay muskullarini mustahkamlash uchun uni bo'shashtirish va tarang-lashishni navbati bilan almashtirish mashqlaridan foydalaniladi. Bolaga esnash harakatini tugashida «a» tovushi talaffuz etish, OG'IZNING katta ochiq holatida «a» tovushini talaffuzidan «p» tovushiga nafasni bosim ostida ushlab turib o'tiladi. Bolaning diqqati tanglay holatini sezishga qaratiladi. Shuningdek ovoz kuchi tembri va balandligini rivojlantirish mashqlaridan foydalaniladi. Masalan, o'nliklar bo'yicha ovozni kuchaytirib turri sanash va ovozni asta-sekin pasaytirib teskariga sanash mashqlaridan foylaniladi. Ovoz tembri, balandligi va ovoz intonadiyasini rivojlantir-ishda turli o'yinlar ertaklarni rollarga bo'lib o'kish, insseniroykalar katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda ovozni rivojlantirishda quyidagi ovoz turlarini inobatga olgan holda rivojlantiriladi:

1.Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo'yicha.

2.Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha.

3.Ovozning dimog' (burun) tembrini aniqlash bo'yicha.

4. Ovoz tembrini idrok etish bo'yicha.

5.Ovoz tembrini qaytarish bo'yicha logopedik ishlar tashkil qilinadi.

Ovozni tiklash jarayoni haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi, ovozni tiklash jarayoni murakkablashib boruvchi 3 bo'limdan iborat:

1. Ovoz tovushini hosil qilish.

2. Hosil qilinganovozni mustahkamlash.

3. Ovoz hosil qilish jarayonini avtomatizatsiya qilish.

**1. Ovoz tovushini hosil qilish** – tiklovchi ta'limning eng muhim,eng murakkab va eng uzoq davom etadigan bosqichi. Ovoz tovushini ingrash yoki mo'rash imitatsiyasi orqali hosil qilish maqsadga muvofiqdir.Hosil qilingan ovoz tovushi(«m» tovushi) ochiq va yopiqbo'g'inlarda«u», «o», «a», «i», unli tovushlari bilan birlashtiriladi.

Mo'rash og'izni yopiq holda saqlab nafas chiqarishda qisqa, sekin, oldin, past ovozdatilni tinch holatda saqlab amalga oshiriladi. Tovush zo'riqishsiz quyi notalarda hosil bo'lishi kerak.Tovushyumshoq atakada, ya'ni un paychalari chiqayotgan havo ovoz teshigi orqali o'tishidan ilgari emas, balki shu o'tish bilan bir vaqtda yoki undan keyin birlashish kerak.

Ovoz hosil qilishda «m» tovushini talaffuz qilishda ovozning erkin chiqishiga muvaffaq bo'lish kerak. Ovoz kuchini va ovoz jarangini oshirish uchun hosil qilingan «m» tovushga «u» unli tovushini qo'shib nafas chiqarish paytida «mu» ochiq bo'g'inini talaffuz qilish kerak. «U» unli tovushini qo'llash quyidagi hollar bilan tushuntiriladi:

1) burun tovushlari o'z sonorligi tufayli unli tovushlarga yaqin turadi;

2) unli tovushlarini talaffuz qilishda impedans kam bo'ladi, ya'ni havo oqishi og'iz bo'shlig'ida to'siq qarshiliklarga uchramaydi, undosh tovushlarini talaffuz qilganda impedans ko'p bo'ladi. Impedansning kamligi unli tovushning kuchini oshishiga olib keladi;

3)yuqorida aytilgan barcha unli tovushlarga tegishli bo'lgan xususiyatlardan tashqari «u» unli tovushi yana bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

a) «m» tovushini ko'p martalab talaffuz qilish natijasida un paychalarning aktivligi oshadi, shuning uchun «mu» bo'g'inini talaffuz qilish bolaning ovoz apparati uchun qiyinchilik tug'dirmaydi;

b) «u» tovushni talaffuz qilishda bo'g'iz birmuncha quyi holatda bo'ladi. Bu holda hiqildoq uzaygan holatda bo'ladi va bu talaffuz uchun qulaylik yaratadi. Agar bo'g'iz yuqori holatda bo'lganda, ovoz tembri xirrillagan bo'lar edi. Bo'g'izning quyiholatda bo'lishi unpaychalarining kam energiya sarflab, yaxshiroq akustik effekt bergan holda ishlashi ta'minlaydi;

v) «u» tovushni talaffuz qilishda lablar oldinga cho'chchaytirilgan bo'lib, bu tovush hosil bo'lishi uchun qulaylik

yaratadi. Tilning orqaga tortilishi, til uchining pastki tillardan uzoqda turishi, til ildizining yumshoq tanglay tomonida ko'tarilgan holda turishi ham tovushni talaffuz qilish qulayligini yaratadi;

g) «u» tovushi «a», «o» unli tovushlaridan shu bilan farq qiladi-ki, bu tovushni talaffuz qilishda havo oqimi tor, kuchli, sovuq bo'ladi, bu esa ovoz kuchini oshiradi;

d) «u» tovush o'zidan oldingi tovush – «m» undosh tovushni talaffuz qilish uchun ham qulaylik yaratadi.

«Mu» ochiq bo'g'ini talaffuz qilingach, avval «um», so'ngra «mum», «mumm», «mummm» yopiq bo'g'inlarini talaffuz qilishga o'tiladi.

So'ngra mo-om-mom-momm-mommm bo'g'inlari talaffuz qilinadi, so'ng ma-am-mam-amamm-mammm-amammm bo'g'inlari talaffuz qilinadi. Keyin mi-im-mim-mimm-mimmm ... - imim-imimm-imimmm bo'g'inlariga o'tiladi.

## **II. Hosil qilingan ovozni mustahkamlash.**

Bu davrning asosiy vazifalari:

1) hosil qilingan ovozni unli va undosh tovushlar bilan birga bo'g'inlarda, so'zlarda, gaplarda avtomatizatsiya qilish;

2) ovoz balandligini, ovoz kuchini, ovoz tembrini, ovoz modulyatsiyasini, nutqning melodik-intonatsion tomonini rivojlantirish;

3) qo'shiq aytish ovozini hosil qilish.

Bu bosqichda avval jarangsiz undosh tovushlar (f, s, sh, x, p, t, k) ustida, so'ng jarangli undosh tovushlar (v, z, j, b, d, g) ustida ishlanadi. Bu tovushlar bo'g'in va so'zlarda mustahkamlanadi. Bu mashqlar ovoz balandligi, ovoz kuchini va ovoz tembrini rivojlantirish va mustahkamlash ishi bilan birga olib boriladi.

Logopedik ishning bu bosqichda hosil qilingan jarangni mustahkamlash, bir tekis va tinch, kuchli va baland, toza va jarangli ovozni hosil qilishga muvaffaq bo'lish kerak.

Bu, demak, bo'g'izi deformatsiyaga uchragan, un paychalarida chandiqlar bo'lgan bolani hosil qilingan

ovozdan foydalanishga, ovozning tabiiy jarangini aniqlab, uni rivojlantirish, ya'ni ovozning balandligini, ovoz kuchini va ovoz tembrini rivojlantirishdir.

1. Ovoz kuchini rivojlantirish.

Ovoz kuchi un paychalari ostidagi havo bosimining darajasiga va un paychalarining zichligiga bog'liq.

Ovoz kuchini o'zgartira bilish – nutqning ifodalilik vositalaridan biridir. Bolani baland ovozda, lekin baqirmasdan, aniq, ovozning kuchini sekin-asta o'zgartirgan holda gapirishga, baland ovozdan o'rta va sekin ovozga o'tish, va aksincha, o'tishga o'rganish lozim.

2. Ovoz balandligini rivojlantirish.

Ovoz balandligini o'zgartirish nutqning ifodalilik vositalaridan biridir.

Ovoz balandligi ton melodikasini, ya'ni ovozni baland va past qilishni yaratadi. Ton melodikasi so'zga his-tuyg'u va fikr ifodasini beradi: muhokama qilish, xafa bo'lish, g'azab, befarqlik, muhabbat, hayratlanish va boshqalar.

Ovozning bu modulyatsiyalari nutq intonatsiyasini yaratadi, nutqni ifodali va emotsional qiladi.

Ovoz balandligini rivojlantirish uchun ovoz diapazoni (hajmini) kengaytiruvchi, ovoz egiluvchanligini, modulyatsiyasini rivojlantiruvchi, ya'ni ovoz tembrini rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi.

3. Ovoz tembrini rivojlantirish.

Ovoz tembri og'iz – burun – hiqildoq rezonatorining faoliyatiga, tuzili-shiga va funksiyasiga bog'liq.

Fonatsiya jarayonida hiqildoq va bo'g'iz o'rtasida, yumshoq tanglay va bo'g'iz o'rtasida yaqin funksional aloqa mavjud bo'ladi. Yumshoq tanglay holatining bir ozgina o'zgarishi ham reflektor ravishda un paychalari holatining o'zgarishiga olib keladi. Yumshoq tanglay retseptorlari boshlang'ich maydon bo'lib, ovoz apparatining qo'zg'ashi va fonatsiya jarayonida shu retseptorlardan boshlanadi.

Og'iz – burun – hiqildoq rezonatorining barcha qismlari o'zaro muvofiq holda ishlaganida ovoz jarangli, tekis, aniq, mustahkam, egiluvchan va chidamli bo'ladi.

Ovoz tembri ustida ish olib borish vaqtida logoped oldida quyidagi vazifalar turadi:

- 1) ovoz jarangini hosil qilish;
- 2) bo'yin va bo'g'iz muskullarini bo'shashtirish yo'li bilan tomoqning va ovozning qismini yo'qotish;
- 3) ovoz chiqarish uchun to'siq bo'layotgan jag'larning qisilgan holatini yo'qotish;
- 4) ovozning tekisligi, turg'unligi va egiluvchanligini hosil qilish (har qanday ovoz kuchida, ovoz balandligida va uzunligida bir xilda ovoz chiqarish);
- 5) ovozning chidamliligini hosil qilish, ya'ni ovoz yuklamasi qancha davom etishidan qat'iy nazar jarangli sifatini saqlash.

**III bosqich** – ovoz hosil qilish jarayonini avtomatizatsiya qilish. Bolalarda ovozni hosil qilish va rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarning II va III bosqichlarini bir-biridan qat'iy ajratish qiyin, chunki ovoz hosil qilish avtomatizatsiyasi II bosqichdayoq boshlanadi. III bosqichning asosiy vazifasi – ovozni bolaning kundalik nutqiga amaliy jihatda kiritish, bolani baland, jarangli ovozdan erkin, zo'riqishsiz, toliqishsiz, tovushlarni aniq talaffuz qilgan holda foydalanishga o'rgatishdir.

Bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzish zarurdir. Mashg'ulotlar emotsional, yorqin, obrazli, ko'rgazmali, yengil va turli-tuman bo'lishi kerak.

Bu bosqichda quyidagi mashqlar o'tkazilishi mumkin:

- 1) o'nliklarni baland va past ovozda, tezlashtirib boriladigan tempda, kuch bilan va kuchsiz sanash;
- 2) maqollar, topishmoqlar, tez aytishlarni ovozning balandligini, kuchini, modulyatsiyasini o'zgartirib, turli

intonatsiyalardan foydalangan holda nutq tempini tezlashtirib berib talaffuz qilish;

- 3) she'r, matnlarni yod olish;
- 4) masallarni o'qish va yod olish;
- 5) xalq ertaklarni o'qish va gapirib berish, rollarga bo'lib o'qish va gapirish;
- 6) logoped tanlangan she'r va matnlarni ovoz chiqarib o'qish va gapirib berish;
- 7) berilgan mavzu bo'yicha erkin hikoya va rasmlarga qarab hikoya tuzish.


### **Nutqning prosodika tomoni tekshirish texnologiyasi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning prosodik tomonini tekshirishda quyidagi tarkiblardan foydalangan holda ishlar olib boriladi:

- Nutqiy nafas
- Diksiya
- Intonatsiya
- Urg'u berish
- Ovoz

- 1) Ovoz kuchi
- 2) Ovoz balandligi
- 3) Ovoz tembri
- 4) Ovoz toni
- 5) Ovozning ko'tarilish, o'sishi
- 6) Ovoz modulyatsiyasi

- Pauza
- Nutq motorikai
- Nutq tempi
- Nutq melodikasi



### **Prosodikaning asosini intonatsiya tashkil qiladi.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda prosodikani tekshirishda quyidagi dastur asosida ish tashkil qilinadi:

Motorikani qabul qilishni tekshirish  
Motorikani ijro qila olishni tekshirish  
Intonatsiyani qabul qilishni tekshirish  
Mantiqiy urg'u berishni tekshirish  
Ovoz balandligi modulyatsiyasini tekshirish  
Tembrni qabul qilishni tekshirish  
Nutqiy nafasni tekshirish  
Nutqning temp motorikaik tomondan tekshirish  
O'zini nazorat qilish orqali eshitish holatini tekshirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab yoshidagi bolalar ovozini rivojlantirish, chuqur nafas olish, uzoq nafas olish, qisqa nafas olish, ovoz kuchi, undan to'g'ri foydalanish, rivojlantirilgan nafas va ovozni so'z va iboralarda mustahkamlash ishlari olib boriladi:

- Ma'lum bir ovoz turlarining buzilishini bartaraf etish uchun davolash ishlari bilan birga logopedik mashg'ulotlarni olib borish;

- Artikulyatsion organ va nafas ustida to'g'ri va aniq ish olib borish, ovoz un paychalarining rivojlanishiga zamin hisoblanadi;

- Butun nutq apparatini mashq qilib bo'lgach, ehtiyotkorlik bilan ovoz fonatsiyasiga o'tiladi;

- Ovoz gigiyenasi haqida to'g'ri targ'ibot ishlarini olib borish lozim;

- Mutaxassislar profilaktika qilish jarayonida bolalar ovozini saqlashni ham inobatga olish lozim.

Maktabgacha yoshdagibolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish uchun quyidagi ishlardan foydalaniladi:

- Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo'yicha tekshirish;

- Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tekshirish
- Ovozning dimog' (burun) tembrini aniqlash;
- Ovoz tembrni idrok etishni tekshirish;
- Ovoz tembrini qaytarishni tekshirish;

- Nutqiy nafasni tekshirish.

Ovoz – bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig'indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo'ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin.

Ovoz nutqning ifodaliligi, emotsianalligi va mazmuni ahamiyatini ta'minlovchi vositalardan biri bo'lib, u nutqning eshutilishini ta'minlaydi. Shu sababli, ovoz buzilishlari natijasida bolaning nutqida kamchilik kuzatiladi va atrofdagilarga o'z fikrini to'liq bayon etishga to'sqinlik qiladi.

Ovoz tebranishini baland-pastligi bo'yicha tekshirishdabola o'z ovozini qanchalar boshqara olishini, uni baland-pastligi bo'yicha o'zgartira olishni, ovoz diapazoni qanchalik keng ekanligini aniqlash uchun muhimdir.

Ovoz tembri og'iz – burun – hiqildoq rezonatorining faoliyatiga, tuzilishiga va funksiyasiga bog'liq.

Fonatsiya jarayonida hiqildoq va bo'g'iz o'rtasida, yumshoq tanglay va bo'g'iz o'rtasida yaqin funksional aloqa mavjud bo'ladi. Yumshoq tanglay holatining bir ozgina o'zgarishi ham reflektor ravishda un paychalari holatining o'zgarishiga olib keladi. Yumshoq tanglay retseptorlari boshlang'ich maydon bo'lib, ovoz apparatining qo'zg'ash va fonatsiya jarayonida shu retseptorlardan boshlanadi.

Og'iz – burun – hiqildoq rezonatrining barcha qismlari o'zaro muvofiq holda ishlaganida ovoz jarangli, tekis, aniq, mustahkam, egiluvchan va chidamli bo'ladi.

Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tekshiriladi.

Buningmaqsadi – bola ovoz balandligi kuchini o'zgartira olish ko'nikmasini aniqlash hisoblanadi. Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tekshirish, bola ovoz kuchini, balandligini qanday o'zgartira olishini aniqlash uchun muhimdir.

Ovoz tembrini dastlabki subyektiv baholash bola bilan muloqat o'rnatish maqsadida ilk bor muloqat o'rnatish chog'ida amalga oshiriladi. Ovoz tembrini tadqiq qilish va baholash

uchun YE.S.Almazova tomonidan ishlab chiqilgan tembrini baholash shkalasidan foydalaniladi.

Giponazalizatsiyani aniqlash. (Giponazalizatsiya – havo oqimining dimoqdan chiqishning kamayishi). Giponazalizatsiya chog'ida <m>, <n> tovushlari bola nutqida <b> <d> tarzida jaranglaydi. Gipernazalizatsiya chog'ida dimoqlashuv, <m>va <n> undosh tovushlaridan tashqari yana unli tovushlarda ham uchraydi.

Ovoz tembrini idrok etilishini tadqiq qilishda ovoz toni jarangining xarakterini eshitish orqali aniqlay olish ko'nikmasi baholanadi.

Nutqiy nafasni tadqiq etish nafas olish va nafas chiqarishni baholashdan boshlanadi. Bola nafasining xarakteri tinch holatda va nutqiy holatda aniqlanadi. Bola tinch turganda ko'rish orqali nafas xarakteri aniqlanadi: bola burun bilan nafas olyaptimi yoki og'iz bilanmi.

### **3 turdagi nafas ajratiladi:**

- yuzak nafas;
- ko'krak bilan nafas olish;
- qovurg'alardan pastda nafas olish (qorin bilan nafas olishi).

Yuzaki (o'mrovli) nafasda nafas olganda qorin ichga tortiladi, yelkalar esa yuqoriga ko'tariladi. Ko'krak nafasida – nafas olish chog'ida ko'krak kengayadi. Qovurg'alararo (diafragmal), nafasda – nafas olish chiqarish chog'ida esa qorin torayib, ichkariga kiradi. Qovurg'alar osti nafasi – diafragmal nafas nisbatan fiziologik hisoblanadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy nafasni tekshirishda quyidagilar inobatga olinadi:

- Nafas turini aniqlash.
- Burun va og'izdan nafas olishni ajrata olish malakasini tadqiq etish.
- Havo oqimining yo'naltira olinishini tadqiq etish
- Hova oqimi kuchini tadqiq etish.

- Talaffuz nafasi xususiyatlarini tadqiq etish.

### **OVOZ BUZILISHLARINI OLDINI OLISH**

Ovoz buzilishlari, ko'pincha ovozdannoto'g'ri foydalanish natijasida va ko'p hollarda katta ovoz yuklamasi bilan bog'liq bo'lgan kasb kishilarida hamda qo'shiq aytuvchilarda uchraydi. Shuning uchun ovozdandimoiy ravishda foydalanuvchi kishilar ovoz hosil bo'lish asoslarini bilishlari va ovozdandimoiy foydalanishga oddiy ko'nikmalarni egallagan bo'lishlari lozim.

Bolalik yoshidan ovozning xirillashi, asosan, ovozning haddan tashqari zo'riqishidan kelib chiqadi. Buning oldini olish uchun bolaning baqirishga majbur qilmaslik va shu bilan birga bolaning har qanday baqirishiga ham javob bermasligi kerak.

Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalarning ko'pchiligida ovozning xirillashi kuzatiladi. Buning sababi – nutqda va ashula aytishda noto'g'ri foydalanishdir. O'qituvchining baland va qattiq ovoz bilan gapirib o'quvchilarga shaxsiy namuna ko'rsatish natijasida o'quvchilar ham shunday baland va qattiq ovozda javob berishga odatlanadilar. Bu ovoz buzilishlarini kelib chiqishi uchun birinchi turtki bo'ladi.

Odatda, ovozning kuchi bilan hurmatga, intizomga erishishga intilayotgan o'qituvchi bu narsalarga hech qachon erisha olmaydi.











Bolalarni gavgani to'g'ri tutishga o'rgatish lozim va gavgani tutishdagi kamchiliklarini yo'qotish muhimdir. Chunki bu kamchiliklar nafas va ovoz muskulaturasini zo'riqish holatini keltirib chiqaradi va bu ham ovoz buzilishiga olib keladi.





Ovozdandimoiy noto'g'ri foydalanishning sababi noto'g'ri rahbarlik ostida xorda qo'shiq aytish yoki o'qish ham bo'lishi mumkin. To'g'ri qo'shiq aytish ovoz va nutqni tarbiyalash va rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Qo'shiq aytish estetik his-tuyg'u va jamoa aloqalarini rivojlantiradi. Qo'shiq aytish salomatlik uchun ham foydalidir: chunki qo'shiq aytish vaqtida nafas olish intensiv bo'ladi, nafas muskulaturasi



mustahkamlanadi, yurak faoliyati va moddalar almashinuvi yaxshilanadi. Agar qo'shiq aytish bola uchun jismoniy jihatdan qiyin bo'lsa, uni o'z vaqtida vrachga ko'rsatish lozim. Chunki bu turli kasalliklarning natijasi bo'lishi mumkin.

Mutatsion davr ota-onalar va o'qituvchilarni bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlarini talab qiladi. Bunda ovoz diapazonining quyi registrida ovoz mashqlari o'tkazish lozim. Bu davrda ovozda buzilishlarining kelib chiqishi ehtimoli o'qituvchi e'tiboridan chetda qolmasligi zarur.





## II BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN VA INKYUZIV TA'LIMGA JALB ETILGAN MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN ISHLASH, NUTQIY NUQSONLARNI BARTARAF ETISH MAKTABDA TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARDA NUTQNING FONETIK TOMONI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI

**Tovushlar talaffuzini ikki bir biriga bog'liq holatda  
tekshiriladi.**

### **Fonologik holat.**

Bola nutq tovushlarni farqlashni va turli xil fonematik jarayonda ularning holati aniqlanadi.



### **Artikulyatsion holat.**

Nutqda tovushlarni hosil qilish holati va nutq jarayonida tovushlarni talaffuz etish holati aniqlanadi.

**Bola nutq tovushlarni farqlashni va turli xil fonematik  
jarayonda ularning holati aniqlanadi.**

### **Tovushlar talaffuzini tekshirish**

Nutq tovushlarni tekshirish bosqichma bosqich olib boriladi.

1. Nutqda tovushlar talaffuzini tekshirish.
2. Nutqda tovushlar talaffuzini bo'g'inda tekshirish.
3. Nutqda tovushlar talaffuzini so'zlarda tekshirish.
4. Nutqda tovushlar talaffuzini jummalarda tekshirish.

### **Quyida tovushlar guruhi tekshiriladi.**

1. Unli tovushlar (a,o,u,i,e,o');)
2. Sirg'aluvchi, shovqinli, affrikat tovushlar (s,z,sh,j,ch);
3. Sonor tovushlar (r,l,m,n);
4. Til orqa tovushlar (k,g,x,h);
5. Chuqur til orqa tovushlari (q,g');

6. Jarangli va jarangsiz tovushlar (b,v,d,z,j,s,g,g',y) (p,f,t,sh,ch,k,x,h,q).

**TOVUHLARNING NUTQ APPARATIDAGI ARTIKULEMA HOLATI:**

**Unli tovushlar (a,o,u,i,e o');**

Bosma ko'rinishi	A a	Oo	Uu	Ii	Ee	O'o'
Yozma ko'rinishi	A a	Oo	Uu	Ii	Ee	O'o'
Artikulema ko'rinishi						

**Sirg'aluvchi, shovqinli, affrikat tovushlar (s,z,sh,j,ch);**

Bosma ko'rinishi	Ss	Zz	Sh sh	Jj	Ch ch
Yozma ko'rinishi	Ss	Zz	Sh sh	Jj	Ch ch
Artikulema ko'rinishi					

**Sonor tovushlar (r,l,m,n);**

Bosma ko'rinishi	Rr	Ll	Mm	Nn
Yozma ko'rinishi	Rr	Ll	Mm	Nn
Artikulema ko'rinishi				

**Til orqa tovushlar (k,g,x,h)**

Bosma ko'rinishi	Kk	Gg	Xx	Hh
Yozma ko'rinishi	Kk	Gg	Xx	Hh
Artikulema ko'rinishi				

**Chuqur til orqa tovushlari (q,g');**


Bosma ko'rinishi	Qq	G'g'
Yozma ko'rinishi	Qq	G'g'
Artikulema ko'rinishi		

**Jarangli va jarangsiz tovushlar (b,v,d,z,j,s,g,g',y) (p,f,t,s,sh,ch,k,x,h,q)**

Bosma ko'rinishi	Bb/Pp	Vv/Ff	Dd/Tt	Zz/Ss	Jj/Sh	Gg/Kk	G'g'/Hh	Yy/Qq
Yozma ko'rinishi	Bb/Pp	Vv/Ff	Dd/Tt	Zz/Ss	Jj/Shsh	Gg/Kk	G'g'/Hh	Yy/Qq
Artikulema ko'rinishi								

Ushbu artikulemalarni artikulyatsion nutq apparatida yallig'lanish va og'riqlar bo'lmagan vaqtdagina bolalarga qilishni tavsiya eting!!!

**Logopedik adabiyotlarda tovushlar talaffuzini buzilishi uchta guruhga bo'linib aniqlanadi:**



**Fonematik idrokni tekshirish**

Bolalarda fonematik idrokni tekshirishdan avval uning fiziologik eshituv holati aniqlanadi. Ko'p hollarda fiziologik eshituv normada bo'lgan bolalarda fonemalarni kichik ko'rinishlarini farqlay olmaydilar. Buning natijasida bolalarda fonematik idrok kamchiliklari kuzatiladi.

Fonematik idrokni tekshirish maqsadida bir necha vazifalardan foydalaniladi:

- 1) Oddiy jummalarni solishtirish, farqlash, tanish.
- 2) Bir qator so'zlar ichidan kerakli so'zni eslab qolish.
- 3) Bir qator tovushlar ichidan kerakli tovushni ajratish, so'ngra -bo'g'inlarda, so'zlarda.
- 4) 2 va 4 elementdan iborat bo'g'inlar qatorini eslab qolish (unli tovushlar o'zgarishi bilan: RA-RE-RU, undosh tovushlar o'zgarishi bilan: VA-SA-RA.
- 5) Tovushlar qatorini eslab qolish.

**NUTQNING FONETIK TOMONI RIVOJLANTIRUVCHI  
TEXNOLOGIYALAR**

**«Qutidan tovushlar».**

O'yin uchun bir nechta qutilar olinadi va har xil tarkib bilan to'ldiriladi: urug'lar, don, no'xat, bonchuklar, tugmalar, yong'oqlar va boshqalar. Bola qutilarni silkitib, ularning tarkibini taxmin qilishi kerak.

**«Bu tovushni qanday ob'ekt chiqaradi?»**

Turli materiallardan buyumlar olinadi: shisha stakan, plastik o'yinchoq, yog'och o'lchagich, qalay qoshig'i va boshqalar. Birinchidan, bola kattalarning bu narsalarning har birini qanday taqillatayotganini kuzatadi, ular bir vaqtning o'zida turli tovushlarni chiqaradi. Keyin chaqaloq ko'zlarini yumadi, kattalar har bir narsani taqillatadi va bola ularni tovushlar bilan taxmin qilishi kerak.

**«Jiringdoqlar»**

Bola ko'zlarini yumadi va ovoqli signallarga o'tadi: jiringlar, qo'ng'iroqlar, kaftlarning qarsillashi, barmoqlarning qisilishi va boshqalar

**«Eshiting va ko'rsating.»**

Bolaning oldiga tovushga o'xshash so'zlar tasvirlangan kartalar qo'yiladi: og'iz, mushuk, oqim yoki sharbat, uyqu, baliq, uy va boshqalar. Ota -ona ob'ektga (yoki hayvonga) ism qo'yadi va chaqaloq u bilan kartani ko'rsatishi kerak.

**«Togri yoki notogri.»**

O'qituvchi bir xil so'zni bir necha marta chaqiradi, lekin bitta xatoda xato bilan: krokodil, timsoh, timsoh. Chaqaloq to'g'ri so'zni eshitganda, qandaydir belgi berishi kerak, masalan, qo'llarini qarsak chalishi.

**Kimning ovozi?**

Bolalar turli qushlar va hayvonlar tomonidan chiqarilgan tovushlarning audio yozuvlarini o'z ichiga oladi va ular taxmin qilishlari kerak


**«Tasavvur qiling musiqa asbobi».**

Bolaning oldiga bolalar musiqiy o'yinchoqlari qo'yiladi: pianino, karnay, hushtak, jiringlash, baraban. U chiqaradigan tovushlarni eshitadi, eslaydi. Keyin narsalar ekranning orqasida yashiringan va bola hozir qaysi biri o'ynayotganini taxmin qilishi kerak.

### «Ovozni tinglang».

Bitta tovush beriladi (masalan, «sh»), chaqaloq uni «tutishi» kerak. Voyaga yetgan kishi turli xil tovushlarni sanab o'tadi va chaqaloq to'g'ri ovozni eshitganda qo'llarini chayqashi kerak. Keyin o'qituvchi turli so'zlarni aytadi (mushuk, teri, mo'ynali kiyim, allaqachon, issiqlik, to'p va boshqalar). Bola berilgan tovushli so'zni eshitganda, qo'llarini chaladi

### NUTQNING LEKSIK TOMONI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI



**Leksika** (yun. *lexis* — so'zga oid, lug'aviy) — tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lishi, mavjud so'zlardan ayrimlarining eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda Leksika boyib boradi. 20-asrda barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o'sib, taraqqiy etdi. O'zbek tili leksikasiga baynalmilal so'zlar keng ko'lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to'xtovsiz o'sib bormoqda. O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam, shuningdek, o'z qatlam tarkibida umumturkiy so'zlar va ulardan yasalgan o'zbekcha so'zlar mavjud. O'zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlar bor.

O'zbek tili leksikasi zamonaviyligi jihatdan 3 asosiy qatlamga bo'linadi:

1) zamonaviy qatlam — eskilik va yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar. Shu qatlamga oid so'zlar o'zbek tili

leksikasining asosini tashkil qiladi;

2) eski qatlam — hozirda ham iste'molda bo'lgan istorizmlar, arxaizmlar bu qatlamga kiradi;

3) yangi qatlam — yangi Leksika deb ham yuritiladi.

Lug'aviy birliklar ishlatilish doirasi jihatdan 2 qatlamga ajratiladi:

1) ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar. Ma'nosi shu tilda so'zlovchilar uchun tushunarli va umumqo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar umumiste'moldagi chegaralanmagan Leksika sanaladi;

2) ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar — til lug'at tarkibining ajralmas qismi bo'lib, uning tarkibiga dialektal, terminologiya kasb-hunar leksikasi, ilmiy atamalar, jargon va argolar, vulgarizm va varvarizmlar kiradi. Lug'aviy birliklar nutq ko'rinishlari jihatdan adabiy va so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'ladi. Leksika termini biror muallif yoki asar Leksika si kabi tor ma'noda ham qo'llanadi.

Logoped bolaning nutqni tushunishni tekshirishda avval bolaning fiziologik eshituv normada ekanligi aniqlab olishi lozim bo'ladi. So'ngra bolada fiziologik eshituv normada deb aniqlangan so'ng bolaning nutqni tushunish bo'yicha logopedik ish tashkil etiladi. Logopedik ishni tashkil qilish vaqtida bolaning yakka xususiyalari inoabtga olingan holda tekshiruv metodikalari tanlanadi.

#### **So'zlarni tushunishni tekshirish**

1. Logoped tomonidan aytilgan so'zlarni bola rasm yoki predmetlar orqali ko'rsatib berishi.

2. Logoped tomonidan aytilgan so'zlarni bola oldida turgan predmetlar ichidan emas, balki bolaning o'zida mavjud bo'lgan predmet yoki atrofdegilardan olgan holda ko'rsatib berish.

3. Murakkab sharoitda so'zlarni tekshirish (masalan: menga ruchka, daftar, koptok, olma, piyolani ko'rsatib ber).

4. Bir necha juft rasmlarni tushunishni tekshirish uchun logoped bolaga ikkita rasmi kartochkalarni taqdim etiladi.

Masalan, birida bola kitob o'qiyapti, ikkinchisida esa kitob rasmi tasvirlangan. Logoped "o'qiyapti" so'zini talaffuz qiladi, bola esa kerakli rasmni ko'rsatishi lozim bo'ladi.

5. Fonematik analizda sezilarsiz tarzda kuzatiladigan so'zlar ma'nosini tushunish. Bunda ayrim tovushlarni o'zgarishi bilan so'zning ma'nosi ham o'zgarishi. (Masalan, o'rnak, o'rdak).

6. Bir necha murakkab topshiriqlar bo'lib, so'zlarning ma'nosini tushunishda matnda ularni to'g'ri tanlash:

1) Nomlangan predmetlarning o'ziga xos tomonlarini aytish

2) Qismlardan yig'ilgan holda predmetning to'liq nomini aytish

3) Predmetning umumiy nomidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xusiyatni aytish. (masalan, pichoq bu o'tkir predmet).

4) Predmet harakati nomini aytish (masalan, pichoq u kesadi)

5) Predmetga qarama qarshi bo'lgan so'z topish (masalan, pichoq, qoshiq)

6) Jumlani tugatish.

#### **Gaplarni tushunishni tekshirish**

1. Murakkab bo'lgan og'zaki topshiriqlarni bajarish.

2. A.R.Luriya tomonidan uch variantdan iborat bo'lgan murakkab mantiqiy-grammatik tuzulishlarni tushunishda quyidagilardan foydalanilgan:

1) Bolaga ikki ketma-ket nomlangan predmetni ko'rsatish so'raladi. Masalan, qalam, daftar.

2) "Kalit bilan qalamni ko'rsat".

3) "Kalitni qalam bilan ko'rsat".

3. Mantiqiy-grammatik munosabatlarni tushunishni o'rganish. Masalan, bolaga rasmlari kartochkalar taqdim etiladi. Ayol it bilan yuribdi va itni rasmi. Bola shu rasmlar orasidan itning egasini ko'rsatishi kerak.

4. Bolaga noodatiy bo'lgan og'zaki topshiriqlar beriladi. Masalan, Akbar Boburni urdi. Bu yerda kim urushqoq? Terak

daraxti olma daraxtidan baland. Terak daraxtini ko'rsat.

5. Gaplarni to'g'rilash. Malalan, sigir qizga suv olib keldi.

6. Gaplarni o'qib, savollarga javob berish kerak. Masalan, Karim Sobirni kutib oldi. Kim keldi.

#### **O'qishni tekshirish texnologiyasi**

Logoped bolaning nutqni tushunishni tekshirishda avval bolaning fiziologik eshituv normada ekanligi aniqlab olishi lozim bo'ladi. So'ngra bolada fiziologik eshituv normada deb aniqlangan so'ng bolaning nutqni tushunish bo'yicha logopedik ish tashkil etiladi. Logopedik ishni tashkil qilish vaqtida bolaning yakka xususiyalari inobatga olingan holda tekshiruv metodikalari tanlanadi.

#### **So'zlarni tushunishni tekshirish**

1. Logoped tomonidan aytilgan so'zlarni bola rasm yoki predmetlar orqali ko'rsatib berishi.

2. Logoped tomonidan aytilgan so'zlarni bola oldida turgan predmetlar ichidan emas, balki bolaning o'zida mavjud bo'lgan predmet yoki atrofdagilardan olgan holda ko'rsatib berish.

3. Murakkab sharoitda so'zlarni tekshirish (masalan: menga ruchka, daftar, koptok, olma, piyolani ko'rsatib ber).

4. Bir necha juft rasmlarni tushunishni tekshirish uchun logoped bolaga ikkita rasmlari kartochkalarni taqdim etida. Masalan, birida bola kitob o'qiyapti, ikkinchisida esa kitob rasmi tasvirlangan. Logoped "o'qiyapti" so'zini talaffuz qiladi, bola esa kerakli rasmni ko'rsatishi lozim bo'ladi.

5. Fonematik analizda sezilarsiz tarzda kuzatiladigan so'zlar ma'nosini tushunish. Bunda ayrim tovushlarni o'zgarishi bilan so'zning ma'nosi ham o'zgarishi. (Masalan, o'rnak, o'rdak).

6. Bir necha murakkab topshiriqlar bo'lib, so'zlarning ma'nosini tushunishda matnda ularni to'g'ri tanlash:

a. Nomlangan predmetlarning o'ziga xos tomonlarini aytish

b. Qismlardan yig'ilgan holda predmetning to'liq nomini aytish

c. Predmetning umumiy nomidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatni aytish. ( masalan, pichoq bu o'tkir perdmet).

d. Predmet harakati nomini aytish ( masalan, pichoq u kesadi)

e. Predmetga qarama qarshi bo'lgan so'z topish ( masalan, pichoq, qoshiq)

f. Jumlani tugatish.

Nutqning tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Logopedik adabiyotlarda turli xil mualliflar tomonidan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlarini olib borish ko'rsatalida: F.F.Rautomonidan 2 ta bosqichga ajratgan, O.V.Pravdina va O.A.Tokarevalar 3 ta bosqichga ajratgan, M.YE. Xvatseva esa 4 ta bosqichga ajratgan. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni an'anaviy usulda bartaraf etish yo'llarini olib borish mumkin.

*1.Tayyorlov bosqichi.* Bu bosqichning asosiy maqsadi bola diqqatini maqsadga qaratilgan logopedik jarayonga qaratish. Buning uchun bir qator umumpedagogik va maxsus logopedik masalalarni yechish lozim.

Muhim umumpedagogik masalalardan biri mashg'ulotlar yo'nalishini shakllantirishdir: logoped bolani logopedik kabinet jihozlariga, muhitiga o'rgatishi, bolada mashg'ulotga nisbatan qiziqish va xohish uyg'otish lozim. Bolalarda notanish odamlarga nisbatan uyalish, tanglik, indamaslik ba'zi hollarda hatto qo'rquv hollari ham kuzatiladi. Logopeddan asosan xushmuomilalilik talab qilinadi; bola bilan munosabatda rasmiyatchilik, qattiq qo'llik qilish kerak emas.

Maqsad: nutq harakat analizatori va nutq eshituv analizatorlarni to'g'ri idrok etish va tovushlar talaffuziga tayyorgarlik ko'rish.

Tarkibi:

1) Artikulyatsion organlar harakatini aniqligini shakllantirish:

A) logopedik massaj yordamida

B) artikulyatsion gimnastikalar yordamida

2) nutqiy nafasni rivojlantirish

3) barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish:

A) barmoqlar gimnastikasi yordamida

B) qo'llarni uqalash yordamida

V) qo'l barmoqlar yordamida o'z o'zini uqalash

G) ko'rgazmali jihozlar yordamida (bog'ich bog'lash, mozayka, lepka, konstruktorlar)

4) fonematik jarayonni rivojlantirish.

5) nutqda mavjud tovushlarni ustida ishlash.

### **Talaffuz qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.**

Bu bosqichning maqsadi maxsus tanlangan nutq materiali bo'yicha bolada tovushni to'g'ri talaffuzini boshlang'ich bilimlarini shakllantirishdan iboratdir. Tovushlarni nutqqa qo'yish, nutqda ulardan to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantirish, tovushlarni tanlay bilish, o'zaro almashtirib yubormaslik (tovushlar differentsiatsiyasi) aniq masala bo'lib hisoblanadi. Ko'rsatilgan masalalarni logopedik ish jarayonida yechish zaruriyati, nutqni talaffuz tomonini ontogenetik egallash qonunidan kelib chiqadi.

Bir qancha tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, u yoki bu tovushni paydo bo'lish paytidan boshlab to uni to'g'ri talaffuzigacha, to uni nutqqa kiritguncha ancha vaqt o'tadi. A.N.Gvozdev oradagi bu vaqtni tovushni o'zlashtirish davri deydi. Bu davr 30-45 va ko'proq kun bo'lib o'ziga xosdir. Oldin yangi tovush eski tovush bilan parallel ravishda ishlatiladi (almashtirilgan tovush), bunda oldingi ya'ni eski tovush yangisiga qaraganda tez-tez ishlatiladi. Keyinchalik yangi tovush tez-tez ishlatiladigan bo'ladi, bir qancha vaqtdan keyin esa u eski tovushni siqib chiqarib hamma vaziyatda ham o'zi ishtirok etadi, keyinchalik uni nutqdan umuman siqib chiqaradi va shundan so'ng yangi tovushni eski tovush bilan birga differentsiatsiya qilish jarayoniga o'tiladi.

F.F.Rau o'z ishlarida tovushlarni nutqqa qo'yishni uch usulini ko'rsatadi: taqlid (imitativ), mexanik (yordam) va

aralash.

*Birinchi usul*-logopeddan eshitgan tovushga mos qilib bolaning ongli ravishda shu tovush artikulyatsiyasini topishga va talaffuz qilishga urinishiga asoslangan. Bunda bola akustik tayanchdan tashqari ko'rish, taktil va fikrlash sezgilardan ham foydalanadi. Taqlid usulda asosan artikulyatsion organning holati qanday bo'lishi kerakligi haqida logoped og'zaki tushuncha beradi. Izlanuvchanlik sirg'aluvchi, jarangli tovushlarni postanovka qilishda yaxshi natijalar beradi. Ba'zi bir tovushlar esa, masalan: sonor «r», «l», affrikatlar «ch», til orqa «k», «g», «x» tovushlar ko'pincha boshqa usuldan foydalangan holda muvaffaqiyatli qo'yiladi.

*Ikkinchi usul*-maxsus zond yoki shpatel bilan artikulyatsion organga mexanik ta'sir etishga asoslangan. Logoped boladan bir tovushni aytishni va shu tovushni bir necha marta takrorlashini so'raydi, takrorlash vaqtida zond yoki shpatel yordamida tovushning artikulyatsion holatini o'zgartiradi. Natijada boshqa tovush hosil bo'ladi.

Bu usulda bolaning artikulyatsion organlari logoped harakatlariga bo'ysunadi, bola mustaqil amalga oshira olmaydi. Uzoq shug'ullanishdan keyin bola mexanik yordamsiz kerakli vaziyatni egallay oladi, o'ziga shpatel yoki qo'li bilan yordam bergan holda.

*Uchinchi usul*-oldingi ikkita usulni birga olib borilishiga asoslanadi. Taqlid va tushuntirish bunda asosiy rolni o'ynaydi. Mexanik usuldan qo'shimcha ravishda foydalaniladi.

Logoped bolaga kerakli tovush hosil bo'lishi uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi: masalan til uchini ko'tarish (agarda bu holat bola tomonidan normal ravishda bajarilmasa).

Bu usulda bola faollashadi, logoped tomonidan ko'rsatilgan yordam natijasida kerakli vaziyat uning xotirasida qoladi va keyinchalik ham mexanik yordamsiz bema'lol bajara oladi.

Tovush nutqqa qo'yilgandan so'ng uni nutqqa kiritish ustida ish olib boriladi, ya'ni avtomatizatsiya qilinadi. Tovushni avtomatizatsiya qilish jarayoni maxsus tanlangan, fonetik tarkibi oddiy va buzilgan tovushlar ishtirok etmagan so'zlarni

mashq qilish asosida olib boriladi. Tovushning so'zdagi o'rni aniqlanadi: boshida, o'rtasida yoki oxirida. Birinchi bo'lib so'zning boshida kelgan tovush ustida ishlanadi, keyin so'zning oxirida kelgan, so'ngra so'zning o'rtasida kelgan tovush ustida ishlanadi.

Tovushni analizi va sintezi ustida ishlash katta yordam beradi.

Ko'pincha bola avtomatizatsiya jarayonidayoq qo'yilgan tovushni mustaqil ravishda o'z nutqiga kirgiza boshlaydi. Agar bola tovushni boshqasi bilan almashtirmasa, keyingi ishni keragi yo'q. Logopedik amaliyotda bir tovushni avtomatizatsiya qilib bo'lgandan keyin ham uning ustida ishlashni talab etadigan hollar ham uchraydi, ya'ni tovushlarni differentsiatsiyasi ustida ish olib boriladi.

#### **Gaplarni tushunishni tekshirish**

1. Murakkab bo'lgan og'zaki topshiriqlarni bajarish.
2. A.R.Luriya tomonidan uch variantdan iborat bo'lgan murakkab mantiqiy-grammatik tuzulishlarni tushunishda quyidagilardan foydalanilgan:
3. Bolaga ikki ketma-ket nomlangan predmetni ko'rsatish so'raladi. Masalan, qalam, daftar.
4. "Kalit bilan qalamni ko'rsat".
5. "Kalitni qalam bilan ko'rsat".

#### **Mantiqiy-grammatik munosabatlarni tushunishni o'rganish.**








Masalan, bolaga rasmi kartochkalar taqdim etiladi. Ayol it bilan yuribdi va itni rasmi. Bola shu rasmlar orasidan itning egasini ko'rsatishi kerak. Bolaga noodatiy bo'lgan og'zaki topshiriqlar beriladi. Masalan, Akbar Boburni urdi. Bu yerda kim urushqoq? Terak daraxti olma daraxtidan baland. Terak daraxtini ko'rsat.













#### **Gaplarni to'g'rilash.**







Masalan, sigir qizga suv olib keldi. Gaplarni o'qib, savollarga javob berish kerak. Masalan, Karim Sobirni kutib oldi. Kim keldi.







## Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan nutqning leksik ta'rafini rivojlantirish uchun mashqlar to'plami

<p>Harfni qizil rangda bo'ya. Gazeta va jurnallardan "o" harfini qirib olib, olmani ichiga yopishtir.</p>  <p>She'ri yodla:</p> <p>G'ildirakka qarasang, "O" harfini ko'rasan. Bu harida burchak yo'q Shuning uchun dumaloq.</p>	<p>Harfni qizil rangda bo'ya. Gazeta va jurnallardan "u" harfini qirib olib, uychani ichiga yopishtir.</p>  <p>Harf birikmalarini o'qi:</p> <p>OU UO</p> <p>She'ri yodla:</p> <p>Taqaga o'sshab ketar "U" harfining o'zlari Shu harfdah boshlarar "uzum", "ukki" so'zlari.</p>
<p>Harfni qizil rangda bo'ya. Ipnini ichiga qirib yopishtir:</p>  <p>Harf birikmalarini o'qi:</p> <p>IO IU IOU</p> <p>She'ri yodla:</p> <p>Ko'chadagi ustuncha Tikka bo'lib turarkan. Yerga yotqizib qo'yssa, Yotmayman deb, ayarkan.</p>	<p>Harfni qizil rangda bo'ya. Avtobusni ichiga qirib yopishtir:</p>  <p>Harf birikmalarini o'qi:</p> <p>AO AU AI AIO BUA OAI</p> <p>She'ri yodla:</p> <p>Mata ita ustuncha O'rtasida-belbog' cha, Bu harfini bilding, a? Ko'parangiz lara "A".</p>
<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Uni yasamoq oson Diqqat bilan qaragin Ikki ustun orasiga Qiya ustun tiragin.</p> <p>Bo'g'inlarni o'qi:</p> <p>AN ON UN IN NA NO NU NI</p> <p>Tezaytishni yod ol: Novvoy non yopdi, nonni novvot deb sotdi!</p>	<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Bir oyoq Va bir quloq, "P" harfi bu- Eslab qol, o'rtoq!</p> <p>Bo'g'inlarni o'qi:</p> <p>AP OP UP IP PA PO PU PI</p> <p>Tovushli sxema. Doiralarni bo'ya: unli tovushni-qizil, undosh tovushni-ko'k rangda.</p> 

<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Qani, aytgin sen qizcha Bu qandayin bolg'acha? Bolg'acha taq-taq etar "T"ga do'stman, deb aytar.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi:</p> <p>TA TO TU TI O-TA O-PA TU-T PA-T</p> <p>Tovushli sxema. Doiralarni bo'ya: unli tovushni-qizil, undosh tovushni-ko'k rangda.</p> 	<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Bir qo'lini ko'zarib Oyog'in kerib turar. Kimsan o'zing? deb so'rasak "K" bo'laman, deb aytar.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi:</p> <p>KA KO KU KI A-KA U-KA TO-K NO-K</p> <p>Tovushli sxema. Doiralarni bo'ya: unli tovushni-qizil, undosh tovushni-ko'k rangda.</p> 
<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Ikki do'st qo'l uslashib Do'stlik sulhi tuzildi. Ularning o'rtasida "M" harfi paydo bo'ldi!</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi:</p> <p>MA MO MU MI TO-M NO-M KA-M</p> <p>Harfni o'stirgacha yoz:</p> 	<p>Harfni qizil rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Hovhidagi narvoncha Ibridan sinib qolibdi. Iltita ustuni tashlab "E" harfi bo'p qolibdi!</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi:</p> <p>NE PE TE KE ME ME:N KE:T ME:VA</p> <p>Tovushli sxema chiz. Yo'qolgan harflarni topib, yoz:</p> 
<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>"X" harfini yozaman, Qaychiga o'sshataman. Xat, xo'roz so'zlaridan Adashmasdan topaman!</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi:</p> <p>XA XO XU XI XE XO-NA</p> <p>Tovushli sxema chiz. Yo'qolgan harflarni topib, yoz:</p> 	<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rini yod ol.</p>  <p>Ilmoqchaga o'sshatib, "S" bo'yini egadi. Davom ettirsa uni, Sakkiz bo'lib qoladi.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi:</p> <p>SA SO SU SI SE SU-T SO-K KO-SA</p> <p>Yo'qolgan harflarni topib, yoz:</p> 

<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>B</b></p> <p>Ko'zoynakni eslayman, "B" harfini yozaman. "banan", "baliq" so'zlaridan Adashmasdan topaman.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: BA BO BU BI BE BO-BO BO-NU BI-NO</p> <p>Yo'qolgan harflarni topib, yoz:</p> 	<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>L</b></p> <p>Boltacha o'tin yoritib Kelib damini olar. "L"ga o'xshagan deb, Bolalar 7 yolar.</p> <p>O'qi: LA LO LU LI LE</p> <p>YO LO XO LA BO L BO XO BO</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 
<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>Q</b></p> <p>Bahor kelib, taxumdun flen bolasi chaqdi. Ko'rib yorug' jabonni Quyoshga kulib hoqdi.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: QA QO QU QI QE QOP QUM BA-QA</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 	<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>V</b></p> <p>Osmondagi varrakka "V" harfi o'xshab ketar. "Velosiped" so'zi ham Siv harfidan boshlanar.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: VA VO VU VI VE SIIV ME-VA</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 
<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>Z</b></p> <p>Bu qandayin tomosha? Zebra zirak taqibdi! Bo'ldi, tushundim, "Z" harfi. Sehrlanib qolibdi...</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: ZA ZO ZU ZI ZE TUZ KUZ KO'-ZA</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 	<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>D</b></p> <p>Oyjonim olmani To'rt bo'lakka bo'ldilar. Bir bo'lakni ko'rsatib, "D"ga o'xshar, dedilar.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: DA DO DU DI DE DO-NO DA-VO DO-KA</p> <p>Rasmlarning bosh harfini topib, so'z tuz</p> 

<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>O</b></p> <p>Tunda qora osmonga Go'zal to'lin oy chiqdi. Bir yulduzcha shoshilib Yo'lin yoritib berdi.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: YO HO' FO' MO' BO' ZO' KO'Z TO'N YO'-TI</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 	<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>G</b></p> <p>Patnis ushlab yurardi Oymomaxon qo'lida. Patnis bo'sh-ku, desak ham, Davom etar yo'lida.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: GA GO GU GI GE GO' GAZ GAP GUL</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 
<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>Sh</b></p> <p>"Shamol", "sholg'om" so'zlari "Sh" harfidan boshlanar. Ikki o'rtaq doimo Ajratmasdan yozilar.</p> <p>Bo'g'inlarni, so'zlarni o'qi: SHA SHO SHU SHI SHE SHO'</p> <p>YO QU MO Sh TU QU BE Sh</p> <p>Teyaytishni yod ol. 5 marta ayt. Osh ichida mesh, mesh ichida tosh.</p>	<p>Harfni ko'k rangda bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>H</b></p> <p>Narvonchaga o'xshatib, "H" harfini yozaman. Keyin unga o'tirib, Ashulalar aytaman.</p> <p>O'qi: HA HO HU HI HE HO' HAM HA-VO BA-HO HO-VUZ HOL-VA HAS-SA</p> <p>Rasmlarning bosh harfidan kuzgi mevananing nomini top:</p> 
<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>J</b></p> <p>Soyabonning handini Kim sindirdi, ayt tezroq? - Yo'q, sira unday emas, "J" harfi bu, eslab qol, o'rtaq!</p> <p>O'qi: JA JO JU JJ JE JO' TOJ JU-MA JA-LA JO'-JA</p> <p>Teyaytishni to'g'ri va tez ayt. Pajji p'ajjibon pajji jo'ja bilan jo'ra.</p>	<p>Harfni bo'ya. She'rni yod ol.</p> <p><b>Y</b></p> <p>Qushlarga tushlar otib Tahsilni sovmach Rinqatka xafa bo'lib, "Y" harfiga aylandi.</p> <p>O'qi: YA YO YU YI YE YO' NAY SOY BOY QO'Y TO'Y TU-YA</p> <p>Yo'qolgan harflarni top:</p> 

<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>	<p>1. Bu kuzalarga "SH" yoki "S" harflarini qo'sh, so'zlar tuz.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>
<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>	<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>
<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>	<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>

<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>	<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>
<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>	<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>
<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>	<p>1. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>2. Kuzalarni to'g'ri nomlari bilan to'ldir.</p> <p>3. Yo'qolgan harflarni top.</p>

## NUTQNING GRAMMATIK TOMONI TEKSHIRISH TEXNOLOGIYASI

### **Bolalarda lug'at boyligi tekshirish texnologiyasi**



*Bolalarda to'g'ri muloqat jarayonini qisman yoki to'liq tekshirish ishlari*

Tekshirishdan avval logoped bola bilan to'g'ri muloqatni o'rnatib, bolaning kayfiyatini ko'targan holda tekshiruv ishlari o'yin tarzida olib borilishi lozim. Va quyidagi ishlar olib boriladi:

1) Bola o'yinchoqlarni nomlash, ular bilan qanday harakatlarni bajarishni aytib berish.

2) Bola rasmlarni nomlash.

### **To'g'ri muloqatga kirishuvchi bolalarni tekshirish**

1) Maxsus tanlangan rasmlarda predmetlarni harakatini, sifatini nomlash;

2) Mavxum tushunchalarga ega bo'lgan, antonim, sinonim, so'zlarning umumiy ma'nosi, so'zlardan kerakli so'zni mo'ljal olishni tekshirish;

3) Bir guruhga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish;

4) Turli xil muloqat faoliyatida qo'llaniladigan so'zlarni o'rganish.

A) berilgan so'zga mustaqil holda gap tuzish;

B) Tugallanmagan gapga 1 yoki 2 ta so'z qo'shish;

V) Gapda qo'llanilgan xatosi bor so'zni to'g'rilash.

5) Assomiliyatsiyaga yo'llanilgan metod.

So'zlarni xususiyatiga to'g'ri keladigan mazmun qo'llaniladi.

Bolaga so'zlar bir biriga mos keladigan topshiriqlarni bajarish vazifasi beriladi.

6) So'zning bir qancha ma'nosini anglashini aniqlash maqsadida, shu so'zlarga yaqin so'zlar taqdim etiladi.

7) Gaplarda yetishmaydigan so'zlarni to'ldirish.

## **Bolalarda nutqning grammatik qurilishi tekshirish texnologiyasi.**

### **Gaplarni tuza olish ko'nikmalari tekshirish**

1) Yordamchi so'zlar yordamida gap tuzish.

2) Alohida tartibsiz bo'lgan so'zlarda gap tuzish.

3) Rasmlar asosida oddiy gaplar tuzish orqali, berkitib qo'yilgan topshiriqlarni topish.

A) oddiy ko'p qo'llanilmadiygan gaplar tuzish.

B) 3 yoki 4 so'zlardan iborat bo'lgan gaplarni tuza olish ko'nikmasi.

V) bir ma'noga ega bo'lgan gaplarni tuza olish ko'nikmasi.

G) bir nechta ma'noga ega bo'lgan gaplarni tuza olish ko'nikmasi.

4) Murakkab gaplarni tuzish.

A) bir nechta harakatdan tashkil topgan rasmlar asosida gap tuzish.

B) bitta asosiy gapning mazmunini tugatish.

V) 2 ta oddiy gapdan murkaba mazmun tuzish

### **Gaplarda so'zlarni grammatik tomonini o'zgartira olshini tekshirish**

1. Grammatik munosabatlarni boshqara olishini tekshirish.

1) ma'lum bir kelishik qo'shimchalarni so'zda qo'llash.

2) rasm asosida harakatlarni bajarishni ot va fe'lda tuzish.

3) matnda yetishmaydigan so'zlarni qo'llash.

2. Grammatik munosabatlarni qo'llay olishini tekshirish.

1) rasm asosida gaplarni tuzishda sifat va kelishik qo'shimlardan foydalanish.

2) gaplarda tushib qolgan so'zlarni to'ldirish.

3) gaplarda yetishmaydigan so'zlarni bir nechta so'zlar qatoridan tanlash.

Bolalarda nutqni grammatik tomonini tekshirishda ot, sifat, kelishik, fe'llarga e'tibor qaratiladi.

### ***Bog'langan nutqni tekshirish texnologiyasi***

- 1) Gapirib berish
- 2) Seriyali yoki syujetli rasmlar asosida gapirib berish
- 3) O'zi haqida yoki biror bir hodisani gapirib berish
- 4) Gapirib bera olishni tekshirishda natijalar tahlil etiladi:
  - 1) Gapirilgan matnni tushunish.
  - 2) Mustaqil gapirib berish.
  - 3) Matnni ma'nosini to'liq yetkazib berish.
  - 4) Jummalarni ketma- ketligi
  - 5) Berilgan fikrni to'g'riligi
  - 6) Gapirib berishni to'g'ri qo'llash.


### ***Grammatik shakllarni tushunishni tekshirish***

Tekshirishdan avval logoped tomonidan eksperimentni o'tkazish uchun sharoit yaratish kerak. Chunki eksperimentda logoped topshiriqlarni og'zaki ravishda berilganda barcha lozim bo'lgan predmetlar tayyor turgan bo'lishi lozim.

Tekshirish yo'li:

1. Bir necha predmetlar tasvirlangan rasmlarda bir va ko'plik ma'nodagi ot, sifat, fe'llarni tushunishni tekshirish.
2. Gaplar ma'nosini tushunishni tekshirish.

### ***Yozma nutq holatini tekshirish texnologiyasi***



Nutq - kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Fikrini savodli bayon etish, og'zaki va yozma nutqdan muloqotvositasi sifatida foydalanish hozirdanafaqat onatili, balkiumumiy o'rta ta'lim maktablari shuningdek maxsus (korreksion) maktablardagi umumta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'quvchilardagi orfografik savodxonlikning keskin pasayib ketgani kuzatilmoqda. Yozma nutqi turg'un buzilgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim va maxsus korreksion maktablardagi muayyan fanlar bo'yicha qoloq o'quvchilarning kattagina qismini tashkil qiladi.

Ona tilidan o'zlashtirishning pastligi esa bola shaxsining emotsional, kognitiv va xulq-atvor jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korreksion pedagogikada va logopediyada bolalarning yozma nutqidagi buzilishlarni aniqlash, ularning oldini olish va korreksiya qilish muammosi o'z dolzarbligini hamon saqlab kelmoqda.

Differensial yondashuv asosida maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik yordamning yo'qligi orfografik xatolarning ko'payishiga va mustahkamlanishiga olib keladi.

Hozirgi sharoitda til ko'nikmalarini shakllantirishning yangi, yanada samaraliroq texnologiyasiga zaruriyat sezilmoqda. Nutqiy kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning yozma nutqidagi orfografik xatolarning oldini olish va ularni bartaraf etishning eng faol yo'llarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish zamonaviy logopediyaning nazariy va amaliy jihatdan muhim masaladir.

Sifatli ta'lim berish va o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yangilashga qo'yiladigan talablar hamda maxsus ta'limga ehtiyoj sezgan bolalarni o'qitish va ularga korreksion yordam berishda differensiallashgan yondashuvni amalga oshirish usullarini belgilaydi.

O'zbekistonda ona tili metodikasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan M.Asqarova, K.Qosimova [11], Q.Abdullayeva [7], O.Roziqov, A.G'ulomov, R.Ikromova [51], S.Fuzailov [144], X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva, D.Shodmonqulovalarning [165], darsliklari va ilmiy-metodik ishlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tilini o'qitishda, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda ilmiy - metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Nutq kamchiliklarida tilning lug'at tarkibi va grammatik tuzilishining o'ziga xosligi V.K.Vorobyova, V.K.Orfinskaya, A.V.Yastrebova, N.A.Nikashina, G.V.Chirkina, YE.F.Sobotovich, V.A.Kovshikov, L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova va X.M.Po'latovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keng

yoritilgan [29, 107, 163, 103, 152, 129, 58, 98, 117]. Mazkur ishlarda nutqning talaffuz tomoni, lug'at boyligi, grammatik tuzilishi, mantiqiy va tovush tomonlarini o'zlashtirish yuzasidan ko'rsatmalar, tavsiyalar berilgan. Bolalardagi nutq kamchiliklarini va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish masalasining dolzarbligi shundaki, korreksiya qilinmay qolgan nutqiy kamchiliklar bolalarning rivojlanishiga, o'zaro munosabatlariga va ularning aqliy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rus, ukrain, gruzin, qirg'iz, qozoq, eston, litva olimlari tomonidan o'quvchilarda yozma nutq kamchiliklari va ularning sababi aniqlanib, korreksion-logopedik ishlar tizimi ishlab chiqilgan. O'zbekistonda boshlang'ich o'quvchilarda yozuv kamchiliklarini o'rganish bo'yicha p.f.n. dots Z.M.Axmedova tomonidan «Umumta'lim maktablari o'quvchilarida disgrafiyani bartaraf etishda logopedik ish tizimi(2-4 sinflar misolida)» mavzusida ilmiy ish olib borilgan.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning ona tilidan ta'lim standartini o'zlashtirish yo'lida turgan jiddiy to'siqlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'qish va yozish malakalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- bilimlarni muvaffaqiyatli egallashga bo'lgan asoslarning zaifligi;
- bolada individual psixik (ruhiy) chekinishlarning mavjudligi;
- zaiflashgan somatik sog'liq.

Fan bo'yicha muntazam orqada qolish bilan bog'liq bolaning ruhiy kechinmalari, navbatdagi nazorat ishi yoki diktant uchun qoniqarsiz baho olishdan qo'rqish, depressiyalarga, o'qishning zaiflashishiga olib keladi, o'quvchida ta'lim jarayonining faol qatnashchisi bo'lish ishtiyoqini so'ndiradi.

Bularning barchasi bir zanjirning halqalari bo'lib, muayyan rag'batlantiruvchi asoslar, har bir ta'lim oluvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta'lim

texnologiyalarining joriy qilinishi ushbu kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.

Savodli o'quvchi boshqa o'quv fanlarini ham kengroq, chuqurroq, ildamroq egallaydi, atrofimizdagi olam haqida bilimlari kengayadi, bu esa o'quvchining ruhiy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Aksincha, yozma nutqida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning o'quv malakalarini egallay olmasliklari ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Ma'lumki, bola nutqni ijtimoiy va biologik omillar asosida egallaydi. Aynishu omillarning buzilishi yoki yetishmay qolishi nutq buzilishiga olib keladi. U yoki bu darajada nutqi buzilgan bola tevarak-atrofdagi voqealarni sust qabul qiladi.

Rus olimlari nutq kamchiliklari muammosini har tomonlama tadqiq etdilar: psixologik-pedagogik jihatlarini R.YE.Levina psixologik-lingvistik jihatlarini V.K.Orfinskaya, YE.F.Sobotovich, V.A.Kovshikov tibbiy pedagogik jihatlarini S.S.Lyapidevskiy, YE.M.Mastyukova tomonidan o'rganildi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bola shaxsining rivojlanish jarayonida lug'at boyligini rivojlantirish, so'zning ma'nosi va mazmunini idrok etish, nutqning leksik tomonining shakllanishi bola bilish jarayonining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Chunki so'z nafaqat muomala va shaxslararo munosabat vositasi, balki shaxs, tafakkur rivojlanishning negizidir.

Yozma nutqida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarga o'z vaqtida logopedik yordam ko'rsatilmasa, ularning yozuvidagi xatolar (bo'g'inlarni tashlab ketish, so'zlarni qo'shib yozish, eshitilishi jihatidan o'xshash harflarni almashtirish) yuqori sinflarda ham saqlanib qoladi. Bularning barchasi kamchilikni barvaqt aniqlash va korreksion logopedik ishlarni o'z vaqtida olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Maktabda ona tilini o'qitishning muhim muammolaridan biri o'quvchilarning xatosiz yozish malakasini shakllantirishdan iboratdir. Bu esa yozma nutq shakllanishining moddiy asosini

tashkil etadi. Usiz maktabdagi o'quv jarayoni muvaffaqiyatli kechishi mumkin emas.

Ba'zi mualliflaryozuvdagi fonetik xatolarning sabablarini analizatorlar faoliyatining buzilishi, bilish faoliyati darajasining pasayishida deb ko'rsatishadi. Buning natijasida eshitish va kinestetik analizatorlar buziladi. Aynan shu omillar mualliflarning fikriga ko'ra yozuvning fonetik tizimida to'g'ri yozish asosi bo'lgan so'zni fonematik tahlil qilishga salbiy ta'sir qiladi. Agar bola yozuvda harflarni aralashtirib yuborish bilan birga talaffuzda ularga mos keladigan tovushlarni ham ajrata olmasa (differentsiatsiya qilmasa) bu qo'pol nutq buzilishlariga olib keladi. Chunki eshitish kinestetik analizatorlarning yetishmovchiligi eng avvalo talaffuz holatida aks etadi.

Nutqni o'zlashtirishda bolaning eshitish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyati ikkiga bo'lib o'rganiladi: fiziologik eshitish va fonematik eshitish. Fiziologik eshitish - nutqdan tashqaridagi barcha tovushlarni eshita olish, ma'lum bo'g'in va so'z ichidan aniqlay olish, bir-biridan ularni sifat belgilariga (unli, undosh, jarangli, jarangsiz) ko'ra farqlay olishdir. A.R. Luriya nutq tovushlari va fonemalar tilning fonematik tuzilishiga bog'langanda tashkil topgan bo'lib, bu nutq tovushlarini bir-biridan farqlash uchun, ularni shu tizimga mos ravishda kodlashtirish, ya'ni fonematik belgilarni haqqoniy bo'lmagan variantlardan ajrata olish kerak degan fikrni ilgari surgan.

L.K.Nazarovanning fikricha, fonematik tasavvurlar bolada fonemalarning turli variantlarini kuzatishi natijasida shakllanadi. Bunda har bir nutq tovushining turli xil talaffuz variantlarini yagona tovushga birlashtira olish ko'nikmasi ko'zda tutiladi. Muallif bu ko'nikmalarni so'zning tovush tahlilini shakllantirishda asos deb hisoblaydi.

L.K.Nazarova va V.G.Ananyev fonematik tasavvur deganda, nutq jarayonida ifodalangan fonemalarni farqlay olish qobiliyatini tushunadilar.


M.Y. Ayupova, L.R. Mo'minova eshituvni perseptiv funktsiya deb, faqat nutq tovushlarini idrok etishni nazarda tutadi, qolgan qobiliyatlar tovushlarni farqlash, ularni tovush guruhchalariga birlashtirish, tovush tahlili ko'nikmasi rivojlangan fonematik eshituv oqibati bo'lib, maqsadga qaratilgan talim jarayonida shakllanadi degan fikrni ilgari suradilar.

Nutq buzilishlarini o'rganish bo'yicha korreksion - logopedik ishlarni tashkil etishda ona tilining o'ziga xosligini inobatga olish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida nutqning fonetik-fonematik rivojlanmaganligi va yozma nutqda kamchiliklari bo'lgan o'quvchilarni o'rganish bo'yicha maxsus adabiyotlar va metodik tavsiyanomalarning yetishmasligi, o'quvchilar bilan o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda korreksion ishlarni olib borish orqali yozma nutqdagi buzilishlarni bartaraf etishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish o'zbek defektologiyasi oldidagi dolzarb muammolardandir.

Har bir bola alohida rivojlanish xususiyatiga ega. O'qish va yozuvda kamchiligi bo'lgan o'quvchilar umumiy tekshirilganda, ularning ko'pchiligida nerv sistemasining buzilishikuzatilgan. Keyingi yillarda asab kasalligi bilan tug'ilyotgan bolalar soni ko'payib bormoqda.


Nevrologik simptomlarga quyidagilarni kiritish mumkin:



Shuni inobatga olish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan belgilar rivojlanishning meyoridan chetlashuviga to'liq sabab bo'lmaydi. Bunday belgilar miyaning sust rivojlanishi sifatida ma'lum. Bu belgilar bola ta'lim olishni boshlaganda, uning nerv sistemasiga katta hajmda yuklama tushganda namoyon bo'ladi.


Yozma nutqni egallash nutq-eshituv, nutq-harakat, umumiy harakat analizatorlari hamda fazoviy qabul qilish, ko'rish xotirasi kabi psixik funksiyalar bilan bog'liq. Odatda ushbu funksiyalarning o'zaro bog'lanishi 7 yoshga kelib shakllanadi.

Maktab dasturini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar sababini bilish, aniqlash, farqlash uchun bolaning maktabga tayyorligi nimalardan iborat ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lish kerak. Tibbiyot va psixolog olimlar quyidagi tayyorgarlik darajalarini ko'rsatadilar:



1. **Bolaning jismonan tayyorligi:** vazni, bo'yi, jismonan baquvvatligi, muskullar tonusi, ko'rish, eshitish, umumiy harakat, ayniqsa mayda qo'l motorikasi, ya'ni barmoqlar harakati (qalam - ruchkalarni to'g'ri ushlab uchun) bilan ko'rishning bog'liqligi, nerv sistemasi

holati, qo'zg'aluvchanlik va tormozlanishning meyoridagi, diqqatni jamlay olishi, aqliy ish faoliyatining meyorida rivojlanganligi;




1. Intellektual tayyorligi: lug'at boyligining kengligi, bilish jarayonlarning rivojlanish darajasi (diqqati, xotirasi, ko'rish-fazoviy qabul qilish, tasavvuri, nutqi), berilgan vazifani mustaqil bajarib olishi, bajaradigan ishni

rejalashtira olishi, vazifani talab darajasida bajarishi hamda o'z kamchiliklarini topa bilishi;

Ijtimoiy-shaxsiy tayyorligi: o'z xatti-harakatini boshqara olishi, o'z oldiga qo'ygan maqsad va kattalar talabini bajarishga

intilishi, ijtimoiy holatni, nima uchun o'qish kerakligini tushuna bilishi;



Emotsional-irodaviy tayyorligi: bolaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun o'zini tayyorlab borishi, maqsadga yetish uchun harakat qilishi, to'siqlarni yenga olishi, faoliyat davomida yutuq va kamchiliklarga to'g'ri munosabatda bo'lishi, kamchilik va mag'lubiyatlardan tushkunlikka tushmasligi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar meyorida bo'lgan bolalar maktabga qabul qilinganda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Maktab hayotiga tez moslashadilar, ma'lum qiyinchiliklarga duch kelganda ham ularni oson hal qiladilar.

Logopediya fanida yozma nutq buzilishi «disgrafiya» atamasi bilan belgilanib, yozuv jarayonining qisman buzilishidir. Yozuv jarayonining umuman buzilishi «agrafiya» deyiladi.

M.YE.Xvatsev, R.YE.Levina, R.I.Lalayeva, L.F.Sadovnikova disgrafiyaani 5 turga bo'ladilar:



1. **Artikulyator-akustik disgrafiya.**

Bola tovushlarni qanday talaffuz etsa, shunday yozadi. Artikulyator-akustik disgrafiyaaning asosida noto'g'ri talaffuz etish yotadi. Disgrafiyaning bu turida harflarni almashtirish, tashlab ketish, talaffuzi jihatidan

o'xshash tovushlarni yozuvda noto'g'ri yozish hollari kuzatiladi.

2. **Akustik disgrafiya.** Bu tovushlarni farqlashning buzilishi asosida kelib chiqadigan disgrafiya. Fonematik, yani talaffuzi jihatidan yaqin tovushlarni yozuvda almashtirish kuzatiladi.

Bunday holatlarda og'zaki nutqda tovushlar to'g'ri talaffuz etiladi. Ko'p





hollarda tovushlarni bildiruvchi harflar almashtiriladi: sirg'aluvchi va shovqinli, jarangli va jarangsiz, affrikat tovushlar va ular tarkibiga kiradigan komponentlar (ch-t, ch-sh, sh-c). To'g'ri yozish uchun fonemalarni o'zlashtirish va farqlash bo'yicha barcha operatsiyalar (eshitish, idrok etish, tahlil qilish va umumlashtirish) yetarlicha shakllangan bo'lishi zarur. Ma'lum bir analizatorlarning (eshitish, kinestetiktahlil, mayda qo'l motorikasi) buzilishi yozuvda harflarni ajrata olmaslikka olib keladi.

*Langmuir*  
*Слова*  
*Вот*  
*демократия*  
*и в*  
*вот*

**3. Analiz va sintezning (tahlil umumlashtirishning) turli**

**shakldagi buzilishi natijasida kelib chiqqan disgrafiya.** Disgrafiyaning bu turida analiz va sintezning turli xil buzilishlari yotadi: yani gaplarni


so'zlarga bo'lish, bo'g'in va tovushlarnitahlil qilishdagi kamchiliklar kuzatiladi. Tiltahlili murakkab shakli fonematik tahlil hisoblanadi. Disgrafiyaning bu turida so'z tarkibining tovush-harf buzilishi ko'p kuzatiladi. Quyidagi xatolar ushbu disgrafiya uchun xosdir: ketma-ket kelgan undoshlarda bitta undoshni tushirib qoldirish (maktab-matab); unilarni tushirib qoldirish (uzum-uzm); harflarning o'rnini almashtirish (olma-omla); bo'g'inlarni tashlab ketish (jo'xori-jo'ri). Gaplarni so'zlarga ajratib yozishda quyidagi xatolar kuzatiladi: so'zlarni qo'shib yozish (kuz keldi-kuzkeldi); so'zda o'zak va qo'shimchalarni alohida yozish (yoshlar-yosh-lar).

*2 класс*  
*Школа*  
*Иван*  
*демократия*  
*и в*  
*вот*

**4. Agrammatik disgrafiya.**

Agrammatik disgrafiya nutqning grammatik qurilishidagi buzilishlarni bildiradi. Bunda morfologik, sintaktik umumlashtirishlarda yozma nutq buzilishlari kuzatiladi va ular agrammatizmlar deb ataladi. Bu turdagi disgrafiya xatolar so'z

darajasida, gaplarda, lug'at va grammatik buzilishlarda kuzatiladi. Ushbu disgrafiya dizartriya, alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarda uchraydi. O'quvchilarning bog'langan yozma nutqida matn mazmunidagi ketma-ketlik bilan yozuvdagi ketma-ketlik buzilgan bo'ladi. Yozuvda agrammatizmlar quyidagi holatlarda kuzatiladi: kelishik qo'shimchalarini o'zgartirish (mening kitobim - "meni kitobim"), so'zda qo'shimchalarni noto'g'ri ishlatish (stol ustida turibdi - "stol ustiga turibdi"), ko'plik qo'shimchalarini noto'g'ri ishlatish (bolalar - "biz bola"), gapda so'zlarning ketma-ketligining buzilishi (bolalar bog'da sayr qildilar - "bolalar sayr bog'da qildilar").



**5. Optik disgrafiya** ko'rish gnozisi, analiz va sintezning rivojlanmaganligi, fazoviy tasavvurlarning yetishmasligi hamda yozuvda harflarni buzib va almashtirib yozishda namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda yozma harfdagi grafik jihatidan o'xshash harflar

almashtiriladi (b-d, g-g', m-n, sh-ch) harflarni oynali yozish. (o-o y-v), harflarni qo'shib yozishda elementlarni tashlab ketish (ay-aj; mi-ni), qo'shimcha elementlarni yozish. Optik disgrafiya oynali yozish ham kuzatiladi. Oynali yozish chapaqaylarda, shuningdek, miyaning organik buzilishlari paytida kuzatiladi.

Nutq kamchiligi tuzilmasida yozuvda kamchiliklari bo'lgan o'quvchilarning aqliy xatti-harakatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini amalda qo'llash yuzasidan quyidagixulosalarga kelish mumkin:

1. Tilga oid bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashqi predmetli xatti-harakatlarni ichki, aqliy, psixik xatti-harakatlarga bosqichma-bosqich aylantirish jarayoni sifatida boshqarish lozim, xatti-harakatlar esa har qanday faoliyatning

asosiy elementlaridir.

2. Ta'lim olayotgan shaxsning tashqi xatti-harakatlari uning o'qish faoliyatining elementlari sifatida shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchi uchun o'z-o'zini nazorat qilishda ham, o'qituvchi (logoped) uchun jarayonni nazorat qilish va boshqarishda (monitoring tashkil etishda) ham ularni qadamba-qadam, bosqichma-bosqich kuzatib borish imkonini bersin.

3. Korreksion ta'lim jarayonida til sohasidagi bilimlar o'quvchi tomonidan uning o'z faoliyati tufayli o'zlashtiriladi. Bunda so'z borayotgan faoliyat pedagog tomonidan shunday tashkil etilishi va boshqarilishi kerakki, o'quvchi o'ziga barcha xatti-harakatlarni to'g'ri amalga oshirish va bir paytning o'zida o'zining har bir xatti-harakatini yo'l-yo'riq ko'rsatadigan dastur bilan solishtirgan holda nazorat qilishga imkon beradigan aniq tushunchaga ega bo'lsin. Har qanday ta'limning, shu jumladan, korreksion ta'limning maqsadi muayyan faoliyatni o'rganish bo'lmog'i lozim.

Bilimlar esa mana shu maqsadga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bizning misolimizda bu maqsad orfografik jihatdan savodli yozish malakasini egallashdan iborat bo'lib, tegishli qoidalarni bilish esa bu maqsadga erishish vositasidir. **yozuv bir qator maxsus operatsiyalarni o'z ichiga oladi.**

1. Yozilishi lozim bo'lgan so'zning tovush tuzilishini tahlil qilish. Bunda dastlabki shart – tovushlar ketma-ketligini aniqlash, ikkinchisi – tovushlarni aniqlashtirish, ya'ni eshitilayotgan tovush variantlarini aniq umumlashtirilgan nutq tovushlari – fonemalarga aylantirish. Ushbu akustik tahlil va umumlashtirish operatsiyalari artikulyatsiya yordamida kechadi.

2. Fonemalar–eshitilayotgan tovushlarni grafemalar–yozuv belgilariga o'tkazish. Bunda grafemalar elementlarining fazoviy joylashuvi hisobga olinadi.

3. Ko'rish sxemalarini yozish uchun zarur bo'lgan izchil

xatti-harakatlar kinetik tizimiga "qayta shifrlash".

Yuqorida sanab o'tilgan operatsiyalar orfografiyaning fonetik tamoyilining amalga oshirilishiga taalluqlidir.

Ma'lumki, orfografik qoidalarda so'zlarning fonetik, grammatik va leksik belgilari umumlashtiriladi. Orfogramma xususiyatini hisobga olgan holda orfografik malakalar quyidagicha tasniflanadi:

a) so'z hosil qilish asosida shakllanadigan malakalar (so'z o'zaktari, qo'shimchalar);

b) morfologik-sintaktik asosda shakllanadigan malakalar (qo'shimchalar imlosi).

Har ikki holda ham to'g'ri yozishni o'zlashtirishda fonetik, leksik va grammatik bilimlar, ko'nikmalar o'rtasida yaqin aloqa bo'lishi zarur. Shuni ham ta'kidlash lozimki, bu borada bilimlarning o'zi yetarli emas, balki muayyan til masalasini hal qilishda bir sohadagi bilimlarning kerakli miqdorini boshqa sohadagi tasavvurlar bilan bog'lay olish qobiliyati ham muhimdir.

Shunday qilib, orfografik ko'nikma (malaka) ko'plab mashqlar jarayonidashakllanadiganhamda oddiy ko'nikmalarga asoslangan murakkab nutqiy malaka sifatida ishlab chiqilishi lozim. Oddiy ko'nikmalar deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

-harflarni fikrni jamlamay, avtomatik tarzda yozish;

- so'zni fonetik jihatdan tahlil qila olish (maqsadga yo'naltirilgan tovush-harf va bo'g'in tahlili);

- so'zning morfem tarkibini aniqlab, undan orfogrammani (ya'ni tekshirishni yoki lug'atga murojaat qilishni) ajratib ola bilish;

-orfogrammaga tegishli qoidani topa bilish.

Orfografik qoidalarni qo'llashda o'quvchi amalga oshiradigan aqliy faoliyatning ketma-ketligi nuqtai nazaridan orfogrammaning barcha belgilari uchta guruhga bo'linadi:

a) aniqlash belgilari. Unga ko'ra o'quvchi kerakli orfogrammani ajratib oladi;

b) saylanma belgilar. Ularni aniqlab olgach, o'quvchi ushbu holatga qanday orfografik qoida to'g'ri kelishini aniqlaydi;


v) yakuniy belgilar. Ularning yordamida o'quvchi tegishli orfografik qoidani berilgan so'zga tatbiq etadi.

O'quvchilarning ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrlilik standart mezon orqali aks ettiriladi:

a) o'qish texnikasi;

b) o'zgarlar fikrini va matn mazmunini anglash;

v) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.



4. Ma'lumki, yozma nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishning muvaffaqiyati bola yozuvi va boshqa funksiyalari qanchalik to'liq tekshirib chiqilganiga, tekshirish paytida olingan ma'lumotlar qanchalik malakalisharhlanganiga bog'liq. Og'zaki - nutqiy tayyorlik o'quvchilarning tovush talaffuzlari, lug'ati va nutqining grammatik tuzilishi, shuningdek, o'qish va yozish jarayonlarini tekshirish bayonnomalardan iborat

nutq kartalar bo'yicha o'rganildi. O'quvchilarning logopedik tekshiruvchi A.V.Yastrebova, O.V.Gribova, L.R.Mo'minovalarning umumiy o'rta ta'lim va maxsus maktablarda keng qo'llanadigan metodikalari asosida olib borildi. Nutq kartalarida esa har bir bola nutqiga oid xulosalar o'z aksini topdi. Orfografiyani va umuman yozuvni o'zlashtirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarning sababi xotira va diqqat ko'rsatkichlarining pastligidadir. Optik-fazoviy gnozis va praksisni tekshirishda Xed sinovlari va fazoviy tasavvurlarning rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan vazifalardan foydalanildi.

Fazoviy gnozis va praksisning rivojlanish darajasini baholash uchun yo'l qo'yilgan xatolar miqdorini sanab chiqish va sinovlarning bajarilish sifatini hisobga olish lozim.

Faoliyat turi bo'lgan savodli yozuv funksional bazisining yana bir tarkibiy qismi bu eshitish-motorika koordinatsiyasidir (tovush motorikalarini qaytadan tiklash qobiliyati). Motorikaik ketma-ketlikni qaytadan tiklay olmaslik yoki noto'g'ri tiklash orfografik yozuvdagi buzilishlarga moyillikning belgisi hisoblanadi. Bu ko'proq unli tovushlarni to'g'ri yozishda namoyon bo'ladi.

Eshitish-motor koordinatsiyalari darajasini aniqlashda Ozeretskiy metodikasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

#### O'quvchiga beriladigan vazifalar:

1) berilgan motorikaik namunani qaytarish;

2) ketma-ket eshittirilgan 2 ta zarblarni qiyoslash.

Agar bola birinchi vazifani eplay olmasa-yu, ikkinchisini to'g'ri bajarsa, bu hol uning eshitish qobiliyati saqlangan holda motorikani qayta tiklash jarayonining o'zi buzilganidan darak beradi (premotor buzilish turi).

Agar bola ikkala vazifani ham bajara olmagan bo'lsa, bu holda unda, chakka buzilish turi, ya'ni motorikalarni eshitib farqlamaslik kuzatiladi.

O'quvchilarning orfografik yozuvni o'zlashtirishda operatsional tayyorligi ikki omilga ko'ra o'rganildi: "fonetik yozuv" va "morfologik yozuv". Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shakllangan fonetik yozuv orfografik ko'nikmalarni egallashda asosiy shart-sharoit yaratib beruvchi vosita hisoblanadi.

Orfografik qoidalarni bilishga emas, balki so'zlar qanday jaranglasa, ularni yozuvda xuddi shunday ifodalanishiga asoslangan fonetik tamoyilni o'zlashtirish uchun ham bir qator shart-sharoitlarning bo'lishi talab qilinadi. Ularning asosiysi so'zlarning tovush-harf tahlilini olib borishning mustahkamlangan malakasiga ega bo'lishdir. Bu malakaning yo'qligi yoki yetarli darajada shakllanmaganligi disgrafik xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buni A.R.Luriya va M.YE.Xvatsevham ko'rsatib o'tgan edilar.

So'zlarni ona tili orfografiyasining fonetik tamoyillariga muvofiq yozish sifati o'quvchilarning fonetik-fonematik ko'nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Garchi yuqorida aytib o'tilgan holatlar rus tili grammatikasiga asoslangan bo'lsa-da, biroq tajriba shuni ko'rsatdiki, ushbu disgrafik xatolar o'zbek tili orfografiyasiga ham xos bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarning orfografik ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida ko'p kuzatiladi.


"Fonetik yozuv" omili bo'yicha operatsional tayyorlikni aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tekshiruv diktanti o'quvchilarga dasturda ko'zda tutilgan talablarga muvofiq yozdirildi.

### Tekshiruv diktanti:


Maqsad: orfografiyaning fonetik tamoyiliga mos holda o'quvchilarning so'zlarni eshitib yozish malakalarini aniqlash.

Diktant avvaldan tayyorgarliksiz, aniq artikulyatsiya mashqlarisiz, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy murakkabliklar tahlil qilinmay turib o'tkazildi. Har bir o'quvchi diktant matnini to'liq hajmda yozib olish imkoniga ega bo'lishi uchun matn sal sekinroq sur'atlarda o'qildi. Bilimlar darslarda

o'tilgan va ishlangan materiallarga nisbatangina tekshirildi. Har bir o'quvchining umumiy tayyorlik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha olinandi:




Bu borada diktantlarda aniqlangan quyidagi xatolar eng ko'p tarqalgandir.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining orfografik ko'nikmalarni o'zlashtirishda "morfologik yozuv" omili bo'yicha operatsional tayyorligini o'rganishda tilga oid materialni amalda qo'llashga oid bilimlar va malakalarni tasniflash, umumlashtirish, ona tili kursi bo'yicha nazariy materialni o'zlashtirish jarayoni operatsional tayyorlik tarkibiga kiradi. Tashxislash kuzatuvchi eksperiment mazmuniga qat'iy mos holdahar bir o'quvchi uchun individual tarzda olib borildi.

Boshlang'ich sinfda turg'un disgrafiyaga ega bo'lmagan o'quvchilarida fonetik-grafik xatolar kuzatilmaganiga qaramay, orfografik ko'nikmalar shakllanishida va ulardan amalda foydalanishda qiyinchiliklar kuzatildi.



O'quvchilarda disgrafiyaaning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Kognitiv-amaliy funksiyalarni shakllantirish. Kognitiv funksiyalar korreksiyasi va ularning muvofiq lashtirilishi (ko'rish gnozisi, tahlil, optik-fazoviy gnozisi va praksis, nutqiy-ko'rish, nutqni idrok etish va qayta tiklash funksiyalari, ko'rish va eshitish xotirasini rivojlantirish).

2. Nutqni sensor-perseptiv darajada idrok etishni, eshitib

idrok etishni rivojlantirish. Fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan ish qachon olib borilishi kerak? Bunday ish bola talaffuzida buzilishlar va tovush almashtirishlar kuzatilganda olib boriladi. Bunday hollarda logopedik ish avvalambor nutqni idrok etishda sensor-perseptiv darajani rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. Til tahlili. Kuzatuvchi eksperiment natijalarini hisobga olgan holda gapdagi so'zlar tahlili va sintezi, bo'g'inlar tahlili va sintezi, fonematik tahlil va sintezini shakllantirish zarurligi haqida xulosa qilish mumkin. Bu ish ham bosqichma-bosqich olib borilishi kerak.

4. Grammatik tuzilishdagi buzilishlarni korreksiyalash. Bu ishning mundarijasini ham nutqida kamchiligi bo'lgan o'quvchilar yozma nutqining grammatik tuzilishiga oid tajriba-sinov ishlari davomida olingan ma'lumotlar belgilaydi. So'z o'zgarishi paradigmatic tizimining rivojlanishi quyidagilarni ko'zda tutadi: so'zning grammatik ma'nosini aniqlash; grammatik ma'noning morfema vositasida shakllantirilishi; eshitish va kinestetik obrazlar, so'z shakllarining morfologik tarkibini faollashtirish.

5. Lug'atni rivojlantirish. Korreksion-logopedik ta'sir ko'rsatish jarayoni bu o'rinda o'quvchilarning so'z ma'nolarini tushunish qobiliyatini takomillashtirish, so'z ma'nolarini aniqlashtirish, so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nolari to'g'risida turli tasavvurlarni shakllantirish, so'zning leksik tuzilishini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

6. Orfografik qoidalarni qo'llash jarayonida shakllantirilgan psixologik shart-sharoitlar integratsiyasi: u orfografik xatti-harakatlar algomotorik asosida tuzilishi ko'zda tutiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi tekshirish ishlari olib boriladi:

Berilgan namuna asosida ko'chirish

- Bunda bolaning qo'l barmoqlar harakatining nozik tomonlari, harflarning yozish malakasa aniqlanadi



Diktant yozish orqali yozuv malakasini tekshirish.

- Bunda tovush va harflarni qay darajada bilishni o'rganish, tovush va harflarni bir biriga bog'liqligi aniqlash, yozuv orqali harfni bo'g'inga, bo'g'inni so'zga, so'zni jumlagi bog'lashni aniqlash.




Mustaqil yozuvni tekshirish

- Bunda nutq tuzulishi rivojlantirish, matnning umumiy ma'nosini ochib berishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq kamchiliklarini tekshirishda ona tili fani talab qilinadigan qonun qoidalar inoabtga olinadi. Tekshirish ishlari bosqichma bosqich olib boriladi. Bolalardagi yozuv kamliklarini tekshirishda bolaning bilish darajalari inobatga olinadi. Agar bola diktant yozishni bilsa u holda logoped diktant yozish orqali yozuv kamchiliklari aniqlanadi. Diktant yozish malakasiga ega bo'lmasa, unda harf, bo'g'in, so'z va gaplarni yozdirish orqali tekshirish mumkin bo'ladi.

## ZONDLAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

### *Rinolaliya nutq kamchiligida tovushlar kamchiligini zondsiz postanovka qilish texnologiyasi*



Rinolaliyada tovushlarni korreksiyalashda foydalaniladigan usul vosita va mashqlar individual yondoshilgan holda tanlanadi. Biroq qo'pol organik nuqsonlar to'g'ri artikulyatsiyaga erishishni qiyinlashtiradi. Labdagi chandiqlar, uning harakatini cheklaydi, ochiq prikus, progeniya,

prognatiya, ortodontik apparatni uzoq vaqt toliqishi lab va til oldi tovushlarini nutqqa qo'yishni bir oz qiyinlashtiradi.

«P» tovushini bir necha usulda nutqqa qo'yish mumkin:

- Bolaga yo'naltirilgan havo oqimi chiqarish vaqtida lablarini bir-biriga urish taklif qilinadi, bunda shivirlagan pa-pa-pa bo'g'ini hosil bo'ladi. Lablarni hullash bu mashqlarni bir oz yengillashtiradi.

- Bolaga lunjlarini shishirish taklif etiladi va ikkala kafti bilan shu vaqt o'zida lunjlariga uriladi. Og'izdan tishlarni orasidan partillab havo oqimi chiqadi. Keyincha bu harakatlar og'iz bo'shlig'idagi hovoning hajmini kamaytirib qo'llarning ishtirokisiz bajariladi. Bunda bola lablari bilan «tuflaganiga» o'xshagan harakat qiladi va «p» tovushi hosil bo'ladi.

- Burun qanotlari barmoqlar yordamida qisiladi (havoning burun orqali chiqib ketmasligi uchun) va ikkinchi usul amalga oshiriladi. Keyinchalik bu mashq burun qanotlari qisilmasdan amalga oshiriladi.

Birinchi usul orqali hosil qilingan «p» tovushi, (ikkita qolgan usullardan farqli ravishda) tovush talaffuzidan so'ng, boshqa tovush ta-laffuziga o'tish oson kechadi.

Tadqiqotchilarni aytishicha, rinolaliyada «t» tovushi talaffuzida ovozni erkin chiqishi kuzatiladi. «T» tovushini hosil qilish uchun lablarni kulgi holatiga keltirib, til uchini tishlar orasidan bir oz tashqariga chiqarib «tuflash»ga o'xshash harakat qilish kerak.

Yangi fonemalarni nutqda bor bo'lgan tovushlardan hosil qilish maqsadga muvofiq, chunki bunda tovush hosil bo'lishi zo'riqishsiz kechadi va bo'g'in, so'zlarda oson mustahkamlandi,

Rinolaliyada «k» tovushi umuman bo'lmaydi, yoki boshqa tovush bilan almashtiriladi. «K» tovushi asosan ta-ta-ta bo'g'inlari talaffuz qilish bilan bir vaqtda til uchi shpatel yordamida bosilib bir oz ichkariga itariladi. Bunda til orqaga surilgan sari «ta» bo'g'ini avval -tya, so'ng -kya va nihoyat -ka bo'g'iniga aylanadi. Keyinchalik mexanik yordamdan butunlay

voz kechadi.

Tug'ma tanglay yoriqliklarida frikativ tovushlar ko'p hollarda faringial usul orqali shakllantiriladi. Bunda og'iz orqali chiqarilayotgan yo'naltirilgan havo oqimi alohida o'rin tutadi. Biroq burun orqali havo chiqishi hollarida hali tovushlarni korreksiyalash mumkin, lekin bunda tovush kuchsiz chiqadi.

*A.B.Ippalitova* (1955) fikricha, frikativ undoshlardan «f» tovushini nutqga qo'yish oson kechadi. Buning uchun bemor instruksiya asosida yoki mexanik usul yordamida pastki labni tepa tishlarga yaqinlashtiradi va unga puflaydi.

«S» tovushi odatda an'anaviy usullar yordamida korreksiyalanadi. Bunda bemor paxtaga puflash, til uchiga puflashga o'rgatiladi.

Sirg'aluvchi tovushlarni to'g'rilashdagi qiyinchiliklar ularningmurakkab artikulyatsiya holatiga bog'liq. Tishlarning bir-biriga yaqinlashuvi quruv nazarotini qiyinlashtiradi. Sirg'aluvchilarning artikulyatsiyasining barcha tarkibiy qismini alohida-alohida o'rgatish kerak (lab, til holatlari, havo oqimining yo'nalishi va x.k.),

«SH» tovushini nutqga qo'yishda tilni «kosacha» shaklida tepaga ko'tarishiga o'rgatishga uzoq vaqt ketadi. Shuningdek tilni og'iz ichida «kosacha» shakli keltirish bilan bir vaqtda havo oqimini tepaga yo'naltirish qiyinchilik bilan kechadi. Bolalar havo oqimini tepaga yo'naltirish o'rniga ko'pincha burun orqali nafas chiqaradilar.

Agarbolataqlid orqali «sh» tovushini quyi artikulyatsiyasiga erishsa, unda bu tovush nutqga kiritiladi va mustahkamlanadi.

«X» tovushi odatda qiyinchiliksiz nutqga qo'yiladi. Bunda «x» tovushi chuqur nafas chiqarishda stimulyatsiya qilinadi yoki «k» tovushini uzoq, cho'ziq talaffuz qilish natijasida yuzaga keladi.

«j» tovushi «i» unlisini birikishi natijasida yuzaga keladi. Masalan «yana» so'zi o'rniga «iana» va x.k. Rinolaliyada bu fonemaning yo'qligi 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda

kuzatiladi.

Rinolaliyada «ya» tovushi ko'pchilik hollarida saqlangan bo'ladi. Bu tovushning nutqda yo'qligi yoki boshqa bir tovush bilan almashtirilsa, unda «a» unlisidan hosil qilish mumkin. «A» unlisini talaffuz qilinadi va shu zaxotiyek tilning keng uchi yengilgina tishlanadi. Shunda aniq «ya» hosil bo'ladi.

Vibratsion «r» tovushini nutqga qo'yish juda qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Bunday holda yo'naltirilgan havo oqimi yetarli kuchga ega bo'lmay, til uchida vibratsiya hosil qila olmaydi. Bunda havo oqimining kuchi tanglay pardasining uzunligi va avtomatlashtirish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Burun qanotlari qisilgan holda havo oqimning burun bo'shlig'iga o'tishi til uchida vibratsiya hosil bo'lishiga imkon yaratishi mumkin. Yumshoq tanglay harakatning kordinatsialanmagan seklinlashuvi nutq jarayonida titravchi «r» tovushini talaffuz qilishga yo'l qo'ymaydi (tovushni alohida talaffuzi erishganida ham).

Bunday holda bir urinishli yoki takroriy tovushga o'rgatiladi va u nutqga kiritiladi. «R» tovushni korreksiyasi an'anaviy usullarga ko'ra, «z» va «j» tovushidan hosil qilinadi.

Rinolaliyada «m» va «n» tovushini buzilishi ham kuzatiladi. Bu buzi-lishini ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

Vokalizatsiya bilan almashtiriladi yoki operatsiyadan so'ng burunli ohangini yo'qotib, bolani bu tovushni to'liq og'iz rezonanida talaffuz etadi.

Buning uchun bolaga lablarini birlashtirib, tishlarini bir oz bir-biridan uzoqlashtirib «a» tovushini uzoq vaqt cho'zib talaffuz qilish buyuriladi. Bu yo'l bilan «m» tovushi nutqga qo'yilgach, shu tovushni tilni tishning orasida qisib talaffuz qilish buyuriladi. Bunda aniq «m» tovushi eshitiladi.

Rinolaliyada odatda tovushning talaffuzini to'g'rilash jarangsiz undoshdan boshlanadi. Ovozsi ishlash ko'p holda tovushni tayyorlash va stimulyatsiya qilish, uni nomini aytmay turib, tovush talaffuzida uchraydigan patalogik ta'sirdan

qutilish imkonini beradi.

«B», «v», «g», «d», «j» tovushini nutqga qo'yish «a» unlisi orqali amalga oshiriladi. «A» unlisi jarangli undosh fonamalarni hosil qilishda foydalaniladi, chunki katta ochilgan og'iz o'zini kuzatish uchun qulay va bo'shashgan lab muskullari artikulyatsiyaga xalaqit bermaydi. «D» tovushini talaffuz qilishda, tashqariga chiqarilgan tilga tepa tishni tekizish tavsiya etiladi.

«J» tovushi ustida ish olib borilganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- Bola «a» tovushini cho'zish bilan bir vaqtda tilni «kosacha» holatiga keltiriladi;




- Bola «a» tovushini cho'zish bilan bir vaqtda tilni «kosacha» holatiga keltiriladi va tishni bir-biriga yaqinlashtirib, lablarni doira holatiga keltiradi.

«J» tovushni «r» tovushidan hosil qilish ham mumkin.

«G» tovushi mexanik usul yordamida «k» tovushiga o'xshab «d» tovushidan hosil qilinadi.

Sirg'aluvchi «z» tovushi «e» tovushidan hosil qilinadi. Buning uchun «e» tovushi talaffuz qilinadi va shu vaqtning o'zida til tashqariga chiqariladi va tishlar bir-biriga yaqinlashtiriladi.

### **NUTQA TOVUSHLAR POSTANOVKASI UCHUN ISHLATILADIGAN ZONDLAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI**



### **NUTQA KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA MASSAJ ZONDLAR BILAN ISHLASH**

#### **Til muskuli massaji**

Mushaklarni tarangligining buzilishi doim katta darajada til mushaklarida aks etadi. Til mushaklarining tarangligi oshishi, tarangligi susayishiga nisbatan ko'p kuzatiladi. Til mushaklarida mushak tarangligining bir me'yorda tarqalmaganligi ham quzatiladi, masalan, taranglik faqatgina ayrim mushak guruhlarida pasaygan bo'lishi mumkin (tilning uddizida, til uchining va xokoza bir qismida)

Til mushaklarining massaji qiyin tuzilishga ega bo'lib, artikulyatsiya jarayonida nozik, aniq harakatlar qilib, qiyin muolaja hisoblanadi. Bundan tashqari, tilda massaj harakatlarini amalga oshirishda qoidaga ko'ra massaj qilinayotgan kishida yoqimsiz hisni tug'diradi. Yana shuni inobatga olish kerakki, til inson tanasining yetarli darajada ko'rinmas qismidir.



Til mushaklarining massaji logopedik aniq harakatlarni, extiyotkorlikniva juda xushmuomalalikni talab qiladi.

Massaj qilish jarayonida quyidagi metodik ko'rsatmalarni hisobga olish talab qilinadi:

-Differensiallangan til til mushaklarining massaji yo rezina qo'lqopda, yo dokali salfetka, yoki sterillangan dastro'mol yordamida qilinadi;

-Tilni massaj qilishda turli vositalardan: zontdan, shpateldan, tish sho'tkasidan va boshqalardan foydalanish mumkin.

-Massaj qoidasi bo'yicha (lekin shart emas), og'izdan tashqarida bo'lgan holatda til massaji qilinadi. Buning uchun logoped tilini quyidagicha tarzda oldinga tortadi; til uchini (salfetka yoki dastro'mol yordamida) shunday tortadiki, bosh barmoq tilning ustki qismida, o'rta va ko'rsatkich barmoq pastda turishi kerak, asta-sekinlik bilan oldinga tortadi. Tilni ushlab olish chap qo'l bilan amalga oshiriladi, masaj harakatlari esa o'ng qo'lda bajariladi.

-Massaj harakatlari 3 yo'nalishda amalga oshiriladi, til mushaklari joylashgan yo'nalishgamos bo'lishi kerak;

-1) Ko'ndalang

-2) Bo'ylama

-3) Yotiq yo'nalishlarda;

-Agar tilni oldinga chiqarishda qandaydir yonga chetlashuvga ega bo'lsa, massaj harakatlarini ko'proq til chetlashuvi tomonida bajarilishi kerak.

### ***Faollashtiruvchi massaj***

Faollashtiruvchi massajni bajarishchog'ida quyidagi xolatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi:

- Faollashtiruvchi massajda harakatlar faol, intensiv va asosan til ildizidan uchiga yo'nalgan bo'ladi;

- Asosan ishqalash va qizdirish usullari qo'llaniladi;


- Qoidaga ko'ra, til mushaklarining tonusi pasayganida qayd

qilish refleks ham pasayadi. Shuning uchun massaj harakatlari bu xolatda xatto ildiz soxasida ham faol bo'lishi mumkin;

- Agar taranglikning pasayganligi tilining biron bir qismida kuzatiladi ( masalan, tilning bir qismida), massaj harakatlari asosan shkastlangan tomonda bajariladi;

- Mushaklarning pasaygantarangligida qoidaga ko'ra, gipersalivasiya (so'lakning ko'p ajralishi) kuzatiladi, shuning uchun massajni bajarishdan oldin va massaj qilish jarayonida logoped bolaga tufugini yutib turishini taklif qiladi.

### ***TIL MASSAJI CHOG'IDA QUYIDAGI MOSLAMALARDAN FOYDALANISH MUMKIN BO'LADI:***



Tashkil qiluvchi zonalar. Ye.V.Novikova taklif qilgan zonalar, shpatellar, tish chyotkalari, shuningdek "Chikko" firmasi ishlab chiqaruvchi bolalarni dastlabki ishlarida ishlatish uchun mo'ljallangan tish chyotkasiga taqlid qiluvchi moslamalar.

Ushbu vositalar yordamida qilingan massaj, qo'l massajini to'ldiradi, lekin o'rnini bosa olmaydi, chunki olgoped o'zining teri tushish sezgisiga asoslanib, massaj mushaklariga qanchalik o'zgarish berayotganligini bilish mumkin.

Asbobli massaj usuli qo'pincha til massajida qo'llaniladi.

Logopedik zondlardan, shpatellardan, tish chyotkalaridan foydalanish chog'ida massaj harakatlari 3 ta yo'nalishda amalga oshiriladi:

- vertikal – tilga ritmik bosishlar;
- qo'ndalangiga – tilning xar bir qismida o'ngdan chapga va teskari harakatlar;

- gorizantal – til uchidan ildizi tomonga va teskarisiga;

Ta'sir quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi: silash, ingichka chizish, chopish, bosish, tebratish (yengil va qattiq) burash.

Bu holatlarda massaj harakatlarni oshirishda quyidagilarni hisobga olish kerak;

- Bo'shashtiruvchi massajda harakatlaryengil (silash, yengil bosish va yengil tebratish), tish chyotkasiningshyotka qismi ishlatilmaydi.

- Faollashtiruvchi massajda esa aksincha, harakatlar faol (ingichka chizish, chopish, bosish, qattiq vibratsiya, urish, burish).

### ***Til yuganchasi massaji***

Til yuganchasining kaltaligi aniqlansa, uni cho'zishga qaratilganmassaj harakatlari amalga oshiriladi. Chap qo'lning ko'rsatkich va bosh barmoqlari bilan til uchidan ushlab, uni yuqoriga ko'tariladilar. Bu holatda og'iz yopiq bo'ladi. O'ng qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari til yuganchasida pastdan yuqorigaqarab sirpanuvchi, cho'zuvchi harakatlar bajariladi.

### ***Milk va qattiq tanglayning shilliq qavati massaji***

Qator hollardabolada mushaklar tarangligi buzilishidan tashqari, sezish qobiliyatining susayganligi ham kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda artikyasion proksisni yengish maqsadida massaj harakatlari majmuasiga mimik va qattiq tanglayning shilliq qavatining massaji ham qo'shiladi. Bolani og'zi ochiq. Bosh barmoq yuqorigi milklarning tashqi tomonida,

ko'rsatkichni esa ichki tomonida joylashgan. Milklarning jadal boshi bilan o'ngdan chapga, keyin esa chapdan o'ngga harakatlar yuqorigi va pastki milklarda amalga oshiriladi.

### ***Yumshoq tanglay massaji***

Massaj yumshoq tanglay mushaklari tarangligini faollashtirish va tanglay nutqiy refleksini oshirishga mo'ljallangan. Yumshoq tanglayning mushaklarini massaj qilishda asosan ko'rsatma bo'lib, manqalangan ovoz hisoblanadi. Berilgan harakatlar yumshoq tanglay mushaklarini tarangligining pasayganligida foydalaniladi.

Massaj qilish jarayonida umumiy tavsiyalar:

- Massajli ta'sir faqatgina yumshoq tanglay mushaklariga emas, balki til tanglay va yutqin tanglay tilchasiga qaratilgandir.

- Massajni faol va faol bo'lmagan gimnastika bilan uyg'unlashtirish, tanglay va yutqin rag'batlantirishga qaratilgan.

- Massaj harakatlari o'ng qo'lning katta yoki ko'rsatkich barmoqlari bilan bajariladi.

### ***Bo'shashtiruvchi massaj***

Tilning bo'shashtiruvchi massajga nisbatan qiyin hisoblanadi. Tarangligi oshganida tilni og'iz bo'shlig'idan tashqarida ushlab turish qiyin bo'ladi, tanglay yutqiy (qayd qilish) refleksi ham massajni qiyinlashtiradi. Shularni xisobga olib tilni bo'shashtiruvchi massaj qilish jarayonida kator qatlami qoidalarni bajarishi kerak:

- Til mushaklarini bo'shashtiruvchi massajni faqatgina boshqa mushaklarni bo'shashtiruvchi massajlardan keyin, ayniqsa bo'yinni, yelkani, pastki jag'i bo'shashtiruvchi massajlardan keyin amalag oshirish talab qilinadi, chunki bu mushaklar til mushagi bilan, ayniqsa til ildizi bilan uzviy bog'liqdir;

- Bo'shashtiruvchi massajda harakatlar asosan til uchidan til ildiziga qarab yo'nalgan bo'ladi;

- Massaj qilishdan oldin tanglayyutqin refleksi "chegarasi"













aniqlab olinadi. Buning uchun asta-sekinlik bilan tilning ustki tomoniga shpatel bilan uriladi, bunda tilning o'рта chizig'i bo'ylab til uchidan ildizi tomon yo'naladi. Qayd qilish refleksi "chegarasi" deb xisoblanadi. Tarangligi oshganda qayd qilish refleksi "chegarasi" tilning o'рта qisimlariga to'g'ri keladi, og'ir holatlarda esa hatto til uchida ham bo'lishi mumkin. Bu holatda massajni juda ehtiyotkorlik bilan bajarish, sekinlik bilan qayd qilish refleksi "chegasidan" o'tish kerak bo'ladi.

-Til mushaklarining aniq ko'rsatilgan massaj qilishdan oldin og'izda 2-3 marta iliq o'tli damlamalarni yoki bir oz ezilgan va dokaga o'ralgan o'tlarning o'zini ushlab turish maqsadga muvofiqdir. (Damlama quyidagicha tayyorlanadi: 1 choy qoshiq moychechak, 1 choy qoshiq choyga 0,5 litr qaynatilgan suv qo'shiladi, 15 minut turgach 40-50 S gacha sovutish kerak. Bir oz asal ham qo'shish mumkin, agar bolada unga qarshi allergiya bo'lmasa);

-Agar yaqqol ifodalangan mushaklar tarangligida, ayniqsa til ildizi sohasida bo'lsa, tilni og'iz tashqarisida ushlab tura olmasa, til massajini og'iz bo'shlig'ida boshlash kerak bo'ladi. Asta-sekinlik bilan taranglikdan bo'shalishga qarab. Til og'iz bo'shlig'idan tashqariga chiqariladi;

-Til mushaklarini bo'shashtiruvchi massaj qilishdan oldin uning ildizini bo'shashtirishga qaratilgin maxsus mashqlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

## TOVUSHLAR POSTANOVKASI BO'YICHA ISHLANMALAR

<b>B TOVUSHI</b> 	<b>E TOVUSHI</b> 	<b>F TOVUSHI</b> 	<b>G TOVUSHI</b> 
<b>I TOVUSHI</b> 	<b>J TOVUSHI</b> 	<b>K TOVUSHI</b> 	<b>L TOVUSHI</b> 
<b>P TOVUSHI</b> 	<b>Q TOVUSHI</b> 	<b>R TOVUSHI</b> 	<b>S TOVUSHI</b> 

## INDIVIDUAL LOGOPEDIK MASHG'ULOT ISHLANMALAR

### 1-LOGOPEDIK mashg'ulot.

**Mavzu:** Mening oilam.

**Ta'limiy maqsad:** Bolalarda oilaqadriyatlarini tashkil toptirish va ular asosida oila a'zolarini nomlab chiqish, nutq tarkibiga oila a'zolarini nomlarini to'g'ri nomlashlariga o'rgatish.

**Korreksion maqsad:**

Nutqini o'stirish, lug'at boyligini oshirish, tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish.

Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo'l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish. To'g'ri nutqiy nafas olish va

chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, soʻzlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.

Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.

### **Tarbiyaviy maqsad:**

Bolani mashgʻulot davomida intizom saqlashiga erishish. Mashgʻulotga qiziqishini orttirish.

Koʻrsatmalarni toʻgʻri va ongli bajarish koʻnikmalarini shakllantirish. Bolalarni oila va oila aʼzolarini hurmat qilishga oʻrgatish, insoniylik fazilatlarini tarbiyalash.

## **Mashgʻulotning borishi**

### **I. Tashkiliy qism:**

-Salomlashish

-Bolani diqqatini mashgʻulotga qaratish.

-oy, yil fasllarni nomlatish.

### **II. Asosiy qism:**

#### **II. Artikulyatsion gimnastika.**

**Massaj:** Yuzimizni massaj qilishni boshlaymiz, meni ortimdan takrorla!

#### **A) Yuz mushaklarining massaji:**

Yuzni uqalash va yumshatish

2-4 ta barmoqlar bilan bajariladi. Harakatlar ikki tomonga bir tekis olib boriladi.

1) Peshona oʻrtasidan iyakkacha.

2) Peshona oʻrtasidan quloqqacha.

3) Burundan quloq chanogʻigacha.

4) Quloqdan yuz boʻylab burungacha.

#### **B. Nafas mashqi:**

1) "Qanotlar". Qoʻllaringni yon tomonga tushir. Qoʻlingni boshingni orqasiga qoʻy-nafas olamiz. Qoʻllar dastlabki holatga qaytarib-nafas chiqaramiz.

2) "Kapalakni tutamiz". Birgalikda qoʻllarimizni ikki tomonga koʻtaramiz-nafas olamiz, soʻng qayrilamiz. Keyin yangidan nafas olamiz, chiqarishda tanani boshqa tomonga

buramiz.

### **D) Lab mashqlari:**

- "Tabassum", "Toʻsiqcha";

- "Xartumcha";

- "Shirin murabbo".

### **E) Til mashqlari:**

- "Boʻyoqchi";

- "Zinapoyalar";

- "Tepa tishlarni tozalaymiz";

- "Kosacha";

- "Kosachani sindirmang";

- "Argʻimchoq";

- "Qoʻziqorincha".

### **I. Yangi Mavzu**

#### ***Oila-muqaddas dargoh.***

Rivoyat

Sherning oilasida uch nafar shervachcha dunyoga keldi. Ularning hali koʻzlari ochilmagan, shuning uchun ona sherning bagʻridan hech qayoqqa jilishmas, talashib-tortishib sut emishar edi. Oradan kunlar oʻtib, sher bolalari ancha katta boʻlib qolishdi. Ular bir-birlarib bilan kurash tushishar va vaqti-vaqti bilan ona sherning oldiga borib, sutga toʻyib kelishar edi. Ularning oʻsishini chetdan kuzatayotgan ota endi bolalarini ov qilishga oʻrgatish payti

kelganini tushundi va sekin irillab bolalarini chaqirdi. Lekin shervachchalar ota chaqirigʻigae tibor ham berishmadi, avvalgidek oʻyinlarini davom ettirib, yana talashib-tortishib onalarini ema boshladilar. Buni koʻrgan sherning jahli chiqib, qattiq naʼra tortdi. Uning ovozihamma yoqni larzaga soldi, barcha jonivorlar tum-taraqay qochib ketishdi. Sher bolalar ham dahshatdan joylarida qotib qolishdi. Otalarining bunday vajohatini ular hech koʻrishmagan edi. Magʻrur turgan sherga ular ham qoʻrquv, ham gʻurur bilan qarashdi va shu

paytda kimning naslidan ekanlarini ,hamda ulardan nima talab qilinayotganini birdantushunishdi.Ona sher ularga xotirjam qarab turar edi.

2.Jismoniy daqiqa

“oila rasmi” psixologik tekshirish metodi.  
Bolalarga,”oila” mavzusi bo`yicha rasm chizdirish.

3.Mustahkamlash

Oila mavzusi bo`yicha savol-javob o`tkazish:

Buvikim?

Buvakim?

Ota kim?

Ona kim?

Amma kim?

Xolakim?

Tog`akim?

### III.Yakunlash

Qissadan hissa shuki tarbiya oiladan boshlanadi.Oilada otaning o`rni alohida.uning qattiqqo`lligi esa farzandlari uchun foydalidir.

Oila tuyg`usi har bir insonning qon-qoniga tabiatan singdirilgan bo`ladi. Oilaning fayzli, farovon bo`lishi esa, albatta unda yashaydigan kishilar-oila a`zolariga bog`liq.Ular o`zaro hamjihat bo`lib yashasa, bir maqsadni ko`zlasa, bu xonadon obodbo`ladi.

#### 1.Mashg`ulotlarga yakun yasash

2.Rag`batlantirish : faol qatnashgan , bolalarga rag`bat kartochkalarini berish.

### 2- LOGOPEDIK mashg`uloti.

**Mavzu:** Oila muqaddas.

**Ta`limiy maqsad:** Bolalarda oilaqadriyatlarini tashkil toptirish va ular asosida oila a`zolarini nomlab chiqish , nutq tarkibiga oila a`zolarini nomlarini to`g`ri nomlashlariga o`rgatish.

### **Korreksion maqsad:**

Nutqini o`stirish, lug`at boyligini oshirish, tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish.

Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo`l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish. To`g`ri nutqiy nafas olish va chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so`zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.

Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.

### **Tarbiyaviy maqsad:**

Bolani mashg`ulot davomida intizom saqlashiga erishish. Mashg`ulotga qiziqishini orttirish.

Ko`rsatmalarni to`g`ri va ongli bajarish ko`nikmalarini shakllantirish. Bolalarni oila va oila a`zolarini hurmat qilishga o`rgatish, insoniylik fazilatlarini tarbiyalash.

### **Mashg`ulotning borishi**

#### **I.Tashkiliy qism:**

-Salomlashish

-Bolani diqqatini mashg`ulotga qaratish.

-oy, yil fasllarni nomlatish.

#### **II.Asosiy qism:**

##### **II. Artikulyatsion gimnastika.**

**Massaj:** Yuzimizni massaj qilishni boshlaymiz, meni ortimdan takrorla!

#### **A) Yuz mushaklarining massaji:**

Yuzni uqalash va yumshatish

2-4 ta barmoqlar bilan bajariladi.Harakatlar ikki tomonga bir tekis olib boriladi.

1)Peshona o`rtasidan iyakkacha.

2)Peshona o`rtasidan quloqqacha.

3)Burundan quloq chanog`igacha.

4)Quloqdan yuz bo`ylab burungacha.

#### **B. Nafas mashqi:**

1) "Qanotlar". Qo`llaringni yon tomonga tushir. Qo`lingni boshingni orqasiga qo`y-nafas olamiz.Qo`llar dastlabki holatga

qaytarib-nafas chiqaramiz.

2) "Kapalakni tutamiz". Birgalikda qo'llarimizni ikki tomonga ko'taramiz-nafas olamiz, so'ng qayrilamiz. Keyin yangidan nafas olamiz, chiqarishda tanani boshqa tomonga buramiz.

### ***D) Lab mashqlari:***

- "Tabassum", "To'siqcha";
- "Xartumcha";
- "Shirin murabbo".

### ***E) Til mashqlari:***

- "Bo'yoqchi";
- "Zinapoyalar";
- "Tepa tishlarni tozalaymiz";
- "Kosacha";
- "Kosachani sindirmang";
- "Arg'imchoq";
- "Qo'ziqorincha".

### ***O'tilganlarni takrorlash.***

#### **III. Yangi Mavzu "mening Oilam"**

Har bir oila o'z a'zolaridan iborat. Bizning oilimizda kimlar bor buvi sizga kim bo'ladi? Buva sizga kim bo'ladi?

Ularaslidabizninig va sizning ota - onalaringizni voyaga yetkazgan insonlardir.

Hamma o'z oilasi bilan tanishtirib chiqadi.

Bobo - so'zini yana boshqacha nomlash ham mumkin, misol uchun BUVA, DODA

Buvi - ya'ni ota- onamizning onasi.

So'zlarni lug'at tarkibiga kiritish :

AKA ; UKA ; OPA; SINGIL;

AMMA; AMAKI; HOLA; TOG'A; KELNOYI ; OPOQI ;

JIYAN ; AMMAVACHA; AMAKIVACHCHA ; TOG'AVACHCHA ;

HOLAVACHCHA ;

NEVARA ; EVARA .

Qarindoshlar nomini to'g'ri talaffuz qilib bu so'zlar kimga

nisbatan qo'llaninishini o'rgatish.

### **2. Jismoniy daqiqa**

Bolalar, endi hammamiz o'rnimizdan turamiz va doira bo'lib turib olamiz. Qo'llarimizni isitamiz: unga puflaymiz: "o-o-o", kaftlarimizni bir-biriga ishqaymiz, tezashtiramiz. Turgan joyimizda 5 gacha sanab sakraymiz.

### **3. Mustahkamlash**

So'zlar asosida kichik gaplar tuzdirish

Mening akam ..... Mening onam .....

Opa va singil..... Mening otam.....

Bog'langan nutq uchun gaplar tuzdirish

Meni ota-onam yaxshi ko'radi chunki .....

Men bobova buvimni yaxshi ko'raman chunki.....

Rasmlar asosida kichik hikoyalar tuzdirish , bog'langan nutqni o'stirish uchun rasmlar : oila a'zolaridasturxon ustida odobi , oila a'zolarining kattalarga hurmatlari , kichik bolalarning dasturxon oldidagi odobi.

### **IV. Yakunlash**

Bu yil mamlakatimizda "sog'lom ona va sog'lom bola" yili bizning mamlakatda oila muqaddasdargoh hisoblanadi. Bizning oilamiz ota - onamizga qilgan hizmatimiz yurt tinchligi uchun qilgan hizmat bilan barobar shu sababli biz oyi , adalarimiz nimaiki iltimos qilhsa yoki buyruq berishsa hop bo'ladi deb bajarishimiz zarur.

### **1. Mashg'ulotlarga yakun yasash**

**2. Rag'batlantirish :** faol qatnashgan , bolalarga rag'bat kartochkalariniberish.

### **3- LOGOPEDIK mashg'ulot.**

**Mavzu:** Tana a'zolari.

**Ta'limiy maqsad:** bolalarni fasllarga qarab tanlashlari , va tana kiyimlarini nomlashiuni qisimlarini ham to'g'ri talaffuz ettirish hamdafaol nutq tarkibiga kiritish. bolalarga kiyimlar va ularning turlari haqida ma'lumot berish va kiyinish qoidalarini

eslatib o'tish. Dizaynerlik, tikuvchilik kasblari haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish.

### **Korreksion maqsad:**

Nutqini o'stirish, lug'at boyligini oshirish, tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish.

Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo'l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish. To'g'ri nutqiy nafas olish va chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so'zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.

Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.

### **Tarbiyaviy maqsad:**

Mashg'ulot davomida o'zaro hurmatsabr -toqat kabi hislatlarga tarbiyalashkiyimlarni ozodakiyishga va pala - partishlikni oldini olishga, saramjonlik yaxshi fazilat , uni qadrlash. Ota-onalari olib bergan kiyimlarni asrab avaylashga o'rgatish.

### **Mashg'ulotning borishi**

#### **I.Tashkiliy qism:**

-Salomlashish

-Bolani diqqatini mashg'ulotga qaratish.

-oy, yil fasllarni nomlatish.

#### **II. Asosiy qism:**

### **II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**

1.BARMOQ MASHQI:"uzukcha mashqi" bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoq birlashtirilib uzuk shakliga keltiramiz. Har bir barmoqqa navbatma -navbat taqib chiqmiz.

#### **2.artikulatsion mashqlar:**

Nafas mashqi - "Gul" - burun orqali chuqur sekin nafas olishni mashq qildirish.(gullarning yoqimli hidini hidlash).

Lablar uchun mashqlar- a)lablarni imkon qadar jilmayamiz;

b)lablarni imkon qadar yig'amiz;mashqni ovoz ishtirokida bajaramiz jilmayganda "i-i-i-i-i", lablar yig'ilganda "u-u-u-u", unli tovushar bilan birga talaffuz qilamiz; d)Lablar tezligi va ovoz tezligini oshirib boramiz 1-2 daqiqa.e)Lablar jilmaygan holda,

tishlar ko'rinib turadi; f) lablar jilmaygan holda bir-biriga tegib turadi. g)lablarni ochish va yopish tezligi ortib boradi.

Til uchun mashqlar-a)"naycha" lablar cho'chaygan holatda, tilni yon tomonlari ko'taramiz, til o'rtasida ariqcha hosil qilib til uchiga puflash mashqi. b) "tepalikda shamol esmoqda" tabassum qilib o'g'izni ochib tilni tepalik holatiga keltiramiz. Keyin tinch holatda til o'rtasi bo'ylab puflaymiz. Havo sovuq bo'lishi kerak. d) "kurakchaga puflaymiz" tabassum holatida og'izni ochamiz, til chetlarini keng yozib pastki lablar ustiga qo'yamiz, tinch holatda tilning o'rtasiga puflanadi.

### **O'tilganlarni takrorlash.**

#### **Illasosiy qism**

Odamning tana a'zolari bo'linadi :

1.Boshdagi tana a'zolar:bosh ,ko'z ,quloq ,burun ,og'iz , qosh, sochlar;

A) ogiz bo'shligimizda : lablar , tishlar ,milk , til ;

B) bosh qismimiz : peshona , yuz , ensa , iyak ,dahan qismlariga bo'linadi.

2. Boshqa tana azolar: bo'yin , yelka , ko'krak, qorin , bel , qo'l, vaoyoq sohalariga bo'linadi

A) qo'llarimiz : yelka bilak , tirsak panjalar yoki barmoqlar

B) oyoqlarimiz : son ,boldir ,tizza ,tovon ,oyoq barmoqlariga bo'linadi.

Kiyimlarimizga keladigan bo'lsak ular o'g'il bolalarda va qiz bolalarda bir-biridan farq qiladi . Turli xil kiyimlar kiygan o'g'il va qiz bolalarning tasvirlari namoyish etish bilan mavzu yoritib boriladi.

Kiyimlar nimalardan tikiladi?

Ular bizga yetib kelguncha qanday bosqichlarni bosib o'tadi?

Qiz bolalar kiyimlari o'g'il bolalar kiyimlaridan farq qiladimi?

Qizlarning tor bichimli shim kiyishlari to'g'rimi ? degan savollarga javoblar olinadi.

Kiyimni yuvish, dazmollash, saqlash qoidalari amaliy tarzda ko`rsatib berish mumkin.

## 2. Jismoniy daqiqa

TETIKLASHTIRUVCHI MASHQ. "QO'NG'IZLAR"VA "CHIVINLAR" O'YINI

Bolalar, hozir ikki guruhga bo'linamiz. Birinchi guruh bolalari chivinlar bo'lishadi, ikkinchi guruh bolalari qo'ng'izlar bo'lishadi. Chivinlar bu yerda, qo'ng'izlar esa mana bu yerda yashashadi. Qachon men "Chivinlar uchib ketishdi" deb aytsam, chivinlar xona bo'ylab yuguribketishadi va "zzz" deb ovoz chiqarishadi. Men "Qo'ng'izlaruchib ketishdi" deb aytsam, qo'ng'izlar xona bo'ylab yuguribketishadi va "zzz" deb ovozchiqarishadi.

## 3. Mustahkamlash

Ko'rgazmali vositalar bolalarga ko'rsatiladi va tana qismlari nomlatiladi, qiz bolaning kiyimlari, o'g'il bolaning kiyimlari, qishki, yozgi, kuzgi va bohorgi mavsumga mos kiyimlari asosida to'rtinchisi oshiqcha o'yini o'ynatiladi.

## IV. Yakunlash

Kiyimni yuvish, dazmollash, saqlash qoidalari nima uchun kerakligini ota-onangizdan so'rang.

### 1. Mashg'ulotlarga yakun yasash

2. Rag'batlantirish : bolalarga rag'bat kartochkalarini berish.

## 4- LOGOPEDIK mashg'ulot.

**Mavzu:** Kiyimlar.

**Ta'limiy maqsad:** bolalarni fasllarga qarab tanlashlari, va tana kiyimlarini nomlashiuni qisimlarini ham to'g'ri talaffuz ettirish hamdafaol nutq tarkibiga kiritish. bolalarga kiyimlar va ularning turlari haqida ma'lumot berish va kiyinish qoidalari eslatib o'tish. Dizaynerlik, tikuvchilik kasblari haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish.

## **Korreksion maqsad:**

Nutqini o'stirish, lug'at boyligini oshirish, tovushlarning talaffuz kamchiliklarini aniqlash va tuzatish.

Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo'l va barmoqlar motorikasini rivojlantirish. To'g'ri nutqiy nafas olish va chiqarish, kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so'zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.

Tafakkur, idrok va xotira jarayonlarini rivojlantirish.

## **Tarbiyaviy maqsad:**

Mashg'ulot davomida o'zaro hurmatsabr -toqat kabi hislatlarga tarbiyalashkiyimlarni ozodakiyishga va pala -partishlikni oldini olishga, saramjonlik yaxshi fazilat, uni qadrlash. Ota-onalri olib bergan kiyimlarni asrab avaylashga o'rgatish.

## **Mashg'ulotning borishi**

### **I. Tashkiliy qism:**

- Salomlashish
- Bolani diqqatini mashg'ulotga qaratish.
- oy, yil fasllarni nomlatish.

### **II. Asosiy qism:**

#### **II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**

1. BARMOQ MASHQI: "uzukcha mashqi" bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoq birlashtirilib uzuk shakliga keltiramiz. Har bir barmoqqa navbatma -navbat taqib chiqimiz.

### **2. Artikulatsion mashqlar:**

**Nafas mashqi** - "Gul" - burun orqali chuqur sekin nafas olishni mashq qildirish. (gullarning yoqimli hidini hidlash).

**Lablar uchun mashqlar**- a) lablarni imkon qadar jilmayamiz;

b) lablarni imkon qadar yig'amiz; mashqni ovoz ishtirokida bajaramiz jilmayganda "i-i-i-i-i", lablar yig'ilganda "u-u-u-u", unli tovushar bilan birga talaffuz qilamiz; d) Lablar tezlighi va ovoz tezlighini oshirib boramiz 1-2 daqiqa. e) Lablar jilmaygan holda, tishlar ko'rinib turadi; f) lablar jilmaygan holda bir-biriga tegib turadi. g) lablarnin ochish va yopish tezlighi ortib boradi.



Til uchun mashqlar-a)“naycha” lablar cho‘chchaygan holata , tilni yon tomonlari ko‘taramiz, til o‘rtasida ariqcha hosil qilib til uchiga puflash mashqi. b) “tepalikda shamol esmoqda” tabassum qilib o‘g‘izni ochib tilni tepalik holatiga krltiramiz. Keyin tinch holatda til o‘rtasi bo‘ylab puflaymiz. Xavo sovuq bo‘lishi kerak. d) “kurakchaga puflaymiz” tabassum holatida og‘izni ochamiz, til chetlarini keng yozib pastki lablar ustiga qo‘yamiz, tinch holatda tilning o‘rtasiga puflanadi

### ***O‘tilganlarni takrorlash.***

### **III. asosiy qism.**

Inson tana azolari turli xil bo‘lganligi va nomlanishi jihatdan har xilligi sababli kiyimlar xam ularga monand ataladi.

*Bosh kiyimlar:oyoq kiyimlar : Boshqa xil kiyimlar*

DO‘PPI TUFLIK BO‘YINBOG‘

QALPOQ ETIKSHARF

SHLYAPA KALISH QO‘LQOP

TELPAKKRASOVKA BELBOG‘

RO‘MOLMAXSIPAYTAVA

KEPKA KOVUSHICH KIYIMLAR

Kiyimlarning nomlari rasmlar asosida

ko‘ylak palto

Halat va lozimkurtka

Kofta pashch

Yubka djemper

Suzish kiyimiShim ShalvarFutbolka

Shortik Mayka

Kiyimlarning qisimlari

Yeng chok

Yoqa cho‘ntak

Tugma shimningpochasi

### **2. Jismoniy daqiqa**

TETIKLASHTIRUVCHIMASHQ. Uycha baland bo‘lsin  
desangiz,

Uycha mahkam bo‘lsin desangiz,

Mixlarni tekis qoqgin,  
O‘ngga — to‘q-to‘q-to‘q,  
Chappa — to‘q-to‘q-to‘q,  
Oldinga — to‘q-to‘q-to‘q.

— Bolalar chordana quribo‘tiradilar;

— qo‘llarining kaftlari bilantizzalariga urishadi;

— musht bilan tizzalarigaurishadi;

— ikki qo‘l mushti bir-birigauriladi;

— o‘ng qo‘l mushti bilan o‘ngtarafga yerga uradilar;

— so‘ng chap tarafga;

— ikki qo‘l mushti bilan“mix qoqishadi”.

### **3.Mustahkamlash**

Rasmlar asosida kiyimlar bo‘laklarini tana a‘zolariga to‘g‘irlab chiqishva ularni nomlash.

### **IV. Yakunlash**

Bugun biz tana azolarimizga mos bo‘lgan kiyimlar bilan tanishdik. Endilikda biz bu so‘zlarni nutq tarkibimizda faol qo‘llab yurishga odatlanaylik.

### **1.Mashg‘ulotlarga yakun yasash**

**2.Rag‘batlantirish** : faol qatnashgan , bolalarga rag‘bat kartochkalariniberish.

## **5- Logopedik MASHG‘ULOT.**

**Mavzu: Sabzavotla , mevalar. Bog‘.**

**Ta‘limiy maqsad:**Sabzavotlarni va mevalarni faol nutq tarkibiga kiritish ,ularni to‘g‘ri nomlashga o‘rgatish . sabzavotlarni va mevalarni bir gu-ruhga birlash-tirish bu as-osida nutqda ularni umumiy nolatish. bolaga meva haqida umumiy ma‘lumot berish. Kattalar mehnat-idan bog‘bon mehnati haqida tushun-tirish ildizi poyasi bargi me-vasi danagi ha-qida tushuntirish.

**Korreksion maqsad:**

Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo‘l va barmoqlar motor-ikasini rivoj-lantirish. To‘g‘ri nutqiy nafas olish va

chiqarish, ki-nestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so'zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.

Fazoda mo'ljal

olish ko'nikma-larini rivojlan-tirish.

Katta-kichik tu-shunchalarini shakllantirish.

Tafakkur, idrok va xotira jara-yonlarini rivoj-lantirish.

### **Tarbiyaviy maqsad:**

Bog'da mehnat qilish malakalarini shakllantirish, mevalarni va sabzavotlarni yuvib yeyishga o'rgatish, hamda oziq ovqat mahsulotlarini is'temolini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatish.

### **Mashg'ulotning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

-Salomlashish

-Bolani diqqatini mashg'ulotga qaratish.

-oy, yil fasllarni nomlatish.

#### **II. Asosiy qism:**

### **II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**

**1. Massaj:** Yuzimizni massaj qilishni boshlaymiz, meni ortimdan takrorla!

#### **Yuz mushaklarining massaji.**

Yuzni uqalash va yumshatish

1) Yuzimizni massaj qilishdan boshlaymiz, meni orqamdan takrorla!

2) Qo'llarimizni isitib olamiz, barmoqlarimizni uqalaymiz;

3) Peshonamizni silaymiz(2-3marta);

4) Peshonamizdan pastga tomon burun qanotchalariga va quloqlarimizgacha silaymiz (2-3marta);

5) Labimizni ustini (2-3marta);

6) Daxanimizni (2-3marta) silaymiz.

#### **2. Artikulyatsion mashqlar:**

**A) Unli tovush [u] bir nafas chiqarishda ashula ohangida aytiladi.**

**"O'tin yoramiz"-[u].**

Dastlabki holatda turib, qo'llar tushiriladi. Oyoqlar yelka

bilan bir tekis, qo'llar tepaga qarab nafas olinadi. Egilib, ashula ohangida "u-u-u" deb nafas chiqariladi.

#### **B) Lab mashqlari:**

- "Tabassum";

- "To'siqcha";

- "Xartumcha";

- "Shirin murabbo".

#### **D) Til mashqalari:**

- "Soatlar";

- "Bo'yoqchi";

- "Zinapoyalar";

- "Tepa tishlarni tozalaymiz";

- "Kosacha";

- "Kosachani sindirmang";

- "Arg'imchoq";

- "Qo'ziqorincha".

#### **O'tilganlarni takrorlash.**

**III. asosiy qism . Sabzavotla ,mevalar. Bog'**

Bolalar bugungi Mavzuyimiz mevalar. Qani hammamiz qaytaramiz

Ularni birma bir nomlaymiz.

Olma, olxo'ri, smorodina, shaftoli, banan, nok, .....

Bolalar ularni kim o'stiradi bog'bonmi, dexqonmi\*

Bog'bon

Barakalla ularni bog'bon ekib o'stiradi

Bolalar dexqon daraxt ko'chatlarini qanday parvarishlaydi?

Ariq oladi, chopadi, ekadi, sug'oradi, butalaydi, o'g'itlaydi, o'raydi, teradi, sochadi, beradi.

Bolalar bog'bonning ish jihozlari nimalardan iborat?

Arra, tesha, ketmon, lopadka, o'g'it tashishga arava, chelak, shlanka, tok qaychi.

Bizning bog'da surati asosida suhbat

Uzumzorda uzum

Olmazorda olma

Anorzorda anor

Do'lanazorda do'lanao'sadi

Bananzorda banan

Parnikda limon

Ularning shakli cho'zinchoq dumaloq yassi doirasimon.

Odamlar nimalarni qotirib qoqi turshak qiladilar va qish faslida iste'mol qiladilar. U odamni quvvatli g'ayratli sog'lom baquvvat qiladi. Qorinni to'ydiradi. **2. Jismoniy daqiqa**

"Bozor" o'yini. Bola faqat meva sabzavotlarni "sotib olib" ikkita alohida savatga solidi

### **3. Mustahkamlash**

Bolalar hozir otlarni ko'plikda kelishini takrorlaymiz

Uzum-uzumlar

Shaftoli-shaftolilar

Anor-anorlar

Gilos-giloslar

Ulardan shinni, murabo, pirog, sok, tort, uksus vitaminlar, dorilar, qoqi, turshaklar qilinadi.

### **IV. Yakunlash**

Bugun biz meva va sabzavotlar va bog'manjarasibilar tanishdik. Endilikda biz bu so'zlarni nutq tarkibimizda faol qo'llab yurishga odatlanaylik.

#### **1. Mashg'ulotlarga yakun yasash**

**2. Rag'batlantirish** : faol qatnashgan , bolalarga rag'bat kartochkalariniberish.

## **6- LOGOPEDIK MASHG'ULOT.**

**Mavzu:** Sabzavotlar, mevalar. Bog'.

**Ta'limiy maqsad:** bolalarga sab-zavotlar xaqida umumiy tushun-chalar berish. Ularni rangi mazasi zararli va foydali tomonlari va gigiyena qoida-lari xaqida tushuntirish. Kattalar mex-natidan dexqon mexnati xaqida to'liq tushuntirish

Kattalar mehnat-idan bog'bon mehnati haqida tushuntirish ildizi poyasi bargi me-vasi danagi ha-qida tushuntirish.

### **Korreksion maqsad:**

Artikulyasion apparat, umumiy, mayda qo'l va barmoqlar motor-ikasini rivoj-lantirish. To'g'ri nutqiy nafas olish va chiqarish, ki-nestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so'zlarni tovush-harf analizini rivojlantirish.

Fazoda mo'ljal

olish ko'nikma-larini rivojlan-tirish.

Katta-kichik tu-shunchalarini shakllantirish.

Tafakkur, idrok va xotira jara-yonlarini rivoj-lantirish.

### **Turbiyaviy maqsad:**

Bog'da mehnat qilish malakalarini shakllantirish, mevalarni va sabzavotlarni yuvib yeyishga o'rgatish, hamda oziq ovqat mahsulotlarini istemolini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatish.

### **Mashg'ulotning borishi**

#### **I. Tashkiliy qism:**

-Salomlashish

-Bolani diqqatini mashg'ulotga qaratish.

-oy, yil fasllarni nomlatish.

#### **II. Asosiy qism:**

### **II ARTIKULATSION GIMNASTIKA**

**1. Massaj:** Yuzimizni massaj qilishni boshlaymiz, meni ortimdan takrorla!

#### **Yuz mushaklarining massaji.**

Yuzni uqalash va yumshatish

1) Yuzimizni massaj qilishdan boshlaymiz, meni orqamdan takrorla!

2) Qo'llarimizni isitib olamiz, barmoqlarimizni uqalaymiz;

3) Peshonamizni silaymiz(2-3marta);

4) Peshonamizdan pastga tomon burun qanotchalariga va quloqlarimizgacha silaymiz (2-3marta);

5) Labimizni ustini (2-3marta);

6) Daxanimizni (2-3marta) silaymiz.

#### **2. Artikulyatsion mashqlar:**

**A) Unli tovush [u] bir nafas chiqarishda ashula ohangida**

## **aytiladi.**

### **“O’tin yoramiz”-[u].**

Dastlabki holatda turib, qo’llar tushiriladi. Oyoqlar yelka bilan bir tekis, qo’llar tepaga qarab nafas olinadi. Egilib, ashula ohangida “u-u-u”deb nafas chiqariladi.

### **B)Lab mashqlari:**

- “Tabassum”;
- “To’siqcha”;
- “Xartumcha”;
- “Shirin murabbo”.

### **D)Til mashqalari:**

- “Soatlar”;
- “Bo’yoqchi”;
- “Zinapoyalar”;
- “Tepa tishlarni tozalaymiz”;
- “Kosacha”;
- “Kosachani sindirmang”;
- “Arg’imchoq”;
- “Qo’ziqorincha”.

### **O’tilganlarni takrorlash.**

**Iiasosiy qism . Sabzavotla ,mevalar. Bog’**

Bolalar xozir o’lkamizda qaysi oy kelgan?

Bu oy qaysi faslga kiradi?

Oktyabrdan so’ngra qaysi oy keladi?

Keyinchi

Barakalla ob xavo qanday bo’ladi?

Bugun haftaning nechanchi kuni?

Nima nom bilan ataladi?

Bolalar bugun biz sizlar bilan xam sabzavotlarni xam poliz ekinlarini o’tamiz. Ularni dexqon o’stiradi

Avval lapatkada keyin ketmonda chopib ariq oladi, keyin suv quyib urug’ ekadi, yoki ko’chat o’tkazadi. Xozir ularni nomlaymiz va farqini yoritamiz.

Karam piyoz bulg’orqalampiri

Sabzi sholg’om baqlajon

Kartoshka gulkarampomildori

Lovlagi sarimsoqpiyozrediska

Bodringgarimdori

Karom – bug’da pishadi, pishirmasdan salat qilinadi, to’g’raladi, qirg’ichdan chiqariladi.

Gulkaram – suvda pishiramiz, tuxum bilan qovuriladi

Sholg’om – yuvamiz, artamiz, to’g’raymiz, pishiramiz, sho’rva qilamiz

Kartoshka – pishiramiz, salat qilamiz, to’g’raymiz, yuvamiz.

### **2.Jismoniy daqiqa**

She’rda nechta sabzavot ishtiroketgan ?

Yetishtirdik sarimsoq,

Sabzi, piyoz va qovoq.

Turp-u kartoshka, karam,

Baqlajon-u sholg’om ham.

Yig’ib do’stlarimizni,

Rosa mehmon qildik biz.

Ertani ham o’yladik,

Qishga karam tuzladik.

Polizga rahmat aytdik,

Keyin hammamiz qaytdik

### **3.Mustahkamlash**

“Biz bog’da ishladik” rasmi asosida hikoya tuzish.

Sabzavotlarni oxirgi harfidan zanjir o’yini o’ynaladi. sabzavotlar rasmi bo’yaladi.

### **IV. Yakunlash**

Bugun biz meva va sabzavotlar bilan tanishdik. Endilikda biz bu so’zlarni nutq tarkibimizda faol qo’llab yurishga odatlanaylik.

### **1.Mashg’ulotlarga yakun yasash**

**2.Rag’batlantirish** : faol qatnashgan , bolalarga rag’bat kartochkalarini berish.

**GURUHLI ISHLASH UCHUN LOGOPEDIK MASHG'ULOT  
ISHLANMALAR**

<b>Birinchi o'yin:</b>	«Topib ko'rchi».						
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Tafakkur va nutqni rivojlantirish						
<b>O'yinning borishi:</b>	<p>O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh bolalar ikkinchi guruhdan sir tutib ma'lum bir predmetni o'ylab topadi. Ikkinchi guruhdagi bolalar savol berib ushbu predmet nimaligini topishlari kerak. Bu savollarga birinchi guruh bolalari "ha" yoki "yo'q" deb javob beradi. Birinchi guruh bolalari saf bo'lib turishadi. Ularning ro'parasida turgan ikkinchi guruh bolalaridan biri: "Uning joni bormi?" deb savol beradi. Birinchi guruhning birinchi a'zosi "ha" yoki "yo'q" deb javob beradi. Undan so'ng, ikkinchi guruhning ikkinchi a'zosi: "Men uni ko'rganmanmi?" deb savol beradi. Birinchi guruhning ikkinchi a'zosi: "ha" va h.k. O'yin shu tarzda davom etadi. Predmet topilgandan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashtirishadi.</p> <p>O'yin jarayoniga taalluqli izohlar:          1. Bolalarga sintez vaklassifikatsiya operatsiyalariga doir "Uning joni bormi (yoki u jonsizmi)?", "U uyda bormi?", "U ko'chadagi narsami?", "U hayvonmi?", "U odammi?" va h.k. kabi savollar beriladi.          2. Agar predmet 8-10 daqiqa ichida topilmasa, bolalar zerikib qolmasliklari uchun uning nomini aytish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruh bolalariga barchaga ma'lum predmetlar nomini aytish tavsiya etiladi.</p>						
<b>Ikkinchi o'yin:</b>	«Tovushlarni eshit».						
<b>O'yinning maqsadi:</b>	<b>Diqqat faolligini rivojlantirish.</b>						
<b>O'yinning borishi:</b>	<p>O'yin olib boruvchi oldindan bolalar bilan kelishadi va u biror-bir klavishni bosganda bolalar biror-bir holatga kirishlarini aytadi. O'yin olib boruvchi musiqani chalayotganda bolalar xona bo'ylab yurishadi (yoki doira shaklida yurishlari mumkin).</p> <table border="1"> <tr> <td>Tovush</td> <td>Xilma-xil holatlar</td> </tr> <tr> <td>Registrning pastki klavishini bosamiz</td> <td>«Yig'layotgan majnuntol» holati (oyoqlar yelka kengligida, qo'l va yelka pastga egilgan, bosh chap yelka tomon egilgan)</td> </tr> <tr> <td>Registrning yuqori klavishini bosamiz</td> <td>«Daraxt» holati (oyoqning tovonlari birlashtiriladi, panjalari esa ikki yonga qaratiladi, oyoq tekis tutiladi, qo'llar tepaga ko'tarilib, boshni orqaga tashlab, qo'l barmoqlariga qaratiladi).</td> </tr> </table>	Tovush	Xilma-xil holatlar	Registrning pastki klavishini bosamiz	«Yig'layotgan majnuntol» holati (oyoqlar yelka kengligida, qo'l va yelka pastga egilgan, bosh chap yelka tomon egilgan)	Registrning yuqori klavishini bosamiz	«Daraxt» holati (oyoqning tovonlari birlashtiriladi, panjalari esa ikki yonga qaratiladi, oyoq tekis tutiladi, qo'llar tepaga ko'tarilib, boshni orqaga tashlab, qo'l barmoqlariga qaratiladi).
Tovush	Xilma-xil holatlar						
Registrning pastki klavishini bosamiz	«Yig'layotgan majnuntol» holati (oyoqlar yelka kengligida, qo'l va yelka pastga egilgan, bosh chap yelka tomon egilgan)						
Registrning yuqori klavishini bosamiz	«Daraxt» holati (oyoqning tovonlari birlashtiriladi, panjalari esa ikki yonga qaratiladi, oyoq tekis tutiladi, qo'llar tepaga ko'tarilib, boshni orqaga tashlab, qo'l barmoqlariga qaratiladi).						

<b>Uchinchi o'yin:</b>	«Alifbo harflari». (harflarni taniydigan bolalar uchun)
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Diqqatni rivojlantirish jarayoni.
<b>O'yinning borishi:</b>	Har bir bolaga alfavit harflari beriladi. Boshlovchi harf nomini aytadi, o'sha harf bolalardan qaysi biriga berilgan bo'lsa, o'sha bola bitta chapak chaladi.
<b>To'rtinchi o'yin:</b>	«To'rt she'r».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Eshitish va harakat analizatorlari bilan bog'liq diqqatni rivojlantirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	<p>Bolalar stulda doira shaklida o'tirishadi. Boshlovchining buyrug'i bilan bolalar qo'llari bilan ma'lum bir harakatni amalga oshirishadi. Qo'llarning harakati:          «Yer» – bolalar qo'llarini pastga tushirishadi. «Suv»- bolalar qo'llarini to'g'riga uzatishadi. «Havo» – bolalar qo'llarini tepaga uzatishadi. «Olov» – bolalar qo'llarini olovga o'xshatib o'ynatishadi</p>
<b>Beshinchi o'yin:</b>	«Eshit va bajar».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Diqqat va xotirani rivojlantirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	<p>Boshlovchi bir nechta harakatni aytadi, lekin ularni ko'rsatmaydi. Bu mashqni 1-2 marta qaytarishga ruxsat etiladi. Keyin bolalar shu mashqlarni boshlovchi aytgan holatda bajarishi lozim.</p> <p>1-mashq. Boshni oldin o'ngga, keyin to'g'riga burish, yana boshni pastga egish va ko'tarish kerak.          2-mashq. O'ng qo'lni tepaga ko'tarish, keyin chap qo'lni tepaga ko'tarish, keyin ikki qo'lni pastga tushirish kerak.          3-mashq. 90- daraja o'ng tomonga burilish, o'tirish va turish kerak.          4-mashq. O'ng oyoqni ko'tarish, chap oyoqda turish, o'ng oyoqni qo'yish, chap oyoqni ko'tarish va h.k.</p>
<b>Oldinchi o'yin</b>	«Sehrli so'z».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	o'zini-o'zi boshqarish va diqqatning taqsimlanishini rivojlantirish.

<b>O'yinning borishi:</b>	1-variant. Bolalar va boshlovchi doira shaklida turib olishadi. Boshlovchi izoh beradi. U har xil harakatlarni ko'rsatishi va bolalar uning harakatlarini qaytarishlari kerak. SHart shuki, bundan oldin boshlovchi sehrli so'z - «Marhamat» so'zini aytishi lozim. Bu so'zni aytmasa, bolalar harakatni qaytarmaydilar. Eslatma: Sehrli so'zni boshlovchi to'satdan yoki bir necha harakatdan so'ng aytishi kerak. 2 - variant: O'yin tartibi xuddi birinchi variantga o'xshash, faqat kimdir adashsa, o'rtog'I chiqib ashula, she'r yoki o'ynab berish sharti bilan. Eslatma: Agar o'yin shartlariga kimdir qo'shilmasa, uni majburlash kerak emas. O'yinni davom ettiraverish lozim. SHu tarzda bolalar sekin-asta o'zlariga ishonch hosil qilib, erkin harakatda bo'lishadi. O'yin qoidalariga amal qilmaslik o'z-o'zidan sekin-sekin yo'qolib boradi.
<b>Yettinchi o'yin:</b>	«O'yinchoqni aniqlash».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Tafakkur, idrok va ziyraklikni rivojlantirish
<b>O'yinning borishi:</b>	Boshlovchi tanlanadi va u 2-3 daqiqaga xonadan chiqib turadi. Uning yo'qligida bolalardan biri topishmoq o'ylab topadi. Biron bir bola hatti-harakat va mimikalari bilan gap qanday o'yinchoq haqida borayotganini ko'rsatishi kerak. Masalan: «quyoncha» xususidagi topishmoqda bola sakraydi, «sabzi yeydi» va h.k. Boshlovchi topishmoqni topishi va o'yinchoqni qo'liga olib uning nomini baland ovozda aytishi kerak, qolgan bolalar esa, jo'r bo'lib (birgalikda) «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyдилar. Agar javob to'g'ri bo'lsa, qaytadan topishmoq o'ylab topuvchi va mazkur topishmoqni topuvchi bolalar tanlanadi. Javob noto'g'ri bo'lsa, boshlovchi o'zgar olmaydi, topishmoqni o'ylab topish esa boshqa bolaga havola etiladi va o'yin shu tariqa to'g'ri javob topilmaguncha davom etadi.
<b>Sakkizinchi o'yin:</b>	«Jumla tuz».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Tafakkur va fantaziyani rivojlantirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	O'qituvchi guruhdagi bolalarga loto o'yinidagi biron bir predmet tasviri tushirilgan ikkita rasmni taklif etadi. Guruhdagi bolalar yarim aylana bo'lib o'tirishadi va har bir bola navbatma- navbat o'zlari o'ylagan ikki predmet nomlaridan iborat bo'lgan jumla o'ylab topishadi. O'yinni olib boruvchi yana boshqa ikki predmetni ko'rsatadi va bolalar yana doira bo'lib o'tirib shu predmetga oid yangi gaplarni tuzishadi. O'yinga izohlar: Bolalardagi o'ziga xos turfa xil jumalarni tuzishga bo'lgan intilishlarni rag'batlantiring. Agar bolalarning berilgan ikki so'zdan jumla tuzishlari oson kechayotgan bo'lsa, keying gal jumla tuzish uchun uchta so'z taklif qiling.
<b>To'qqizinchi o'yin:</b>	«Qarama- qarshiliklar».

<b>O'yinning maqsadi:</b>	Tafakkur va nutqni rivojlantirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	Boshlovchi bolalar guruhiga bitta rasm ko'rsatadi. O'sha rasmdagi predmetning mazmunan aksini anglatuvchi predmet nomini aytish o'yinning asosiy maqsadidir. Masalan, boshlovchi piyolani ko'rsatdi deydik. Bolalar "dasturxon" deydishlari mumkin (piyola qobariq, dasturxon esa yassi), "suv" (suv - suyuq, piyola esa - qattiq) va shu tarzda davom ettirish mumkin. Har bir bola navbatma-navbat o'z javobini taklif etadi va albatta, nima uchun aynan shu narsani tanlaganini isbotlab beradi
<b>O'ninchi o'yin:</b>	«Surat - topishmoq».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Tafakkur va nutqni rivojlantirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	Bolalar guruhi ichidan bir yetakchi tanlab olinadi, qolganlar stulda o'tirishadi, ular jumboqni topishlari shart. O'qituvchida turli xil buyumlarning kichkina suratlarini solingan katta quti bo'ladi (bunda bolalar lotosi rasmlaridan ham foydalanish mumkin). Etakchi bola o'qituvchining oldiga keladi va bitta rasm oladi. Qolgan bolalarga ko'rsatmasdan rasmdagi buyumni ta'riflab beradi. Guruhdagi bolalar o'z javob variantlarini aytishadi. Birinchi bo'lib to'g'ri javob topgan bola keyingi galda yetakchilik qiladi.
<b>O'n birinchi o'yin:</b>	«Topishmoqni o'ylabtop».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Nutq va tafakkurni rivojlantirish
<b>O'yinning borishi:</b>	Bolalar guruhidan yetakchi tanlanadi. Uning vazifasi topishmoq o'ylab topishdir. Guruh a'zolari bu topishmoqni topishi lozim. Keyin boshqa topishmoq o'ylab topiladi va shunday davom etadi. Olti yoshdagi bolalar topishmoq o'ylab topishni yaxshi ko'rishadi, o'yin jonli o'tadi.
<b>O'n ikkinchi o'yin:</b>	«Qayerda bo'ldik, nimalarni ko'rdik?».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Tafakkurni va nutqni rivojlantirish.

<b>O'yinning borishi:</b>	<p>Katta xonada yoki toza havoda o'tkazish kerak. O'yinda bolalar ikkita guruhga bo'linadilar.</p> <p>1- guruh: "Bobo va nevaralar" (bobo va nevaralar ikkinchi guruh aytgan topishmoqning javobini aytishi kerak).</p> <p>2- guruh: Topishmoq aytuvchi guruh. Guruhlar o'rtasiga chiziq chiziladi, o'sha chiziqdan qochgan bolalarni ushlash vaqtida "bobo va nevaralar" chiziqdan chiqishi mumkin emas.</p> <p>"Bobo va nevaralar" ikkinchi guruhga qaramasdan orqasini o'girib turadi. O'qituvchi o'sha paytda ikkinchi guruh bilan qandaydir topishmoq o'ylab topadi. O'ylab topilgandan so'ng "bobo va nevaralar" ga ikkinchi guruhbelgi beradi.</p> <p>Keyin dialog boshlanadi.</p> <p>- Assalomu alaykum, soqoli uzun-uzun bobo, assalomu alaykum, nevaralari.</p> <p>- Vaalaykum assalom, bolalar! – bolalar va bobo javob berishadi.</p> <p>- Qaerda bo'ldingizlar, kimlarni ko'rdingizlar?.</p> <p>- Biz o'rmonda bo'ldik va tulkini ko'rdik, lekin u yerda bizlar nima ish qilganimizni aytmaymiz, ammo ko'rsatamiz.</p> <p>Topishmoqni ikkinchi guruh bolalari o'z hatti-harakatlari bilan ko'rsatadilar. Masalan, bolalar o'rmonda egilganchoq o'zi qorin va mevalarni teryaptilar va «au, au» deya tovush chiqaryaptilar.</p> <p>Agar «bobo va nevaralar» topishmoqning javobini to'g'ri topishsa, ikkinchi guruh bolalari javobni aniq qilib ko'rsatadi, to'ldiradilar. Agar «bobo va nevaralar» topishmoqning javobini noto'g'ri aytsalar, ikkinchi guruh bolalari qochadilar.</p> <p>«Bobo va nevaralar» ikkinchi guruh bolalarini tutishga harakat qiladilar, lekin «bobo vanevaralar» chiziqdan o'tishi mumkin emas.</p> <p>Bir – ikkita topishmoqdan so'ng «bobo va nevaralar» ikkinchi guruh bilan o'rin almashadilar. Almashgan guruh o'ziga «bobo» tanlaydi.</p>
<b>O'n uchinchi o'yin :</b>	«Kim ortidan kim «.
<b>O'yinning maqsadi:</b>	Bolaning qo'zg'aluvchanligini susaytirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	<p>Sokin musiqa eshittirilib, xonaga stullar qo'yiladi. Boshlovchi birinchi bolaning nomini aytib chaqiradi. Chaqirilgan bola stullar orasida harakatlanishni boshlaydi. Musiqada tanaffus bo'lganda u stulga o'tirib oladi (qolgan bolalar atrofda turishib, tomosha qilishadi).</p> <p>Keyin boshlovchi boshqa bolanichaqiradi, u ham musiqa sadosida stul atrofida aylanadi va tanaffusda o'tiradi. O'yin hamma bolalar stulga o'tirib olgunchadavom etadi.</p>
<b>O'n to'rtinchi o'yin:</b>	«Zerikib, zerikib shunday o'tir».
<b>O'yinning maqsadi</b>	: Erkinlikni tarbiyalash va o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

<b>O'yinning boshishi</b>	<p>Xonaning bir tomonida stullar turadi, ularning soni o'yinchilar soniga teng. Qarama-qarshi tomonda xuddi shunday stullar turibdi, lekin ularsoni o'yinchilar sonidan bittaga kam.</p> <p>Bolalar birinchi tomonda turgan stullarga o'tirishadi.</p> <p>Boshlovchi quyidagicha ko'rsatma beradi:</p> <p>Zerikarli-zerikarli shunday o'tirish</p> <p>Bir-birimizga tikilib. Yugurgilashib kelsak, Joylarimiz almashsak.</p> <p>Boshlovchi ko'rsatmasini tugatishi bilan hamma bolalar qarama-qarshi tomondagi stullarga yugurib borib o'tirib olishga harakat qilishadi. Stulsiz qolgan bola yutqazgan hisoblanadi.</p> <p>O'yinga izohlar:</p> <p>1. Bolalarga ko'rsatma tugamasdanoq turib ketishlariga ruxsat bermang.</p> <p>2. Bolaga o'zidan oldin stulni egallagan bolani tushurish man etiladi.</p>
<b>O'n beshinchi o'yin:</b>	«Ikki xo'rozcha urishib qolishdi».
<b>O'yinning maqsadi:</b>	O'z-o'zini boshqarish, o'zini erkin tutishni rivojlantirish.
<b>O'yinning borishi:</b>	<p>Quvnoq qo'shiq yangraydi (A.Raychevning «Ikki xo'rozcha urushib qolishdi» qo'shig'i). Bolalar yelkalari orqali harakat qilishadi va yelkalari bilan bir-birlarini yengil turtib qo'yishadi.</p>

## GLOSSARIY

**Analizator** - yuksak darajada rivojlangan hayvonlar va odam organizmining tashqi va ichki muhitdan kelib chiquvchi ta'sirlarni idrok, tahlil va sintez qilishini ta'minlovchi murakkab anatomik-fiziologik tizim.

**Analitik-sintetik tovush metodi** - butun bir matndan gapni, gapdan so'zni, so'zdan bo'g'inni, bo'g'indan tovushni ajratib olish va aksincha, tovushlardan bo'g'inni, bo'g'inlardan so'zni, so'zlardan gapni tuzish yo'li bilan savod chiqarishni aks ettiruvchi metod. Analitik-sintetik tovush metodi asosan, tayyorlov guruhlari hamda birinchi sinflarda alifbegacha bo'lgan davrda qo'llanib, uning yordamida bolalar harflarni taniydilar, tovushlar yordamida so'zlar tuzadilar. Bu metod bolalar nutqining rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

**Anomal** - (yunoncha "apotalos" - noto'g'ri, notekis) so'zidan olingan bo'lib, umumme'yordan o'zgacha bo'lgan holat ma'nosida qo'llanadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar -tug'ma, irsiy kasalliklarga ega bo'lgan kasalliklar yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan jarohatlar asoratlari oqibatida hayotiy faoliyat(lar)i cheklangan jismoniy va (yoki) psixik kamchilikka ega bo'lgan 18 yoshgacha bolalar (bola).

**Artikulyatsiya mashqlari** - nutq organlarining mo'tadil va me'yordagi holatini ta'minlovchi mashqlar tizimi. Artikulyatsiya mashqlari asosan lab, til-jag' mashqlaridan iborat. Artikulyatsiya mashqlarining asosiy maqsadi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan artikulyatsiya a'zolarining erkin harakatini ta'minlashdan iborat.

**Aks ettirilgan nutq** - Ayrim so'zlarni, jumalarni logoped shaxsi nutqi ketidan (yakka holda yoki jo'r bo'lib) takror aytish. Aks ettirilgan nutq duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan nutqiy mashqlar turidir. Bunday mashqlarda duduqlanuvchi bola logoped tomonidan aytilgan so'zlarni takrorlaydi, bu esa tutilmasdan gapirishga yordam beradi.

**Anketa metodi** - pedagogika va psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri. Bu metod orqali izlanish obyektini o'rganish maqsadida tuzilgan savollarga yozma ravishda tegishli javoblar olinadi. Olingan natijalar tahlil (analiz) qilingach, xulosalar qilinadi va ular asosida keyingi bosqichda bajariladigan ishlar belgilanadi. Maxsus ta'lim sohasida Anketa metodidan alohida yordamga muhtoj bolalarning u yoki bu jihatdan rivojlanganlik darajasini o'rganishda keng foydalaniladi.

**Bolaning lug'ati** - me'yorida rivojlanayotgan bolaning lug'ati o'zgarlar nutqining ta'siri ostida uzluksiz boyib boradi. Lug'at nafaol va faol bo'ladi. Nafaol lug'at bola tushunadigan, lekin o'zi ishlatmaydigan yoki kam ishlatadigan, faol lug'at bola o'z nutqida keng foydalanadigan so'zlardan iborat bo'ladi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarda lug'atning shakllanishi bir qator xususiyatlarga ega. Ya'ni birlamchi muammolar bunday bolalar lug'atining nihoyatda kam bo'lishini, ular nutqida fonetik-fonematik va grammatik xatolarga yo'l qo'yilishi kabi ikkilamchi muammolarni keltirib chiqaradi. Bolaning lug'at maxsus logopedik tadbirlar, shuningdek, atrofdagilar (kattalar) bilan muloqot jarayonida boyitib boriladi.

**Bog'lanmagan (poyma-poy) nutq** - mantiqiy tafakkur qoida va talablari doirasida fikrlay olmaslikni aks ettiruvchi nuqson; nutqdagi jumla va fikrlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi. Bog'lanmagan nutq bosh miya qobig'idagi ba'zi nutq markazlarining zararlanishi (masalan, duduqlanish, dizartriya, afaziya) natijasida yoki ba'zi ruhiy kasalliklarda ham sodir bo'lishi mumkin.

**Bo'g'in** - nutq apparati mushaklarining bir zarb bilan harakatlanishi natijasidayuzagakeladigantovush va tovushlar birikmasi. O'zbek tilida unli tovushlar bog'in hosil qiladi. Bo'g'in qanday tovush bilan tugashiga ko'ri ikki turga bo'linadi: unli tovush bilan tugaydigan ochiq bog'in, undosh bilan tugaydigan



yopiq bo'g'in hisoblanadi. Bo'g'in urg'uli, nisbatan past, kuchsiz talaffuz etiladigan va urg'usiz bo'ladi. Cho'ziq va qisqa unlilar ishtirokiga ko'ra bog'inlar cho'ziq va qisqa bo'ladi.

**Verbal muloqot** - ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'z, nutqiy vositalar, o'z fikrlarini bayon etish yordamida fikr almashishlari (munosabatga kirishishlari).

**Diqqat** - ongimizning muayyan obyektga yo'naltirishi va unga jalb etilishidan iborat ruhiy holat. Ongimiz yo'naltirilgan narsalar diqqatning obyekti hisoblanadi. Obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, ruhiy kechinmalar, taassurotlar diqqatning obyekti bo'lishi mumkin.

**Deviant hulq** - (lotincha "deviation" - og'ish, chetga chiqish) so'zidan olingan bo'lib, hulqning me'yordan chetga chiqishi ma'nosini anglatadi. Ya'ni shaxsning jamiyatda qabul qilingan huquqiy yoki axloqiy me'yorlarga qarama-qarshi bo'lgan xatti-harakatlar tizimi yoki ba'zi harakatni sodir qilishi tushuniladi. Huddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi bolalar «ijtimoiy xatar guruhiga mansub bolalar» sirasiga kiritilmoqda.

**Diksiya** - so'zni aniq, ravon, tushunarli tarzda ifodalash.

**Impressiv nutq** - nofaol (passiv), ya'ni ichki nutq.

**Innovatsiya** - sohaga yangilik, o'zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati.

**Intergratsiyalashgan** - "integrative" - jamlovchi (mujassamlovchi), "integrate" - jamlash (qo'shish).

**Integratsiya ta'limi** - aqliy va jismoniy rivojlanishlarida kamchiliklari bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari jamoasida ta'lim olishi.

**Inklyuziv** - "inclusive" - qo'shuvchi, "inclusion" - uyg'unlashtirish degan ma'nolarni bildiradi.

**Inklyuziv ta'lim** - bolalarni bir-biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, umumta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati

ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga qo'shish.

**Interfaol metodlar** - ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qo'llanuvchi o'quvchilarning o'z va o'zaro faollashuvlariga qaratilgan yo'l va metodlar yig'indisi.

**Idrok** - Sezgi organlarimizga bevosiga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning ongimizda bir butun, yaxlit holda aks ettirilishidan iborat ruhiy jarayon.

**Ichki nutq** - Nutqning bu turi ongda shakllanadi va hoshqalarga bayon qilinadi. Ichki nutq ovozsiz, qisqa bo'ladi. Ichki nutq inson nutqiy tafakkurining muhim ko'rinishidir, shuning uchun ham nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda uni to'liq shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

**Impressiv nutq** - taassurot so'zidan olingan bo'lib, o'z g'alar nutqini idrok qilish, tushunishga asoslangan nutq turi.

**Initsiativ nutq** - Bolaning o'z tashabbusi bilan yuzaga kelgan mustaqil nutqi. Bolalar o'rtasidagi suhbatni ham initsiativ nutqga kiritish mumkin. Ichki nutqni paydo qilish uchun bolaning nutqi deyarli shakllangan bo'lishi zarur.

**Intellekt** - tushunish, tushuncha so'zidan olingan bo'lib insonning umumiy bilish faoliyati; uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, aqliy rivojlanishi.

**Kommunikatsiya** - insonlarning bilish va mehnat faoliyatlari jarayonidagi o'zaro bog'lanishlarining shakli bo'lib, ularning birgalikdagi amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi, bilish, fikr almashishga doir yoki emotsional xarakterdagi o'zaro ma'lumotlarning almashinuvi hisoblanadi.

**Kompensatsiya** - ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'rnini to'ldirish (qoplash).

**Korreksiya** - rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etish, yaxshilash, to'g'rilash.

**Korreksiya metodikasi** - ta'limiy maqsadga erishishni

ta'minlashda qo'llanuvchi maxsus ta'limiy shakl va vositalar majmuasi.

**Leksika** - tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi. Lug'at ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunadigan izchil va murakkab sistemani tashkil qiladi. Har bir tilning lug'ati to'xtovsiz o'zgarib turadi. lug'at boyib borishi jamiyat taraqqiyoti (ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va madaniyatning rivojlanishi) bilan chambarchas bog'liq.

**Logik urg'u** - so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash maqsadida gapdagi biror so'zni boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etish.

**Malaka** - mashqlarni ko'p takrorlash natijasida yuzaga keladigan avtomatlashgan harakatlar. Bolalarda. yurish, talaffuz etish, o'qish, yozish, hisoblash, mehnat qilish malakasi shakllantiriladi. Malaka hosil qilishdagi asosiy usul mashqdir.

**Maxsus ta'lim tashkilotlari** - imkoniyati cheklangan bolalarni tashxislash, o'qitish, tarbiyalash va maslahatlar berish uchun yaratilgan tashkilotlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar, umumta'lim maktablari qoshidagi logopedik punktlar, psixologo-tibbiy-pedagogik konsultatsiyalar, psixologo-pedagogik korreksiya kabinetlari, rehabilitatsiya markazlari va boshqa tashkilotlar.

**Maxsus ta'lim shart-sharoitlari** - maxsus ta'lim dasturlari va ta'lim usullari, individual texnik ta'lim vositalari hamda yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti, shuningdek pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va boshqa xizmatlar, zero bu xizmatlarsiz alohida yordamga muhtoj shaxslar ta'lim dasturlarini o'zlashtira olmaydilar.

**Metod** - yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, axloq, usul ma'nolarini anglatadi.

**Metodika** - biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodlardan tashkil topadi.

**Monologik nutq** - bir odam so'zlab, boshqalar uning

nutqini idrok qilishiga asoslangan nutq turi. Monologik nutqning buzilishi ko'pincha alaliya, afaziya, duduqlanish kabi nutq kamchiliklarida kuzatiladi.

**Morfema** - morfema so'zning eng kichik, bo'linmas ma'noli qismidir. Morfema bir yoki bir necha fonemadan iborat bo'lishi mumkin.

**Mustahkamlash** - esda qoldirilgan muayyan materialni turli usullar bilan ongimizda yanada mustahkamlashga qaratilgan xotira jarayoni.

**Noverbal muloqot** - axborot, fikrni so'zlashuv nutqidan boshqatana xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imohora, hatti-harakat va boshqalar).

**Nutq** - insonlarning tarixiy shakllangan, til vositasida yuzaga keluvchi muloqot qilishlarining shakli.

**Nutq madaniyati** - fikr almashish jarayonida nutqning to'g'ri, aniq, ravon, ifodali, mazmunli bo'lishiga erishish; so'zlarni o'z o'rnida ishlata bilish va to'g'ri talaffuz etish.

**Nutq kinesteziyalari** - nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar holati hamda harakatini his etish.

**Nutqni eshitish, ko'rish asosida idrok etish** - ko'rish va eshitish a'zolari yordamida og'zaki nutqni idrok etish.

**Ovoz** - Nutqning barcha jarayonini bosh miya bajaradi. Undan kelgan signal natijasida ovoz va muayyan nutq tovushlari paydo bo'ladi.

**Taqlid qilish** - biror shaxsning xatti-harakatini ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda takrorlash. Maxsus ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llanuvchi ish usullaridan birini tashkil qiladi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida pedagogga taqlid qilishlari asosida ma'lum ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

**Moderator** - ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.

**Trener** - o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan

mutaxassis.

**Fasilitator**–darsda ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

**Mentor**–ustoz, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

**Kouch**–ta‘lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish).

**Konsultant**–maslahat berish, tushuntirish, qo‘shimcha ma‘lumot berish.

**Lektor**–nazariy ma‘lumotlar bilan tanishtiruvchi.

**Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

**Innovator**–yangiliklarni ta‘lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qilish.

**Kommunikator**–o‘zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

**O‘qituvchi**–mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ko‘zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o‘quv jarayoniga rahbarlik.

**Menejer**–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

**Spekter**–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

**Assistent**–mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

**Sekretar**–zarur ma‘lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

**Texnolog**–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

**Metodist**–ta‘lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida

metodik masalalarni hal etib boradi.

**Koordinator** - loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

**Alaliya** - bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi.

**Afaziya** - bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi.

**Rinolaliya** - tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir.

**Dizartriya** - nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

**Duduqlanish** - nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur‘at-ohangning buzilishidir

**Artikulyatsion apparat** – og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan organlar holati va rivojlanishi.

**Mimik mushaklar** – yuzning harakat rivojlanishi.

**Umumiy motorika** – umumiy tana harakatining rivojlanishi.

**Fonema**- yun. olingan bo‘lib, “tovush” degani.

**Fonematik idrok** – eshitgan tovushlarni to‘g‘ri anglash.

**Frontal tekshirish** –bir necha bolalar ishtirok etgan, guruhli tekshirish.

**Fonematik analiz** – eshitib tahlil qilish.

**Frontal tekshirish** –bir necha bolalar ishtirok etgan, guruhli tekshirish.

**Fonematik analiz** – eshitib tahlil qilish.

**Korreksiyalash** – imkoniyati cheklangan bolalarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash, zaiflashtirish yoki to‘g‘rilashga qaratilgan psixologo-pedagogik choralar tizimi.

**Og‘zaki-nutqiy tayyorlik** – og‘zaki nutq tarkibidagi

tuzilmaviy komponentlar (fonetik-fonematik va leksik-grammatik tizim) rivojlanishining muayyan holati (darajasi).

**Diksiya** – (lotin. Talaffuz.)- Soʻzlarni aniq, ravshan talaffuz etish, soʻzlash usuli.

**Intonatsiya** – (lot. Baland talaffuz qilaman) -nutqning ohangi, kuy manbai, tovushning navbatma navbat koʻtarilishi.

**Pauza** – (yunoncha . toʻxtash, tugash) musiqa asari ijrosida birnecha, baʼzan barcha ovozlarning muayyan vaqt toʻxtalishiga sabab boʻladi.

**Duduqlanish** - nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishi natijasida surʼat ohangining buzilishidir.

**Dizartriya** – nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bogʻliq holdagi buzulishdir.

**Rinolaliya** – tovush tembri va talaffuzning nutq apparatidagi anatomik fiziologik nuqsonlar bilan bogʻliq holdagi buzulishdir.

**Gammatsizm** –(grekcha gamma g harfining nomi) –G tovushitalaffuzidagi kamchili.

**Kappatsizm**-(grekcha kappa K harfining nomi) –K tovushi talaffuzidagi kamchilik.

**Lambdatizm** (grekcha lambda L harfining nomi) L tovushi talaffuzidagi kamchilik.

**Progeniya**-(grekchapgogenus- pastiki jagʻ)-pastki jagʻning oldinga chiqishi.

**Prognatiya**-(grekcha prognathas-yuqori jagʻ) yuqori jagʻning oldinga chi-qishi.

**Rotatsizm** (grekcha rhotacismis, Poharfining nomini bildiradi)R tofushi talaffuzidagi kamchilik.

**Sigmatizm** (grekcha,sigma S harfining nomini bildiradi) Sirgʻaluvchi va shovqinli tovushlar talaffuzidagi kamchilik.

**Anartriya** – (an + grekcha arthroo tovushlarni bulib talaffuz etish) – dizartriyaning ogir formasi, nutq xarakat muskullarining paralichi tufayli nutq tovushlarini talaffuz qilish

mumkin bulmay koladi.

**Artikulyatsion kinesteziya** (kin – grekcha, aesthesis – sezgi) – artikulyatsiyani sezish.

**Artikulyatsion paraksiz** – maksadga karatilgan avtomatlashgan artikulyatsion xarakat aktlarini bajarish.

**Dizartriya** (diz – grekchaarthroo tovushlarni bulib talaffuz etish) – nutq apparatining innervatsiyasidagi kamchiliklar tufayli nutqning talaffuz tomonidan buzilishi.

**Kommunikatsiya** – (lotincha -kommunicatio- aloka) – usgalariningfikrini tushinish va ularga uz fikrini til vositalari orkali tushintira olish jarayoni.

**Motivatsiya** –motination ingiliz suzidan olingan bulib istak degan maʼnoni anglatadi.

**Assimetriya** (grekcha fsymmetria nomutanosiblik) nomutonosib qism, simmetriyaning yoʻqligi yoki buzilish.

**Obturator** (lotincha obturo,obturatumbekitmoq)-qattiq yoki yumshoq tanglaydagi kamchilikni bekitish uchun moslama.

**Rinolaliya** (lotincha «rinos»-burun, «lali»-nutq)-burunli nutq tushunchasini anglatadi.

**Uranoplastika**-qattiq tanglay yoriqligini bartaraf etish maqsadida qilinadigan operatsiya.

**Xeyloplastika**-labdagi yoriqlikni bartaraf etish maqsadida qilinadigan plastik operatsiya.

**Autogen** – (grekcha autos - oʻzi) – mustaqil rivojlanish.

**Autosugstiya** (auto+lotin. suggestio – ishontirish) – oʻz-oʻzini ishontirish.

**Geterosuggestiya** – (getero+lotin. suggestio - ishontirish) – boshqa shaxs orqali ishontirish.

**Duduqlanish** – nutqning temp va ravonligining buzilishi.

**Psixoterapiya** – (grekcha psyche – jon, therapeia – davolash soʻzlaridan) – bemorlarga psixik taʼsir koʻrsatish yordamida davolash. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda psixoterapiyada tushuntirish, ishontirish, gipnozdan foydalaniladi.

**Battarizm** ( grekcha battarismos — duduqlanish) —

haddan ziyod tezlashtirilgan nutq. Battarizmda soʻzlar juda tezsuraʼatda, noaniq talaffuz etiladi, gapdagi oxirgi soʻzlar tushirib qoldiriladi.

**Balneologiya** mineral suvlar va loylardan davo sifatida foydalanishni, shuningdek, turli kasalliklarni davolash va profilaktika metodlarini oʻrganadigan fan.

**Bradilaliya** (grek. Bradys - sekin, lalia - nutq) - nutq tempining patologik sekinlashuvi.

**Detsentralizatsiya** — markaziy organlarning baʼzi vazifalarini mahalliy organlarga berish.

**Interverbal sekinlashuv** — soʻzlar orasidagi pauzalarning choʻzilib ketish yoki nutq tovushlarini sekin, choʻzib talaffuz etish va soʻz tovushlari orasidagi pauzalarning choʻzilishi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI

1. M.Y. Ayupova "Logopediya". Toshkent 2007 yil, 463 b.
2. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. «Логопедические технологии»: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 137 с.
3. Qodirova F.U. "Texnologiya 4". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
4. Qodirova F.U. "Texnologiya 3". Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi, Toshkent, 2022. «Yangiyul polygraph servis» nashriyoti, 128 b.
5. Achilova S.J. Dislaliya. Dizariya // O'quv qo'llanma, Toshkent 2021, 140 b.
6. Achilova S.J. Duduqlanish // Pedagogika universiteti ham institutlarning defektologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik, Toshkent, 2022, «BOOK TRADE 2022» nashriyoti, 258 b.
7. Dehqanova M.G., Tag'onova G. Bolalardagi yozuv buzilishlari va ulardagi disgrafiyada o'ziga xos xatoliklarni paydo bo'lish mexanizmi // "Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovatsiyalar" mavzusidagi Respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi, 2022., 405-407 b.
8. Dehqanova M.G. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // NeuroQuantology, 2022. Vol. 20, pp. 1-9.
9. Tkachenko T.A. uchim govorit pravilno sistema korreksii obshego nedorazvitiya rechi u detey 6 let. Izd-vo. GNOM i D. 2001 yil.
10. Gulbeva G.G. Korreksiya narusheniya fonematcheskoy storony rechi u doshkolnikov. Iz-vo. Soyuz. – M., 2001 yil.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. Imkoniyati cheklangan bolalardagi nutq nuqsonlarini farqlash va ularga to'g'ri yondoshuv orqali logopedik texnologiyani qo'llash .....</b>	<b>7</b>
Imkoniyati cheklangan bolalarda olib boriladigan logopedik tekshiruv maqsad va bosqichlari bolalarda umumiy mayda motorikani tekshirish texnologiyasi .....	20
Umumiy va mayda motorikani tekshirish texnologiyasi .....	28
Artikulyatsion nutq apparatini tekshirish texnologiyasi .....	36
Nutqiy nafasni tekshirish texnologiyasi .....	46
Ovoz va prosodikani tekshirish texnologiyasi .....	58
<b>II BOB. Imkoniyati cheklangan va inkyuziv ta'limga jalb etilgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash .....</b>	<b>81</b>
Nutqning fonetik tomoni tekshirish texnologiyasi .....	84
Nutqning leksik tomoni tekshirish texnologiyasi .....	86
Nutqning grammatik tomoni tekshirish texnologiyasi .....	100
Zondlar bilan ishlash texnologiyasi .....	120
Individual va guruhli logopedik mashg'ulot ishlanmalar .....	131
<b>Glossariy .....</b>	<b>150</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati .....</b>	<b>167</b>

## QAYDLAR UCHUN

M.G'.DEHQANOVA

**Inklyuziv ta'lim sharoitida  
nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar  
bilan ishlashda logopedik  
texnologiyalardan foydalanish**

*MONOGRAFIYA*

Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva  
Musahhih: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 30.09.2024 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"  
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 10,625.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2664552.

«Ilm nurli kitob» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01

ISBN 978-9910-9397-4-7



9 789910 939747